

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“Kasb ta’limi” kafedrasi

**Pedagogika-psixologiya
ma’ruzalar matni**

QARSHI - 2017 y.

Tuzuvchilar: «Kasb ta'limi» kafedrası katta
o'qituvchisi **N.I.Amirov**

Taqrizchilar: **Qarshi davlat universiteti «Maktabgacha va
BTM» kafedrası dotsenti, p.f.n Sh. Nurullaeva,**
QarMII «Kasb ta'limi» kafedrası
dotsenti **Z. Batirov**

Ma'ruzalar matni barcha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda pedagogik-psixologik bilimlar, inson ta'lim-tarbiyasiga oid tushuncha-g'oyalar, pedagogik faoliyat, shaxs psixikasi, bilish jarayonlari va individual xususiyatlari kabi pedagogik-psixologik bilim asoslari muxtasar tarzda bayon etilgan.

Shuningdek, ma'ruzalar matniga milliy mustaqillik mafkurasi g'oyalari singdirilgan.

Mazkur ma'ruzalar matnlari to'plami «Kasb ta'limi» kafedrası majlisida (Bayon № «__» ____ 2017 _ y.) ko'rib chiqildi. «Muhandis-texnika» fakulteti uslubiy Komissiyasi (Bayon № «__» ____ 2017 y.) hamda institut uslubiy Kengashi tomonidan (bayon № __, «__» ____ 2017 y.) o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

ANNOTATSIYA

Ushbu ma'ruzalar matni to'plami bakalavriat ta'lim standartlariga kiritilgan «Pedagogika-psixologiya» fanini ixtisosligi «Pedagogika» va «Psixologiya» bo'lmagan oliygohlarda o'qitishga mo'ljallangan. To'plamda pedagogik bilim asoslari, ta'lim-tarbiya jarayoni qonuniyatlari, innovatsion o'qitish usullari, shaxs psixikasi, rivojlangan ta'lim tizimlari va O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

Har bir ma'ruza uchun reja, qisqacha uning mazmuni, mavzuga oid tayanch so'zlar, adabiyotlar ro'yxati hamda mustaqil ishlash, auditoriyada muhokama qilish uchun savol va topshiriqlar berilgan.

Mazkur ma'ruzalar matnidan pedagog xodimlar va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish tizimida ham foydalanish mumkin.

АННОТАЦИЯ

Данный сборник текстов лекций предназначен для студентов высших учебных заведений не специализирующихся по направлению педагогики и психологии.

В сборнике изложены основы педагогических знаний, раскрыты принципы воспитания, современные методы обучения, особенности развития системы образования Республики Узбекистан.

Для каждой лекции дан план, краткое содержание лекции, термины по теме, список литературы а также вопросы и задания для самостоятельной работы и обсуждения в аудитории.

Сборник лекций также можно использовать для повышения квалификации педагогов и руководящих кадров.

ABSTRACT

This collection of text lecture is intended for students of the high educational none technical institutes in pedagogic and psychologies directions. Bases of the pedagogics knowledge's, and their educational consider main direction in developing social and economu.

For each lecture the plan is given, its brief contents, the terms on the theme, list of literature and also are given questions and tasks for independent work and for discussion in audience.

The given collection of lectures also can be used for improvement of professional skill of teachers and managing staff.

MA'RUZA SOATLARINING TAQSIMOTI

T/R	Ma'ruzalar nomi	Soat
1	Pedagogikani o'rganish zaruriyati	2
2	Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar. Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi	2
3	Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati	2
4	Pedagogik texnologiyalar. Pedagogik muuloqot	2
5	O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari	2
6	O'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari	2
7	Pedagogik nazorat va ta'lim sifatini baholash. Ma'rifiy tizimlarni boshqarish	2
8	Psixologiya fanining predmeti va vazifalari .Psixologiya fanining tadqiqot metodlari	2
9	Shaxs va uning faoliyati	2
10	Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va ularning adekvatligi	2
11	Muloqot	2
12	Boshqaruv psixologiyasi	2
13	Mehnat psixologiyasi	2
	J A M I :	<i>26 soat</i>

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, ma'rifati, ilm-fan, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan Shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. O'zbekistonning kelajaki va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi hamda ma'naviy yetukligiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda har bir fanning o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjud. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun milliy tajribaning tahlili va ta'lim asosida yuksak umumiy va mutaxassislik madaniyatiga, ijodiy - ijtimoiy faollikka, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Bunday kadrlar Oliy ta'lim tizimining bakalavr va magistr tayyorlash bosqichlarida amalga oshiriladi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasining istiqloli davrida ta'lim-tarbiyaning roli yanada oshib bormoqda. Bugungi kunda pedagogika - psixologiya fanining zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va tafakkurga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishda barcha ta'lim maskanlari ijobiy natijalarga erishmoqda.

Ma'lumki, pedagogika-psixologiya fani faqat yosh avlodni shakllantirish uchungina zarur bo'lib qolmay, balki uning roli jamiyatning hamma sohalarida muhim bo'lmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda yoki xalq xo'jaligining biror - bir sohasida kompleks tarbiyaviy tadbirlarini qullamasdan turib biror bir natijaga erishish mumkin emas. Shularni hisobga olgan holda ushbu to'plamda asosiy e'tibor mustaqillik davrida pedagogika-psixologiyaning maqsad va vazifalari, oliy o'quv yurtlarida mutaxassis kadrlar tayyorlashda bo'lajak mutaxassislarning pedagogik-psixologik xususiyatlari, fanning rivojlanish tarixi, nazariy asoslari va uning kasbiy hamda axloqiy xususiyatlari, talabalarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, hamda ularni jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash masalalariga qaratilgan.

Ushbu ma'ruzalar matnidagi mavzularda fanning maqsad va vazifalari, pedagogik-psixologik tushunchalar, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari, tashkiliy shakllari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, uzluksiz ta'lim, o'qitish metodlari, milliy Sharqona tarbiya mezonlari, shuningdek Sharq mutafakkirlarinig pedagogik-psixologik qarashlari, shaxs psixikasi, shaxsning bilish jarayonlari, individual va yoshga bog'liq xususiyatlari umuman fanga oid muhim ma'lumotlar berilgan.

1- Ma'ruza: Pedagogikani o'rganish zaruriyati

Reja:

1. 1. *Pedagogika inson tarbiyasi to'g'risidagi fan.*
1. 2. *Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.*
1. 3. *Pedagogik jarayonda nazariya va amaliyot tushunchasi.*
1. 4. *Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning tutgan o'rni*

Adabiyotlar. 5, 12, 14, 18, 19, 21.

Tayanch iboralar: pedagogika, asosiy kategoriyalar: ta'lim, tarbiya, ma'lumot, irsiyat, shaxsning kamol topishi, muhit, usul, o'qituvchi, pedagogik fikrlar, pedagogik fanlar tizimi;

1.1. Pedagogika inson tarbiyasi to'g'risidagi fan.

Pedagogika darsliklarida, bir qancha kitoblarda pedagogikaning bahsi (predmeti) turlicha yaqinlik darajasida ta'rif berilib tushuntirilgan.

Pedagogika – inson tarbiyasi to'g'risidagi, yoshlarni va kattalarni tarbiyasi to'g'risidagi fan. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi.

Pedagogika grekcha «paydagogik» so'zidan olingan bo'lib, «bola yetaklovchi» degan ma'noni bildiradi. Mustaqil pedagogika fani XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida vujudga kelgan. Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun tarbiya jarayonlariga ta'sir etishni nazarda tutadi. Demak pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandır.

Shuni unutmash kerakki, pedagogika fani yutuqlarisiz jamiyatni olg'a siljitish g'oyat mashaqqatli kechadi. Pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganish lozim. Ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish – bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartidir. Bunda o'qituvchining beg'araz mehnati, bolalarni sevish va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga jiddiy yondoshmoq darkor. Ayniqsa pedagoglar ushbu fanni chuqur va puxta bilishlari shart.

Hozirgi kunda pedagogikani (mutaxassislikdan qat'iy nazar) hamma bilish lozim bo'lgan fan deb hisoblash lozim, chunki insonlar hayot faoliyatlari davrida ta'lim-tarbiya ishlari bilan ma'lum darajada shug'ullanishga majburdirlar. Pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'lgan. Qadimdan inson tarbiyasiga oid bo'lgan fikrlar, qarashlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Markaziy Osiyo allomalaridan A. Yassaviy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, A.Jomiy, A.Navoiy kabi ma'rifatparvar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya, inson kamoloti haqidagi g'oyalari, fikr va qarashlari o'z asarlarida batafsil bayon qilingan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk Didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. XVIII asrga kelib O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XX asrning boshlarida vatandoshlarimizdan M. Bexbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, A. Fitrat, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifatparvar jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usul maktablari tuzishda, darsliklar yaratishda, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Hozirgi davrda pedagogikaning vazifasi milliy istiqlool g'oyalariidan kelib chiqadigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlarini ishlab chiqish, milliy ta'lim tizimini yaratish va yosh avlodni bilim, ma'naviy madaniyatini jahon andozalari darajasiga yetkazishdir.

1.2. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.

O'zbek pedagogikasining vazifasi respublikamizda yashovchi turli millat-elatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berishdir. Haqiqatdan ham bola dunyoga kelar ekan, o'z zamonasining jamiyat rivojlanganlik darajasiga ko'tarilishi, oldida turgan ijtimoiy tarixiy tajribalarni egallashi, hayotda o'z o'rnini topishi, milliy taraqqiyotda faol ishtirok etishi, boshqacha qilib aytganda ta'lim-tarbiya olishi zarur.

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar o'zlari turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Demak, tarbiyalash avvalo ijtimoiy hayot jarayonida yig'ilgan tajribalarni avlodlarga yetkazib berishdir. Tajriba ijtimoiy hodisa sifatida inson shaxsini tarkib toptirish uni hayotga tayyorlash va shunday bo'lib qoladi. Tarbiya bevosita mehnat bilan bog'liq holda berib borilgan. Shaxs kamoloti murakkab dialektik jarayon bo'lib, kishiga ta'sir ko'rsatadigan ob'ektiv, sub'ektiv omillar stixiyali va maxsus (ongli) yo'naltirib boriladi.

Ibtidoiy jamoa davrida ta'lim-tarbiya umumning ishi hisoblangan. Butun bir jamoa bir kishi rahbarligida ov qilgan, mehnat qilgan boshqarib borilgan. Quldorlik jamoasi davriga kelib quldorlarning bolasiga beriladigan tarbiya bilan qulning bolasiga beriladigan tarbiyada tafovut vujudga keldi. Bu davrga kelib tarbiya borasida uyg'onish (rezonans) davri boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ta'lim-tarbiyaning tamal toshini belgilaydigan qonun-qoidalar, urf-odatlar tizimi shakllandi, taraqqiy etdi. O'qituvchi-tarbiyachi faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb egalari, maktablar paydo bo'la boshladi.

Feodalizm jamiyati davriga kelib ta'lim-tarbiya mazmuni hayotda alohida yuqori darajaga erishdi. Ilm-fan, madaniyat, san'at taraqqiy etdi, vujudga keldi. Ayniqsa islom dinining kirib kelishi jamiyatning ma'naviy hayotida tub o'zgarish yasadi. Bu orada o'zbek xalq pedagogikasi shakllandi va o'z tarbiyaviy vazifasini o'tadi. O'sha davr ta'lim-tarbiyasi ta'siri ostida Markaziy Osiyoda al-Xorazmiy, Beruniy, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Buxoriy kabi ko'plab allomalar yetishib chiqdilar, ularni aytib ado qilib bo'lmaydi.

Sobiq ittifoq davrida ta'lim-tarbiya mazmuni hayotimizda o'ziga xos xarakterga ega bo'ldi. Bu davrda biz eng muhimi milliy mafkura, ma'naviy qadriyat, urf-odatlarimizdan uzilib qoldik. 70 yillik mutelik oqibatida ta'lim-tarbiyadagi milliylikka putur yetdi.

Bugungi kunga kelib esa barcha qadriyatlarimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy ta'limiy-tarbiyaviy tajribalarimiz qayta tiklandi. Mustaqil O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri–yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobatbardosh kadrlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya hayotning ajralmas bir qismi, u ijtimoiy- tarixiy zarurat sifatida paydo bo'lgan, bor va bo'ladi.

1.3. Pedagogik jarayonda nazariya va amaliyot tushunchasi.

Bilish bu avvalo sezishdan, hissiy sezishdan boshlanadi. Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noaniq bilishdan aniqroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Ushbu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi.

Bilish ikki pallaga – nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik, raqam va shu kabilar. Nazariyada g'oya shakllanadi. Amaliyot bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish, - bular amaliyot shakllariga kiradi. Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilishning vazifasi hodisalarning mohiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo'lish sabablarini ham ko'rsatib berishdan iborat. Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo'lib kuzatish, tajriba asosida qo'lga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo'lmaydi.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari bilishda omillarni o'rganishga katta e'tibor berganlar. Abu Nasr Forobiy (873-950) bilimning elementi bo'lgan omillarni o'rganishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, bilimning asosini mavjud narsa va hodisalarni inkor ettiradigan omillar tashkil etadi. Ibn Sino (980-1037) kasallikni vujudga keltiruvchi omillarni o'rganish asosida kasalliklarni turlarga ajratadi va davolash usullarini ishlab chiqdi. A. Beruniy (973-1048) tabiat hodisalari sirlarini o'rganishda tajriba, empirik kuzatish va ular asosida olingan faktlarga asoslanadi.

Demak, bilish sezishdan boshlanadi. Sezish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir etuvchi ayrim sifat va xossalarning ongimizda aks etishidir. Sezgilar – odam haqidagi barcha bilimlarimizning boshlang'ich manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan, olimning bilishi bilan o'quvchining bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham lekin, ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanga ma'lum bo'lmagan yangi haqiqat-g'oyalarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar. O'quvchilar esa ta'lim jarayonida olamni bila borib, o'zlari uchun ilgari noma'lum bo'lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyotida tekshirib ko'rilgan yangi fikr, narsa va hodisalarni bilib

oladilar. O'qituvchi o'quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni, g'oya va bilimlarni bilishga to'g'ri, yengillashtirilgan, vaqt jihatidan qisqa yo'ldan olib boradi. Ana shu jarayonda o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishga faol munosabatda bo'lishi uning bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi.

1.4. Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning tutgan o'rni

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z tarixini, jumladan pedagogika tarixini o'rganish uchun keng yo'l ochdi. O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarning shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini hayotga tadbiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda. Agar yoshlar masalasini umumjamiyat miqyosidagi masala tarzida idrok etadigan bo'lsak, yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash – ularning ongi va ruhiyatini muayyan g'oyalar va qarashlarga qaratmoqdan iboratdir. Yoshlar qanday g'oyalar bilan qurollangan bo'lsa, ularning amaliyotdagi faoliyati hamda fe'l-atvori ham shunga yarasha bo'ladi. Jumladan kelajagimiz bo'lmish talaba yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash borasida milliy istiqlol g'oyasini ular ongiga singdirib, ular ruxiyatida ma'naviy kuch-qudrat hosil qilish lozim.

Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishning zaruriyati, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi nazariy masalalar mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlarida to'laqonli o'z ifodasini topgan.

«Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar.» Bu fikrlar milliy istiqlol mafkurasining hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlaydi. Birinchi Prezidentimizning fikricha: «Biz kishilar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki biz odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish fikri tarafdorimiz. Erkin fuqaro, ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan Shaxs ma'naviyatini kamol toptirish – bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi kerak». Demak, bugungi kunda g'oyani, fikrni taqiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin.

Prezidentimizning bu fikrlarini g'oya, mafkura, milliy g'oya, milliy mafkura, ma'naviyat atamalarining etimologiyalari ham tasdiqlab beradi.

Ma'naviyat - arab tilidiga «ma'no» yoki «ma'naviyatun», «ma'noi g'oya» so'zlaridan olingan bo'lib, «ruhiy holat» degan ma'noni bildiradi.

G'oya deb - inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni euzu niyatlar, maqsad-muddao sari yetaklaydigan fikrga aytiladi. Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir.

Mafkura - muayyan tuzum davrida insonlarni davlat, jamiyat o'z-o'ziga, xalqi, olamga munosabatlari va ular rivojining ma'naviy - ilmiy tizimidan iborat.

Milliy mafkura - xalqimizning ma'naviy-ilmiy mentaliteti, g'oyalari asosidagi amalga oshirilayotgan ishlar, jarayonlardagi tutayotgan yo'li, davlatga, jamiyatga, odamga, o'z-o'ziga, taraqqiyotga munosabatlar tizimidan iboratdir.

Mafkuraviy tarbiyani, istiqlool g'oyasini ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish natijasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish ularda axloqiy fazilatlarining o'sishiga olib keladi.

Ta'lim maskanlarida yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalash jarayonida ularga axloqiy, aqliy, estetik, huquqiy tarbiya haqidagi bilimlar berib, ular ongiga ma'naviyat, ma'rifat tushunchalarini, tuyg'ularini singdirib, hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, diniy, estetik va kasbiy qarashlarini maqsadli va ijobiy shakllantirish barcha o'qituvchi-murabbiylarning asosiy burchi va vazifasidir. Milliy istiqlool g'oyasini shakllantirish, uni yoshlar ongiga singdirish jarayonida avvalombor, mamlakatning bugungi hayoti, o'tmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun kayg'uradigan, Vatan qismatini o'z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg'or dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanishi lozim.

Milliy istiqlool mafkurasi yosh avlodni tarbiyalashning beqiyos omilidir. Milliy istiqlool g'oyalarini shakllantirish va talaba-yoshlar ongiga singdirish vazifasi hayotiy zaruratga aylanib, bu fanning, g'oyaning ahamiyati, ijtimoiy fanlar orasida tutgan o'rni, fanlar bilan aloqasi, tarbiyalovchilik vazifalari namoyon bo'lmoqda. Mazkur muqaddas vazifani amalga oshiruvchi ustoz-murabbiylardan esa fidoyilik, faollik va o'ta ma'suliyat har qachongidan ham ko'ra kuchliroq talab etilyapti. Shunday ekan, yurtimizdagi barcha ziyolilar, o'qituvchi-pedagoglar Prezidentimizning milliy istiqlool g'oyasi va mafkura tushunchalarini qay tarzda yuksak ta'riflab berishini anglab yetgan holda uning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib, yoshlarga astoydil yetkazib tushuntirib berishlari maqsadga muvofiq.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Pedagogika nimani o'rganadi va u qachon paydo bo'lgan?
2. Pedagogikaning lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
3. Pedagogikaning asosiy tushuncha (kategoriya)lariga nimalar kiradi?
4. Ta'lim va tarbiya deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogika fanlar tizimiga qanday tarmoqlari kiradi?
6. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari nimalardan iborat?
7. Maxsus pedagogika deganda nimani tushunasiz?
8. Pedagogika tarixi nimani o'rgatadi?
9. Ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsad nima?

2- Ma'ruza: Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar. Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi

Reja:

- 2.1. Jahon ma'rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlili. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya.**
- 2.2. O'zbekiston hududida eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar.**
- 2.3. VII - IX asrlarda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.**
- 2.4. Sharq uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyat.**
- 2.5. XIV-XV asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya.**

Adabiyotlar. 9, 12, 14, 15, 21, 24.

Tayanch iboralar: Axloq, pedagogik qarashlar, "Avesto", tarbiya maktablari, diniy ta'limotlar, yozuv, qog'oz, hadis, maktab, madrasa, "Markazlashgan davlat", ilm, fan, madaniyat, «Temur tuzuklari», «Ziji Ko'ragoniy», «Boburnoma», ijtimoiy hayot;

2.1. Jahon ma'rifiy fikrlarining tarixiy-pedagogik tahlili. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya.

Axloq va pedagogik qarashlar hamda ta'limotlar tarixiy jarayon bo'lib, kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan paydo bo'lib, shakllanib rivojlanib borgan. Tarbiya va axloqiy fikrlarning kelib chiqishi ibtidoiy jamiyat, uning yovvoyilik va vahshiylik davrlari tugab, sivilizatsiya davri boshlanganida «Aqlli odam» (Xomosapiens) deb atalgan odamlar shakllangan davrda paydo bo'la boshlagan.

Tarbiya haqidagi pedagogik fikrlar, qarashlar va ta'limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Xoldey, Vavilon (Bobil), Misr, Xindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan. Shu boisdan eng qadimgi maktablar Sharq mamlakatlari, jumladan Xoldey, Vavilon, Misrda va Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar¹.

Qadimgi Misr o'zining tarbiyaviy-axloqiy pandnomalari (quldorlar hayotiga doir xilma-xil maslahatlar, do'stlar bilan, xizmatkorlar bilan muomala qoidolari va hokazo) bilan mashhur bo'lgan va ularni koxinlar (kelajak haqida «karomat qiluvchi» kishilar, ruxoniylar) yaratganlar. Ular axloqning ibtidosi samoda deb qaraganlar hamda odamning buyuk maqsadini xudo bilan qo'shib ketishda ko'rganlar, asosiy axloqiy majburiyatni firavinlar (Qadimgi Misr podsholarining an'anaviy nomi) ga xizmat qilish va xudolarga hurmat bilan qarash deb bilganlar. Koxinlar kishilardagi «odobsizlik», «tarbiyasizlik» xudolarni lozim darajada e'zozlamaslikdan paydo bo'ladi deb bilganlar. Demak, Qadimgi Misrda diniy va dunyoviy ma'nodagi axloqiy-tarbiyaviy ta'limotlar paydo bo'lgan.

Eramizdan avvalgi II asrda qog'oz ilk bor Xitoyda kashf etildi va ishlab chiqilgan. Keyinchalik VII asrda Samarqanda qog'oz ishlab chiqarila boshlandi va Yevropa mamlakatlariga sotilgan. XVII asrda qog'oz ishlab chiqish Yevropa

mamlakatlariga ham yoyilgan. 1000 yildan buyon bo'lib kelayotgan qog'oz bosish Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin to'xtatilgan.

Sharq mamlakatlaridagi ilk tarbiya maktablarida xat-savod o'rgatish murakkab, og'ir ish hisoblangan. Ilm olish – nina bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Shu boisdan mutafakkir olimlar o'qitishning yengilroq usullarini topish ustida bosh qotirganlar. Bu davrlarda yozuv, o'qish, hisob va din ilmlari yaratildi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom o'rnatilgan, bolalarga nisbatan jismoniy jazo qo'llangan. Markaziy Osiyoda falsafiy, axloqiy, ma'rifiy tafakkurning ilk kurtaklari xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan. Ularda yozuv paydo bo'lgunga qadar va undan keyin ham xalq ruhi va ma'naviy faolligi aks etgan. Sharqda, jumladan O'zbekiston hududida ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor berilib, bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr oqibatli qilib voyaga yetkazish, el-yurtga nafi tegadigan farzand qilib o'stirish masalalariga otabobolarimiz jiddiy e'tibor qilishgan.

Eramizdan oldingi VI asrdan milodiy V asrgacha bo'lgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, Respublika boshqaruvi o'rnatildi. Bu davrda o'ziga xos ta'lim-tarbiya tizimlari va mutafakkirlar tomonidan o'ziga xos pedagogik ta'limotlar yaratildi.

Afinadagi quldorlar o'z bolalariga aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyalarni berganlar. Afinada bolalar 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar «gramatist va kifaristlar» maktablarida ta'lim olganlar. So'ngra 14-15 yoshli bolalar «polistra» (kurash) maktablarida taxsil olgan. 16-17 yoshli bolalar «Gimnaziya» da, 18-20 yoshli bolalar esa Efiliya maktablarida ta'lim-tarbiya olganlar.

Yunonistonlik olimlar Demokrit, suqrot, Aflotun, Arastu, shuningdek mashhur Rim pedagogi Kvintilianlar o'z asarlarida ta'lim-tarbiyaga doir pedagogik nazariyalar yaratdilar.

Masalan, **Demokrit** tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rta qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarurligini o'qitirgan. U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko'rsatib, pedagoglar, ota-onalar bolada yaxshi xulq hosil qilish uchun ularga foydali xatti-harakatlarni ko'proq mashq qildirishlari lozim, degan edi.

Qadimgi mashhur grek olimi **Suqrot** (er. av. 469-309 yy) axloq-tarbiya sohasida maktab yaratib, u guyo xudo yaratgan umumiy fazilatlarni targ'ib etdi. Suqrot odamni fazilatga o'rgatishdan oldin, eng avvalo umumiy etika-tarbiya qonuniyatlarini, mezonlarini bilish zarur deydi. Arastuning «Iskandarga nasihat» asarida bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazardan hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham odobi xususida diqqatga sazovordir. Negaki, saylab qo'yish taomili o'qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga katta majburiyatlar yuklagan. Bu taomil Afina davlatida pedagoglik ishining ommaviyligini, unga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi.

Rim pedagoglaridan eng mashhuri – Mark Fabiy Kvintilian «Notiqni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida pedagogik fikrlarni, o'qitish sohasiga doir qarashlarni bayon etadi. Uning fikricha, bola maktabda ta'lim-tarbiya olishi lozim.

O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi kerak. Kvintilian o'z pedagogik qarashlarida insonning tabiiy belgilariga e'tibor beradi va uning fikricha, inson shaxsining shakllanishi uchun bolani yoshligidan boshlab tarbiyalash kerak.

Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari, pedagogik qarashlar va ta'limotlar haqida tarixan o'rganar ekanmiz, qadimgi Yunoniston va Rim pedagoglarining yuqorida keltirgan g'oyalarini tilga olish o'rinlidir. Chunki, O'rta Osiyoda yashagan mutafakkirlar Hindiston, Xitoy kabi Sharq mamlakatlari madaniyati, ilm-fani, tarbiyashunosligi bilan bir qatorda qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati, falsafasi va pedagogikasiga ham e'tibor berganlar.

2.2. O'zbekiston hududida eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar.

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Ruxga sig'inish - onimizm, ajdodlar ruxiga sig'inish totemizm, sexrgarlik kabi diniy ehtiқodlar va marosimlar aks ettan afsonalar, rivoyatlarda eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya xaqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita etib kelmagan.

Turkiy va forsiy zabon xalqlarning «hayot kechirish san'ati, donolik malsmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lish namunasi» ifodalangan ma'naviy madaniyat yodgorliklari: Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatları, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy voqealarini ifoda etuvchi qomusiy yodgorlik namunasi bo'lmish «Avesto»; afsonaviy qaxramonlar tasvirlangan dostonlar ya'ni, «Alpomish», «Manas», «Shiroq», «To'maris», «Go'ro'g'li», «Murodxon», «Ravshan», shuningdek qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» asarlari, Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Urxun-Yenisey bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va shular orqali bizgacha etib kelgan. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan Urxun-Yenisey bitiklari ham VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar beradi. Garchi Urxun-Yenisey yozma yodgorliklari bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bagishlanmagan bo'lsa ham, ulardan o'sha davr axloqiy talablar yuzasidan ma'lum bir ma'lumot olish mumkin. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qaxramonlik mazmunidagi juda ko'p afsonalar rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» ga kiritilgan. «Avesto»da insonning barkamol bo'lib etishishida uning so'zi, fikri, ishi, birligiga katta ehtibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz.

Ma'lumotlarga ko'ra «Avesto» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi. «Avesto» ning vatani Xorazm ekanligini olimlar ishonch bilan ta'kidlaydilar: Zardusht eramizdan

oldin VI asrda yashagan. Zardusht ko'p xudolikka sig'inish, qurbonlik natijasida mollar qirilib ketayotganini hamda qabilalar o'rtasidagi nizolarni ko'rib, uni oldini olishni o'ylaydi va o'z ta'limotini targ'ib eta boshlaydi. Zardusht xudodan kelgan vaxiy orqali ko'pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ'ib etib chiqadi, kuchli hokimiyat o'rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya etadi.

Zardushtning yangi ta'limotini istamagan qabila boshliqlari uni taqib etadilar. U Rayga (Eronga) qochadi va o'z dinini o'sha yerda tarkib toptiradi. «Avesto»ni shox Vishtaspga (Gushtasp) taqdim etadi. Shox Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona ibodatxonalar qurdiriladi va zardushtiylik dini keng tarqaladi. Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat «Avesto» ni oltin taxtaga yozdirilib, shox otashkadasiga topshiriladi.

Manbalarda «Avesto» ning kitob holiday matni eramizdan oldingi 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgani keltiriladi. Bu nusxasi Iskandar istilosigacha Istaxr shahrida saqlangan. Iskandar Istaxrni bosib olgach, «Avesto»dagi tibbiyot, nujum, ilmu xikmat soxalariga oid matnlarni yunon tiliga tarjima qilib, boshqasini yoqib yuborishga buyurgan. Ba'zi tadqiqotchilar eng qadimgi nusxasi 1324 yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopingagen kutubxonasida saqlanishini aytishsa (N.Mallaev), boshqalar esa (V.A.Livis) 1288 yilda eng qadimgi qo'lyozma nusxasi yaratilganini aytadilar. Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda insonda eng qadrlanadigan xislat jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik bo'lgan. Bu xislatlar o'z-o'zidan shakllanmagan.

2.3. VII - IX asrlarda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar

Ma'lumki, Movarounnahrda VII-VIII asrlardagi arab istilolari natijasida xalifalik deb atalgan katta davlat vujudga keldi. Arablar istilo etgach Movarounnahrda ham islom g'oyalariga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi o'rnatila boshlandi va yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Arablar islom dinini yoyishda turli usullardan foydalandilar. Kim islom dinini qabul qilsa, soliqlardan ozod etildi. Tarixchi Narshaxiyning hikoya qilishicha, har juma kuni aholi juma namozini o'qish uchun jome' masjidiga chaqirilib, kelib namoz o'qiganlarga ikki dirhamdan mukofot berilar edilar.

Arablar istilo etgach Movarounnahrda ham islom g'oyalariga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi o'rnatila boshlandi va yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim muassasalari paydo bo'ldi. Islom dini qabul qilingan joylarda machitlar, machitlar qoshida esa maktablar tashkil etildi. Arab tilini o'rganish joriy etildi, maktablarda ta'lim arab tilida olib borilar va u erda asosan " Qur'on i Karim" o'rganilar edi. Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatish maqsadida "Xaftiyak", "Chor kitob" kabi darsliklar o'qitilardi. Musulmon maktablarida arab tili alohida muhim fan tariqasida o'qitilar edi, bilimlar ana shu tilda o'rganilar edi. Xalifalikni xilma-xil qabilalar yashaydigan qismlari arab tili orqali bir-biri bilan aloqa qilib turardi. Xalifalik bo'linib ketgandan keyin (X asr) arab tili xalqlar o'rtasida savdo va madaniy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilib qolaverdi.

XII asrdan boshlab, islom dinini turkiy tilda yozilgan asarlarda ham ommalashtirish boshlandi. Misol tariqasida Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" asarini keltirish mumkin. Xalq asosan, o'z ona tilida so'zlashsa ham, yozuv arab alifbosida

edi. U davrda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni o'rganishdan boshlanar edi. Maktab so'zining, arabcha "yozuv o'rgatadigan joy" deb nomlanishi ham ana shundandir. Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan, bundan tashqari, o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, husnixat, arifmetikadan saboq berilgan.

Har bir maktab talabasining soni 30, 40 dan oshmagan. Machitlar huzuridagi maktablarda asosan "Qur'on" o'qitilgan. Bolalarga dastlabki sabok harflarni o'qishdan boshlangan, bu usulda har bir bola alifbe tartibida harfning nomini bilib olishi (alif, be, te, se, va hak.), so'ngra shu harflarni qo'shib o'qishni mashq qilar edi. Ana shu mashq oxiriga yetganidan so'ng, bolalar qo'llariga "Qur'on" berilgan va domla raxbarligida "Qur'on" ning har bir surasi takrorlanib o'rganilar edi. Lekin "Qur'on" ni o'qish bolalar uchun juda og'ir edi. Chunki maktablarda asta sekin faqat og'zaki mashq usuliga "Savod" chiqarilishga o'tgach, savod chiqarish yanada qiyinlashdi. Yozuv aloxida "fan" sifatida ajratilib, kotiblik kasbiga o'qiyotganlargagina yozuv o'rgatilar ediyu shunga qaramay, maktablarga deyarli hamma bolalar tortiladi va "Qur'on" ni o'rganish majbur qilib, arab bo'lmagan bolalar uchun uni yodlash har qancha og'ir bo'lsa ham, Movarounnahr maktablarida "Qur'on" ning bu usuli qabul qilindi va to'g'ri deb topildi. Bu usul keyinchalik bolalarning madrasada o'qitish uchun ham kerak edi.

Husnixat va arifmetika bilan yana xususiy muallimda shug'ullanar edilar. Movarounnaxrda arab bo'lmagan bolalarga "Xaftiyak" VIII asrda tuzilgan bo'lib, "Qur'on" suralaridan yettidan biri tanlab olingan darslik sifatida o'rganilgan. X- XII asrda islom dini rukunlari dars tojik tilida she'r va nasr bilan bayon qilingan "Chorkitob" o'qitila boshlandi. XII asrdan boshlab Axmad Yassaviy, undan so'ng XVII asrdan So'fi Olloyorlarning turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o'rganila boshlandi. Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otinoyilar uyida o'qitilar, ular yozuvni emas, faqat o'qishni o'rganar edilar.

X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. "Madrasa" so'zi "dars o'qitiladigan joy", "Ma'ruza tinglaydigan joy" ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, madrasalarda musulmon diniy o'qimlari arab tili grammatikasi va qoidachilik, ilohiyot, mantiq, notiklik maxorati, kalom, o'rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar o'kitila boshlandi. Bo'lajak xatiblar madrasalarda dars tinglash bilan kifoyalanib qolmasdan, balki shu madrasalar hujralarida diniy ruknlarga qat'iy rioya qilgan holda besh vaqt namozni kanda qilmay yashar edilar. Monastirlardagi budda va xristian maktablari singari madrasa huzurida hammaning namoz o'qiydigan joyi masjid bo'lar edi. Mullavachchalar shu madrasalardagi hujralarda yashar edilar, madrasa hovlisiga xotin-qizlar kiritilmas edi.

Markaziy Osiyoda dastlabki madrasalar diniy kurash avj olgan vaziyatda vujudga keldi. Ijtimoiy mojarolar mana shunday diniy kurash niqobi ostida olib borilar edi. Markaziy Osiyodan so'ng islom dini hukmron bo'lgan g'arbiy rayonlarda ham madrasalar ochila boshladi. Madrasalarda 15-20, 30-40 va 100-150 tacha talaba o'qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi. Ma'lumki, islom aqidalari e'tiqod va talablari, xuquqiy va

axloq me'yorlari "Qur'on" va uning tavsiflarida, "Hadis"larida hamda shariat qo'llanmalari, ilohiyot adabiyotlarida ifodalangan.

Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olomshumul ta'limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinch-omon yashashlarini o'qtirib keladi. Ayni paytda islom dinida razolat, kibr-havo, adovat, xasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imyon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlariga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, oriyatli, nomusli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar». Biz uning mazmun mohiyatini qanchalik yaxshi va tez o'rgansak, ana shu yomon niyatli kishilarga shunchalik tez zarba beramiz va g'oyaviy bo'shliqning oldini olgan bo'lamiz. Bunda bizga "Hadis"lar ham katta yordam beradi.

2.4. Sharq uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyat.

IX asrda Sharq mamlakatlarida boshlangan va madaniy hayotda yuz bergan ko'tarinkilik ma'naviy hayotda ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Ana shu ko'tarilish butun Arab xalifaligini, yaqin va o'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu uyg'onish jarayoni IX asrlardan boshlanib XV-XVI asrlargacha davom etdi. Bu jarayonda arab xalqlari bilan birga Eron, Kavkaz orti, Shimoliy Afrika, Markaziy Osiyo olimlari ham ishtirok etdilar. Buni biz xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786-833), so'ng uning o'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda «Baytul hikma» («Donishmandlik uyi»), hozirgi davrda Akademiya ma'nosida tashkil etilganidan ham bilsak bo'ladi. Mazkur Akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlanagan. Akademiya koshida rasadxona ham bo'lgan, yangi kutubxona kurilgan. Bag'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm-fanning tarakkiy etishiga, ma'naviy xayotning rivoyaslanishiga ta'sir etgan.

Xorun ar-Rashidning ikkinchi o'g'li al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnaxr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javxariy, al-Faryuniy, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va «Baytul xikma» - donishmandlik uyi («Ma'mun akademiyasi»)da arab olimlari bilan xamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi. Shuningdek, Sharq Uyg'onish davrining paydo bo'lishida asosiy manba qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar ham bo'lib, ular xox yunon, xox arab, xox Movarounnahr va Huroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniy yodgorliklari xam bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib hizmat qildi. Bular bilan birga, yana eng muhim tomoni ham borki, IX-XV asrlarda Yaqin va o'rta Sharqda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berdi va bu o'zgarishlar natijasida Uyg'onish davri kabi muhim bir jarayonni vujudga keltirdi.

Movarounnahr, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarkand va Buxoro to'kimachilik maxsulotlari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishiga yo'l ochildi.

Natijada Yaqin va o'rta Sharq davlatlari: Rossiya, Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari olib borildi.

X asrdan boshlab Movarounnaxr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlari — Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar davlatlarining paydo bo'lishi va xalifalik emirilishi xam madaniy xayotning orqaga ketishiga emas, balki yanada ravnak topishiga olib keldi. Bu davrda pul muomalasi rivojlanadi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy — iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi. Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy xujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi.

Bu davrda hind, eron, arab-yunon tillaridan tibbiyot, astronomiya, matematika, mantiq, psixologiya, falsafaga oid asarlar tarjima qilinishi shu sohaga oid bilimlarning rivojlanishiga ta'sir etdi. Eronlik Abdulla ibn al-Mukaffo (724-750) yozuvchi, pedagog, olim va tarjimon sifatida salmoqli ishlar qildi. U «Buyuk ishlar uchun nasihatlar» va «Kichik ishlar uchun nasihatlar» asarlarini yaratgan, paxlaviy tilidan hindlarning «Kalila va Dimna» didaktik asarini, «Shoxlar kitobi», «Mazdak», «Oynoma»ni arab tiliga tarjima qilgan. Aristotelning «Kategoriya», «Talqin haqida» va boshqa asarlarini ham arab tiliga tarjima qilgan. Ibn al-Mukaffo 750 yilda Moniy targ'iboti tarifdorlari sifatida qatl etiladi.

X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va xatto G'arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Hos Hojib, Maxmud Qoshg'ariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratdilar. XI asr boshida G'aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar. Xorazmshoxlar davlati ham tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoy fikrlar rivojlandi. Maxmud G'aznaviy o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayxon Beruniyning mashhur «Hindiston» asari shu yerda yaratilgan edi.

Saljuqiylar davrida Ali-Arslon Muxammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizom ul-Mulk o'z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo'lib, bu hokimiyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi. U G'aznaviylar ish uslubiga bir oz o'zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o'zining «Siyosatnoma» asarini yaratadi. (1091-92). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari bayon etiladi. Nizom ul-Mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qildi. 1067 yilda Bag'dodda o'zining shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti- «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, g'amxo'rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri taqvimni isloh qiladi. U 1074 yili o'rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim hozirgi eng takomillashgan kalendarlardan hisoblanadi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etdi. Xorazm shoxi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul xikmat»-Donishmandlar uyi tarixda «Ma'mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi

Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saql al-Masixiy, tabib Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijodlar bilan muqim rol o'ynadilar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqalib ketadi.

XIII asrga kelib, o'rta Sharq mamlakatlari, Movarounnaxr mo'g'ullar istibdodiga uchradi. Bu davrda ishlab chiqarish kuchlari, madaniy markazlari vayron etildi. Xalq qattiq zulm ostida ezila boshladi. Movarounnaxr va Xurosonda mo'g'ullar istibdodi davrida «Uyg'onish» davri tanazzulga yuz tutdi. Sharq uyg'onish davri madaniy rivojlanishida ilm-fan shartli ravishda uch yo'nalishda rivojlanganini ko'ramiz. Birinni yo'nalish - matematika, tibbiyot yo'nalishidagi fanlar bo'lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya, geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muxammad Muso al-Xorazmiy, Axmad Farg'oniylar matematikaga oid, Zakriyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayxon Beruniy, Ulug'bek Ali Qushchilar astronomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Birinchi yo'nalish - ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, texnika, mantiq, fikx ruxshunoslik, notiqlik va boshqa sohalar bo'lib, bu sohada Al-Farobiy, Al-Kindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zaxiriddin Bayxakiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish - ta'limiy-axloqiy yo'nalish bo'lib, bu soxada qomusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy - falsafiy asarlarida ifodalaydilar.

Xulosa qilib aytganda, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va qadimgi ma'naviy yodgorliklar Movarounnaxr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish, Sharq Renessansi - uyg'onish davrining boshlanishiga olib keldi. Butun Sharq bilan bir qatorda, Movarounnaxr ham ilm-fan va ma'rifat soxasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashxur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika soxasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Farg'oni, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar maydonga keldi. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga xam katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2.5. XIV-XV asrlarda Temur va temuriylar davrida ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim-tarbiya.

Tarixdan bizga ma'lumki, Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davomida Movarounnahr mo'g'ul istilochilari tomonidan vayron etildi. Fan- madaniyat, ma'rifatga juda katta putur etkazildi. Xonavayron bo'lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib Mo'g'ul istilochilari zulmidan qutila boshladi.

1370-1380 yillar mobaynida Amir Temur say'i harakatlari samarasi natijasida beklar va amirlar o'rtasida nizolarga barham berildi va Movarounnahrda tarqoq, amirliklar markazlashgan yagona feodal davlatning bayrog'i ostida birlashtirildi. Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barxam berildi, mamlakat mo'g'ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Soxibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnaxr tarixida alohida o'rin egalladi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movaraunnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi. Shuning uchun ham tarixda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr o'rta Osiyoda Sharq o'yg'onish davrining ikkinchi bosqichi deyilishi bejiz emas... chunki, bu davrga kelib, Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, san'atkorlar, muhandislar, olimu-fozillar olib kelindi va ularning tajribalaridan ilm-ma'rifat, madaniyat va qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Xirotda madrasalar, rasadxonalar, bog'u-ro'g'lar, madaniyat o'chog'lari barpo etildi. Shu davrga kelib tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa, xuquqiy, targ'ibot, tarbiyashunoslikka oid bir qator ajoyib va muxim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Imom Buxoriy, At-Termiziy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga harakat kuchaydi. Mamlakatda davlatni boshqarishni mukammallashtirish, qurilish, obodonchilik, sug'orish ishlariga, shaharlar o'rtasidagi savdo yo'llarini kengaytirishga katta e'tibor berildi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va shular bilan bir qatorda diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktab - madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo'lib keldi. Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar xaligacha yaqqol ko'zga tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir». Shu sababli ham, biz hech ikkilanmay XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarix saxifalaridan o'rin oldi deya olamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, bu davrda o'zbek adabiyotida ancha siljish ro'y berdi. Ulug'bek olimlarga xomiylik qilib, ularni rag'batlantirdi. Uning o'zi ayniqsa astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Ulug'bek tomonidan rasadxona barpo etildi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid ibn Ma'sudiy, Mansur Koshiy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, ulug' rassom Kamoliddin Bexzod, tarixshunos Xondamir, xattot Sulton Ali Mashxadiy va boshqalar ijod cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bek shogirdi Aloviddin Ali ibn Muxammad Qushchi Samarqandiy, ya'ni Ali Qushchi o'sha davrda Movarounnaxrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynadi, uning «Risolai dar falaqiyot» deb nomlangan astronomiyaga oid risolasi jahonga mashhur bo'ldi va uni o'z davrining Ptolomeyi deb atay boshladilar.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi, til, mantiq, falsafa, tarbiyashunoslikka doir o'nlab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Mir Sayd Sharif Jurjoni, Xofizi Abro' Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Davlatshoh Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Sharofiddin Ali Yazdiy va shu kabi o'nlab olimu-fuzalolarning yaratgan asarlari jahon fanida katta o'rin egalladi. Alisher Navoiy Xirotda fan, madaniyat, ilm va ma'rifatga homiylik qilishi natijasida bu erda shoirlar, musavvirlar, hattotlar, olimu-fozillar etishib chiqib, jahon ilmu fani olamida nom qozondilar. Bu

davrda bir qator ilm maskanlari barpo etildi, xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi. Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan so'ng Buxoro, Samarqand, Xuroson, G'ijduvon va boshqa shaharlardagi madrasalarga borib u erda ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar. Biz yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda haqiqatdan ham XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot darajasiga erishgan deb ayta olamiz.

Amir Temur nomi umumbashar tarixida Movarounnaxr va buyuk Turkiston o'lkalarida ilm-fan homiysi sifatida xam qolganini ta'kidlash lozimdir. Amir Temurning harbiy san'ati, uning taktika va strategiyasi ko'p mamlakatlarda, jumladan, Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarning harbiy akademiyalarida maxsus o'rganilgan va hozirgi kunga qadar o'rganib kelinmoqda deb, ta'kidlashi xam Sohibqiro Amir Temurning buyukligidan dalolat beradi.

1411 yilda 17 yoshli Ulug'bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug'bekning mavqei naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug'bek hokim bo'lgach, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o'rta asrlardagi boshka xokimlardan o'zgacha yo'l tutdi, ko'prok ilm-fanga moyil edi. Ulug'bek tashabbusi bilan o'lkada ilm-fan, adabiyot, san'at ahillari fanlarning yangi-yangi kirralarini ocha boshladilar. Ulug'bek 1424 yilda Samarkandda Obiraxmat suvi yonida G'iyosiddin Jamshid, Abduvali Birjoniy, Mansur Koshiy, Mirim Chalabiy va boshka olimlar bilan birgalikda kurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rganadi. Uning boshchiligida yuzdan ortiq olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib boradi, falakkiyot va matematika sohasida katta kashfiyotlar qilib jahonga mashhur bo'ldilar. Bu tadqiqotlar jahonga dong'i ketgan Samarqand rasadxonasida amalga oshiriladi. Natijada, Ulug'bek 1018 yuzduzning holati va harakatini aniqlaydi, falaqiyotga doir bir necha asarlar yozadi. Bu asarlarning asosiy mazmunini «Ziji Ko'ragoniy» deb atalmish falakkiyot jadvali tashkil etadi. Jadval jahon fani rivojiga muhim hissa bo'lib ko'shiladi.

Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan, temuriylar avlodining so'nggi vakillaridan biri Umar Shayx Mirzo o'g'li Zaxiriddin Muhammad Boburdir. Zahiriddin Muhammad Bobur ilm va fanning, san'atning, umuman hayotning hamma sohalarini bilan yaqindan kiziqqan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va iste'dod Boburni rivojlangan feodal davrning ulug' siymolaridan biriga aylantirdi. Uning ijodiga mansub bo'lgan «Hatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o'rgatish kitobi sifatida foydalaniladi. Boburning «Boburnoma» asari zoologiya, botanika, astronomiya, etnografiya, tarix, tilshunoslik sohasidagi qimmatli yodgorlikdir. Shu bilan birga "Boburnoma"da adabiyot, diplomatiya, harbiy san'at, moliya sohalaridan ham ma'lumotlar olish mumkin. Boburning «tabiat va viloyatlar shaydosi» bo'lishi uning avlodlariga xam o'z ta'sirini ko'rsatgani, uni o'g'illari Xumoyun va nabirasi Gulbadanbegim, xolavachchasi Haydar Mirzo hayotida ham ko'ramiz. Gulbadanbegim XVI asr o'rtalarida akasi Xumoyun safarini hikoya qiladigan «Xumoyunnoma» tarixiy-geografik asarini

yozgan tarixnavis o'zbek ayolidir. Bu asarni sharqshunos olimlar «Boburnoma»ning davomi deb juda o'rinli aytadilar.

Xulosa qilib shuni aytamizki, umuman XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishishdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Amir Temur barpo etgan mustaqil markazlashgan davlatda u qo'llagan siyosat o'lkada ilm-fan, san'at, adabiyot, hunarmandchilik va yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. XV asrdagi O'rta Osiyoning turkiy tillarda gaplashuvchi feodallari orasida Hirotda Navoiy, Samarqandda Ulug'bek, Farg'onada Bobur eng o'qimishli va bilimdon kishilardan edilar. Yuqoridagi fikrlarimizdan ko'rinib turibdiki, Sohibqiron Amir Temur va temuriy hukmdorlar hamda ularning avlodlari o'qimishli, fan va madaniyatni egallagan, zukko insonlar bo'lib, ularning bizga qoldirgan ilmiy merosi bugungi kunda ham hayotimizda o'lgan ahamiyat kasb etmoqda va Mustaqil O'zbekistonning obro'sini oshirish yo'lida katta xizmat qilmoqda.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Axloq va pedagogik qarashlar qachon vujudga kelgan va shakllana borgan?
2. Qog'oz ilk bor qayerda kashf etildi va ishlab chiqilgan?
3. Birinchi tarbiya maktablari qayerda ochilgan?
4. Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid qarashlarni ifodalab bering?
5. Sharq mutafakkir olimlarining pedagogik qarashlari, o'qituvchi mahorati haqida nimalarni bilasiz?
6. XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida maktab ta'limida qanday yangilikka asos solindi va uning asoschisi kim?
6. Zaratushtra dinini maqsadi nima?
8. Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyat ta'lim-tarbiya taraqqiyotini nimalarda ko'ramiz?
9. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy, aqliy, jismoniy, nafosat tarbiyasi haqidagi fikrlarini izohlang?
10. Ibn Sino ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini qanday izohlaysiz?
11. XIV- XV asrlarda Movarounnahrda fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti qay darajada edi?

3 - ma'ruza: Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati

Reja:

- 3.1. *Pedagogika fanining tarmoqlari, pedagogika fanlari tizimi.*
- 3.2. *Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va uning mazmuni*
- 3.3. *Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari*
- 3.4. *Ta'lim nazariyasi (Didaktika) va uning vazifalari*
- 3.5. *Ta'lim jarayoni mohiyati va uning ikki tomonlama xususiyati.*

Adabiyotlar: 1, 7, 10, 16, 19, 21.

Tayanch iboralar: kasbiy, umumiy, yoshlar, maxsus pedagogika, metod, tajriba o'tkazish, suhbat, kuzatish, eksperiment, anketa, test, maktab hujjatlari, didaktika, ta'lim jarayoni, bilish, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati va h.k.

3.1. **Pedagogika fanining tarmoqlari, pedagogika fanlari tizimi.**

Pedagogika yosh avlod tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Pedagogika fani ob'ekti yil sayin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari ham bir necha guruhlariga ajralmoqda.

Pedagogika fanini ulkan katta daraxtga qiyoslash mumkin. Hozirgi vaqtda pedagogika bir necha tarmoqlarga bo'lingan. Ular pedagogika fanlari tizimlari deb ataladi. Ular: Umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi), hunar-texnika ta'limi pedagogikasi, harbiy pedagogika kabi tizim tarmoqlari mavjud.

Umumiy pedagogika (insonga, shaxsga ta'lim tarbiya, ma'lumot berish shakli, mazmuni, usullari va ularni shakllantirishning, tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi va amaliyotda qo'llashga o'rgatadigan);

Yoshlar pedagogikasi (turli yoshdagi kishilarga ta'lim tarbiya berish, shaxsni shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi);

Maktab pedagogikasi (maktab yoshdagi o'quvchilar ta'lim tarbiya sohasining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi);

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish, tarbiyalashning o'ziga xos tomonlarini);

Pedagogika tarixi (turli tarixiy davrlarda maktablar ta'lim tarbiyasi, pedagogik g'oyalarning mazmuni, rivojlanish masalalarini);

Metodika (ta'limning umumiy qonuniyatlarini muayyan predmetlaridan (ya'ni ona tili, adabiyot, tarix, fizika, ximiya, matematika, jismoniy tarbiya) dars berishda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarni, usullarini tadqiq qiluvchi sohasi);

Oila pedagogikasi (oila muhiti, a'zolari, sharoiti, ta'lim tarbiyasining umumiy masalalarini);

Kasb pedagogikasi (ishlab chiqarish), (turli kasblarning o'rganishning umumiy masalalarini);

Qiyosiy pedagogika (G'oyalarni taqqoslab xulosa chiqarish masalalari);

Xalq pedagogikasi (mazkur xalqi ta'lim tarbiyasi, maktabi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, ahloq odobi singarilarni);

Ijtimoiy pedagogika (barcha yoshdagi fuqarolarni tarbiyalashning zamonaviy imkoniyatlari, vositalari va manbalarini); **Tibbiyot pedagogikasi; Harbiy pedagogika; Mehnat pedagogikasi** singari tarmoqlari mavjud.

Maxsus pedagogika (Defektologiya) Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolotda qusuri bor bolalar ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday tarmoqlarni maxsus pedagogika deb yuritiladi.

Maxsus pedagogika tizimiga oligofrenopedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish), lagapediya (tili yassi, tili chuchuk bolalarni o'qitib tarbiyalaydigan pedagogika), tiflo pedagogika (ko'r va yaxshi ko'rmaydigan bolalarni tarbiyalash), surdo pedagogika (kar va go'ng bolalarni o'qitish va tarbiyalash) kabi fanlar kiradi.

3.2. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va uning mazmuni

Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar singari ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Hozirgi kuniizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida ma'lumot beruvchi nazariyalar muayyan darajada pedagogika fani uchun manba bo'ladi. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi.

Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish mumkin emas..

Tarbiyaning mohiyatini ilmiy asosda tushunish uchun aniq tarixiy sharoitda uning taraqqiy etish qonuniyatlarini bilish zarur. Shuning uchun pedagogika ijtimoiy fanlardan biri sifatida ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanib boradi. Tarbiya maqsad va vazifalarini inson shaxsining har tomonlama rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqarish jarayonida tarix, falsafa, iqtisod, sosiologiya, etika, estetika, umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi, oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, odam psixologiyasi, harbiy psixologiya va fiziologiyasi bolalar gigienasi, pediatriya, medisina, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqa qiladi. Psixologiya fani bilan aloqasini tahlil qilamiz. Pedagog o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni sezgisi, idroki, tasavvur, diqqat, tafakkur va xotirasi kabi psixik jarayonlarni bilish darkor. Shuning uchun pedagogika fani psixologiya fani bilan alohida ish olib boradi. Har bir fan o'z rivojlanishida o'z nazariyalarini boyitishda o'zining ichki ilmiy yo'nalishlariga tayanib, takomillashib boradi. Hozirgi davrda umuminsoniyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida axborot, ma'lumot beruvchi turli fanlar muayyan darajada pedagogika fani uchun manba bo'ladi. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning umumiy kamolotiga xizmat qiladi.

O'qituvchi-tarbiyachi yoshlarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni, ko'rsatilayotgan ta'sirning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqqat va tafakkur- fikrlash jarayonining qanday

kechayotganini bilishga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasini belgilaydi. Demak, pedagogika fani psixologiya va sotsiologiya kabi fanlar bilan uzviy bog'langandir.

Falsafa fani esa pedagogika fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, hozirgi ta'lim-tarbiya nazariyasi yutuqlari falsafiy fikrlar kurashi va taraqqiyotining mahsulidir. Falsafa pedagogikani ilmiy usullar bilan qurollantiradi, ta'lim va tarbiyaning ob'ektiv qonun-qoidalarini ishlab chiqishga manba bo'ladi. Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda sosiologiya, etika, estetika kabi fanlar katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning ahloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni xal etishda pedagogika ahloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go'zallikni xis qila olish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llari belgilab beradi.

Jamiatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning **iqtisodiyot** fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika **psixologiya va fiziologiya** bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, kon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

Umuman, pedagogika fani o'z oldidagi maqsad va vazifalarni hal etishda boshqa fanlar yutuqlaridan foydalanmasdan ish olib borish mumkin emas degan xulosaga kelish mumkin.

3.3. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari

Har bir predmet uning metodlari bilan chambarchas bog'langan.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz. Boshqa fanlar qatorida pedagogika fani ham o'z tadqiqot ob'ektiga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega.

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Shu sababli pedagogik ilmiy-tadqiqot usullariga dogmatik

yondashish mumkin emas. Ikkinchi tomondan, ilmiy tadqiqot usullari tizimi hali hozircha fanda to'la yaratilgan, hal etilgan emas.

Ilmiy tadqiqot pedagogika fanini ham takomillashtirib borishga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Hozirgacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritish mumkin:

- 1) Kuzatish usuli; 2) suhbat usuli;
- 3) Adabiyotlar bilan ishlash usuli; 4) Test, so'rovnomalar usuli;
- 5) Maktab hujjatlarini o'rganish; 6) Eksperiment, sinov usuli;
- 7) Matematik metod; 8) Tadqiqot natijalari va ularni amalga tadbqiq etish usullari;

Kuzatish - o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish ob'ektiga oid bo'lgan aniq faktik material tayyorlanadi. Kuzatish aniq belgilangan reja asosida olib boriladi. Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatlarini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlari shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi hamda ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar ta'siri natijasida pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida **suhbat** usulidan foydalaniladi. Odatda, suhbat usuli maktab o'qituvchilari va o'quvchilari jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka hamda guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suhbat usulini tadbqiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qullaniladi.

Suhbat olib borishda tadqiqotchi quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Suhbat uchun oldindan savol tuzish.

Vaqt va o'tkazish joyini belgilash.

Suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish.

Suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish va maktab hayotiga tadbqiq qilish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

Maktab hujjatlarini o'rganish - o'quvchilarning shaxsiy delolari, metodistlarining xabarlari, sinf jurnallari, kundaliklari, yig'ilishi va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ahvoli, darajasi haqida ob'ektiv axborot manbai hisoblanadi. Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi.

Eksperiment – so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Eksperimental – tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqiy jarayonlarini tekshirish aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Eksperiment usuli sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

- 1) Tabiiy eksperiment. 2) Laboratoriya eksperimenti.

3) Amaliy tajriba.

Matematik metod – ommaviy materiallarni tahlil qilishda (masalan, anketalashtirish yo'li bilan to'plangan materiallarni yoki ma'lumotlarni umumlashtirish uchun) qullaniladi. Bu metod eksperiment natijalarini aniq baholashini, xulosalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari va ularni amalga tadbiiq etish. Pedagogikada bu jarayon turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, tadqiqotchilarning seminarlarda, ilmiy konferentsiyalarda tadqiqot natijalari bo'yicha ma'ruzalar bilan chiqish ilmiy maqolalar, kitoblar nashr etish, o'qituvchilarga mo'ljallangan metodik tavsiyalari bo'lishi mumkin. Pedagogikada hali hal etilmagan muammolar juda ko'p. Bular ilmiy – tadqiqot olib borish yo'li bilan hal etiladi.

Anketa metodi. Anketa fransuzcha so'z bo'lib, tekshirish degan ma'noni anglatadi. Anketa metodi o'quvchilardan so'rash metodi bo'lib, u o'quvchilar tarkibining sifati to'g'risida kerakli ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek kasbga yo'llashni belgilash uchun ma'lum bir shaklda o'tkaziladi. Bu metodni qo'llashda quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Anketalar o'quvchilarning pedagogik va ruhiy tavsifini tuzishning manbai va universal vositasiga aylantirmasligi kerak.
2. Anketalar juda katta va noaniq bo'lmasligi kerak.
3. Anketani o'tkazishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va vaqt normada berilishi kerak va hokazo.

Kibernetika metodi. Kibernetika grekcha so'z bo'lib, rolni boshqaraman, idora etaman, boshqarish san'ati degan ma'noni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy prinsip va vositalarini ishlab chiqadi. Kibernetika mazmunini informasiya, dasturlashtirish, boshqaruvchi tizimlar, model yasash singari asosiy nazariyalar tashkil etadi.

Pedagogika kibernetika o'quv jarayonini, o'qitish va bilim berish jarayonlarini boshqarishning alohida shakli sifatida o'ziga xos xususiyatga ega, chunki pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida juda katta farq bor.

Sosilogik metod. Yuqoridagi sanab ko'rsatilgan metodlar qo'llashda tadqiq qilinayotgan o'quvchilar soni chegaralangan ularning kamchiligi ham shunda ekanligini bilishimiz darkor. Bunday paytda o'quvchilarning ko'pchiligi bilan ommaviy ravishda pedagogika fanining u yoki bu muammosini hal etishda sosiologik metodini qo'llash talab qilinadi. Misol uchun maktab o'quvchilari o'zlarining bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishini aniqlash uchun tezlikda anketa savollari asosida so'rash ko'plab o'quvchilardan o'tkaziladi va aniq bir xulosaga kelinadi.

Modellashtirish - bu real mavjud pedagogika tizimiga aynan o'xshash maxsus andoza (model) ni yaratib, unda bu tizimni tashkil qilish va faoliyat ko'rsatish prinsiplarini takrorlagan holda uning moddiy yoki hayoliy tarazda ishlab ko'rish demakdir. Modellashtirish yordamida tizimning ushbu aniq holatda muhim bo'lmagan xususiyatlaridan chetga chiqish mumkin. Tadqiqotchi pedagog bu metoddan foydalanarkan, ayrim xususiyatlar, shakllari va jarayonlarni analitik tarzda

o'rganish o'rniga nazort qiladigan sharoitlardagi yaxlit tizimlarni sintetik tarzda bilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Turli fanlardan dars beradigan o'qituvchilar o'quvchilar bilan ishlashda o'z maqsadlariga erishishda o'ziga xos ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanishdi.

3.4. Ta'lim nazariyasi (Didaktika) va uning vazifalari

Didaktika pedagogikaning bir qismi bo'lib, unda ta'lim nazariyasi bayon etiladi. Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir.

Didaktika grekcha so'z bo'lib, «Didayko» - o'qitish, «Didaskol» - o'rgatuvchi degan ma'noni anglatadi. Uning so'zma-so'z tarjimasini Ta'lim nazariyasini bildiradi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni, uning mohiyatini, ta'lim qoidalari, usullari hamda tashkiliy formalarini o'z ichiga oladi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchi-talabalarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini quyadi.

Didaktikaning predmeti ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida o'qituvchining rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida didaktikaga doir o'lmas asarlar yozib qoldirgan bir qancha buyuk mutafakkirlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Vatandoshlarimizdan Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, M. Ulug'bek, A. Navoiy kabi allomalarimiz tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, matematika kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g'oyasini olg'a surdilar. Kaykovusning «Qobusnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Yusuf Xos-Hojibning «Qutadg'u-bilig», A. Navoiyning «Maxbubul-qulub» (Ko'ngillar sevgisi) asarlarida ilg'or pedagogik qarashlar ham ifodalangan. Ular dunyoviy ta'limni keng rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar.

Sharqu g'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi. Didaktikaning asoschisi XVII asrning buyuk chex pedagog-olimi Yan Amos Komenskiydir. Yan Amos Komenskiy (1594-1670) butun dunyoda pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotiga juda o'lgan xissa qo'shgan yetuk olimdir. Uning 1632 yilda yozgan (ayrim manbalarda 1657 y) «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlantirishga g'oyat sezilarli ta'sirini ko'rsatdi, shuning uchun ham bu asar jahon pedagogikasi oltin xazinasining noyob gavhari hisoblanadi.

Yan Amos Komenskiyning insoniyat oldidagi buyuk xizmatlaridan biri ta'limning sinf-dars sistemasini ishlab chiqishdan, dars maktabda o'qitishning asosiy shakli ekanligini asoslab berishdan iboratdir. Yevropada didaktikaning rivojlanishida Yan Amos Komenskiydan keyin rus pedagogi K.D. Ushinskiyning ham xizmatlari katta.

O'zbekistonda (keyingi yillarda) didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojlanishi A. Avloniy, X.H. Niyoziy, Muhammadrasul Rasuliy, Qori Niyoziy, M. Behbudiy, O. Sharafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog'liq. Mustaqil Respublikamizda **1997 yil 29 avgustda** Oliy Majlisning 9-sessiyasida qabul

qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishi ta'lim-tarbiya sohasida muhim o'zgarishlar va tub islohatlarning o'tkazilishiga asosiy omil bo'ldi. Shu boisdan bugungi kunda ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini yaxshilash, shakllantirish, o'qitish tizimini yaxshi yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga erishilmoqda.

XX asrdan boshlab didaktika zamonaviy soha sifatida shakllana boshladi. Jumladan, pedagogika-psixologiya sohasida yangi yo'nalishlar, o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya asosidagi o'qitish usullari kulami rivojlandi. Yangi pedagogik texnologiya asosida o'qituvchilar faoliyati shakllanmoqda, shuningdek masofaviy ta'lim, axborot texnologiyasi yordamida dars berish hozirgi zamonaviy o'qituvchining faoliyatida ko'rinmoqda.


3.5. Ta'lim jarayoni mohiyati va uning ikki tomonlama xususiyati.

Jarayon – bu lotinchadan olingan bo'lib, oldinga harakat qilish tushuniladi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoni - o'quvchi (talaba)ning bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha tuliq bo'lmagan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. O'qituvchi bilim egallash yo'llarini o'quvchi-talabalarga ko'rsatadi, ya'ni kishilik jamiyati tomonidan bor, hamda bunday bilimlarga ega bo'lmagan bola ongida vositachilik qiladi. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta uylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi.

Ta'lim jarayoni ikki faoliyat - o'qituvchi va o'quvchi (talaba) larning birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Demak, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega, chunki unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi qatnashadi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etish uchun o'quv materialini tanlaydi va ta'limni tashkil etish yo'llarini belgilaydi. U ta'lim jarayonida o'quvchi (talaba) faoliyatini boshqaradi va rahbarlik qiladi. O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik printsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. O'quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, ya'ni u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, tushunib oladi. O'qitish bilishdan farqli o'laroq o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'limning asosiy maqsad, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ta'lim jarayoni (o'quv jarayoni) quyidagi tuzilishga ega:



3.1-rasm

Ta'lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari asosi o'rganiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga yetaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda ishlab chiqarishda qullay bilishga o'rgatadi. O'qituvchi o'z fanini qanchalik sodda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo'lishi lozim. O'qituvchi bilimlarni o'rgatar ekan, o'sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o'rganadi, qiyinchiliklarini ko'radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi.

O'quvchi (talaba) lar o'qituvchi sabog'ini o'zlashtirish jarayonida bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo'llash bosqichlaridan iborat bo'ladi. Ta'lim jarayonida ana shu ikkala tomon yaxshi qatnashmasa ta'lim jarayoni yaxshi natijaga erishmaydi. Chunki o'qituvchi ham, o'quvchi ham ta'lim jarayonining asosiy tarkibi hisoblanadi. Shu boisdan ta'lim jarayonida bu ikki tomondan bittasi, ya'ni o'qituvchi yoki o'quvchi qatnashmasa ham ta'lim jarayoni amalga oshmaydi.

O'qituvchi hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy-ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim. O'quvchilarda bilimga qiziqish va ishtiyoqni tarbiyalash, ularni hozirgi zamon dunyo taraqqiyoti darajasida bilimlar bilan qurollantirish kerak. Shu bilan birga o'qituvchi yosh avlodni hayotga, ongli mehnat va kasb tanlashga tayyorlashi, ularning axloqiy, huquqiy, etik va estetik bilim va mahoratlarining rivojlanishiga e'tibor qaratishi lozim.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma xil faoliyatiga bog'liq: yoshlarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni tashkil eta bilish xamda o'tkazish va hakoza. O'qitish jarayoni ikki faoliyatni ya'ni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchi faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqishni tarkib topdirishdan, ularning mustaqil ishlariga, ko'nikmalarni hosil qildirish, ularni tekshirish, o'qishga xohishini uyg'otish, rag'batlantirish kabi butun faoliyatini xolis baholashdan iboratdir.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. Demak, ta'lim jarayonida o'quvchilarning

bilimlarini tarkib toptirib, ko'nikmalarni shakllantirib, umumiy rivojlanishi ta'minlanadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Pedagogika fani nima uchun ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanadi va u qanday muammolarni hal etadi? Uning qanday metodologik asosi mavjud?
2. Fanning qanday ilmiy tadqiqot metodlari mavjud va ularni pedagogik asoslab tahlil qiling?
3. Har bir ilmiy tadqiqot metodi qanday maqsadni nazarda tutadi va uning boshqa metodlardan farqi nimada?
4. Pedagogika fanlar tizimiga, pedagogikaning tarmoqlariga qaysi fanlar kiradi?
5. Maxsus pedagogika deganda nimani tushunasiz?
6. Didaktika nimani o'rganadi va uning lug'aviy ma'nosi nima?
7. Didaktikaning predmeti nima?
8. Markaziy Osiyoda didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojiga kimlar hissa qo'shganlar?
9. Ta'lim jarayonining ikki yoqlama xususiyati (xarakteri) deganda nimani tushunasiz?
10. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?

4 - Ma'ruza: Pedagogik texnologiyalar. Pedagogik muloqot.

Reja:

- 4.1. Pedagogik texnologiyaning mohiyati va uning tavsifi. Ta'lim usullari va vositalari.***
- 4.2 Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar.***
- 4.3 Muammoli o'qitish texnologiyasining maqsad va vazifalari. Modulli ta'lim texnologiyasi.***
- 4.4. Muloqot – pedagogik hamkorlik vositasi sifatida.***
- 4.5. Pedagogik o'zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot uslublarining tasnifi va xususiyatlari.***

Adabiyotlar: 3, 8, 10, 16, 18, 20

Tayanch iboralar: pedagogika, texnologiya, fan, texnika, metod, muammoli va modulli o'qitish, ta'lim vositasi, o'quv jarayoni, loyihalashtirish, o'yinli texnologiyalar, kafolatli natija, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati va h.k.

4.1. Pedagogik texnologiyaning mohiyati va uning tavsifi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'ldi va 1940-1950 yillarda “ta'lim texnologiyasi” tarzida qo'llanilib, mazmunan o'quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQSh, Angliyada qo'llana boshladi. O'tgan asrning 80-yillarida

pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Dastlab «Texnologiya» tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi va grekcha ikki so'zdan - «texnos» -hunar va «logos»-fan, so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Qator yillardan beri, pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirishning zarurligini ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bepalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir».

M.V. Klarin fikricha, “Pedagogik texnologiya-o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan maqsad kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir”. O'zbekistonlik pedagog-olimlardan N. Sayidahmedov va M. Ochilovlarning fikricha, “Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi(tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir”. Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'tgan yillarda Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini berilgan dastlabki ta'lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalashdir, deya ifodalandi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didaktik olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofiq'i YUNYESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **maqsadi** – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning **bosh vazifasi** – ommaviy ta'lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning etarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning **predmeti** – o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning **ob'ekti** – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida **pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi** o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba yoki o'quvchidan kuproq mustaqillikni,

ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim usullari va vositalari.

Ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. Pedagogika tarixidan, pedagogika amaliyotida ham o'qitish usullarining juda katta boyligi to'plangan.

Ta'lim usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Ta'lim usullari, o'qituvchining o'qitish faoliyati to'g'risida o'tmishda ham, jumladan Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida alohida asoslab berilgan. Abu Nasr Forobiyning «Fan va san'atning afzalligi» risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar mukammal ifodalangan. Hozirda yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida kengroq joriy etilishi zahirida o'quvchi-talabaga berilishi lozim bo'lgan ilmiy bilimlar ko'lami o'qitish usullari va shakllarining doirasini kengashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Ta'lim jarayonining qiziqarli va samarali bo'lishida, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni mukammal egallashlari uchun o'qituvchining asosiy vazifasi darsda samarali usul-metodlardan foydalanib, o'quvchi-talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlash, shuningdek ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishdan iboratdir. Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganamiz.

1. Ta'limning og'zaki usullari.
2. Ta'limning ko'rgazmali usullari.
3. Ta'limning amaliy usullari.
4. Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.
5. Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.
6. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.
7. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.
8. Kitob bilan ishlash usuli.

Ta'limning og'zaki usullari. O'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llanib kelinmoqda. Didaktikada o'qitishning og'zaki usullari uch turga: o'qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma'ruzasiga ajratiladi. Og'zaki bayon qilish usulida ikki faoliyatning, ya'ni bir tomondan o'qituvchining o'quv materiallarini mohirlik bilan og'zaki bayon qilib berishi va ikkinchi tomondan, bayon qilinayotgan materiallarni o'quvchilar diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qilinadi.

Ta'limning ko'rgazmali usullari. O'qitish jarayonida ko'rgazmalilik usulidan foydalanishning muhimligi o'qituvchining o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgata bilishi bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustrasiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'limning amaliy usullari. O'qitishning amaliy usullariga yozma mashqlar (masalalar echish, chizmalar tayyorlash), tajriba – laboratoriya tipidagi mashqlar (frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyot, o'qitishning texnik vositalari va boshqalar); mehnat topshiriqlarini bajarish usullari kiradi. Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qullaniladi.

Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Ta'lim vositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt. **Ta'lim vositalari** – o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi va xar qanday axborot tashuvchi vositalardir.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bogliq.

Ta'lim vositalari foydalanishi jixatidan quyidagi 3 qismga ajratiladi:

Ta'lim beruvchi uchun;

Ta'lim oluvchi uchun;

Dars o'tkazish uchun.

Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida nimani o'qitish» savoliga javob beradi.

O'quv jarayonida o'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta'limning texnik vositalari – bu o'zida o'quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga:

1. O'quv kinofilmlari.
2. Diafilmlar.
3. Kompyuterlar.
4. Magnitofon tasmlari.
5. Radioeshittirish.
6. Teleko'rsatuvlar kiradi.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- axborot;
- aralash(kombinasion);
- trenajyor;
- bilimlarni nazorat qilish vositalari;
- audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalaridan foydalanish quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;

- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emosional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

4.2. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar va ularning tavsifi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim

Ushbu ta'lim pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, talabani qadriyat sifatida e'tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Odatda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Modulli ta'lim texnologiyalari.
2. Muammoli ta'lim texnologiyalari.
3. Interfaol ta'lim texnologiyalari.
4. Individual ta'lim texnologiyalari.
5. Masofaviy ta'lim texnologiyalari.
6. Kompyuter ta'lim texnologiyalari.
7. Hamkorlik ta'lim texnologiyalari.
8. Loyiha ta'lim texnologiyalari.
9. Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari.
10. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari.
11. O'yin texnologiyalari va h.k.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati. Zamonaviy sharoitda hamkorlik ta'limi, uni tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Hamkorlik ta'limi – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish sanaladi

Hamkorlikda ta'lim texnologiyalarining g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqa novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan. Ushbu texnologiya talabalarda

intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi. Hamkorlikda ta'lim texnologiyalari "Cooperative learning"dan farq qilib, u juftlik va kichik guruhda ishlash orqali talabalarning jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Hamkorlikda ta'lim texnologiyalarining **tarkibiy elementlari**:

1. Tayanch konspekt (fizik, matematik va kimyoviy formulalar, tezislar, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilar, sxemalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar)dan foydalanish.

2. Bilimlarni test asosida sinovdan o'tkazish.

3. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash.

Hamkorlikda ta'lim texnologiyalarining belgilari:

- talaba shaxsi, individualligiga e'tibor qaratish;
- tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni inkor qilish;
- talabalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlash;
- talabalarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.

Hamkorlikda ta'lim texnologiyalarini qo'llashda talabalar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar:

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda

Shunday qilib yuqorida keltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va o'quv maqsadlariga erishish kafolatlanadi.

4.3. Muammoli ta'lim texnologiyasining maqsad va vazifasi.

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi (pedagog) tomonidan o'quvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi (pedagog) tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchi-talabalarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- o'quvchi-talabaga notanish bo'lgan faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talabalar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operasialari-tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi. O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi (pedagog) quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo'ladi:

- o'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
- mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilishi;
- o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy ta'lim texnologiyasi – bu muammoli o'qitish, tadqiq etib, muammoni hal etishdir. Muammoli o'qitishning maqsadi o'quvchi-talabalar bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchi-talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar ularda qiziqish uyg'ota olishidan iborat.

Muammoli ta'limni tashkil etish va olib borishda o'qituvchi (pedagog) o'zining ta'lim-tarbiya berishdagi faoliyatini aniq tushunib, etishi ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talabalarga tayyor fikr bermay, balki ularning izlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi lozim. O'quvchi-talabalar mashg'ulotlarda va kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim o'quvchi-talabalarning izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.

O'qituvchi (pedagog) muammoli ta'lim tizimida o'quvchi- talabalar o'quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilishga, echimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan bo'lishi lozim. Demak, buning natijasida o'quvchi- talabalarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan-yangi maqsadlarni qo'yish, yangicha fikrlash yo'llariga o'rganish hamda tafakkurni rivojlantirish qobiliyatining shakllanishiga imkon beradi. O'quvchi-talabalar muammoli ta'lim jarayonida o'quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o'rganishlari, tegishli ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o'quv masalalarini farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo'llari bilan echishlari, ta'lim jarayonini o'zlashtirishga aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchi-talabalar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchi-talabalar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Modulli ta'lim texnologiyasining maqsad va vazifasi.

Pedagogik texnologiyalarning elementar birliklari tizimi modullardan tashkil topadi.

Modul – pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi, uning tarkibiy bo'laklarini ifodalovchi tushunchadir. Bunday bo'laklar kichik modul, birlamchi modul, modullar to'plami, modullar darajasi va modullarning majmuaviy tuzilmasi kabi turlardan iborat bo'ladi.

Modullar o'z ko'lamiga ko'ra mayda, o'rtacha va yirik bo'lishi mumkin. Ularning bir-biriga nisbatan proporsionalligi qat'iy bo'lmasligi, ularning o'zaro ta'siri umumiy jarayonda turlicha bo'lishi mumkin.

Modulli o'qitish – pedagogik jarayonni ilmiy va metodik jihatdan tartibli va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo'laklari o'zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari algoritm deyiladi.

Eng kichik bo'lak pedagogik texnologiyaning o'ziga xos qismi bo'lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to'plami o'qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Modulli o'qitish – tartibli o'qitish demakdir. Bunda o'quv materiali bitta o'quv mashg'uloti hajmida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismi o'lchamida, ya'ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o'qitilishi mumkin.

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir necha turdosh o'quv fanlarining tarkibiy bo'laklarini hamda ayrim fanlarni o'qitish texnologiyasini tashkil qiluvchi modullar (bloklar) tarzida o'qitish keng qo'llanilmoqda. Davlat ta'lim standartlarining tarkibiy bo'laklariga mos keladigan bloklardan ham foydalanilmoqda. O'quv reja va dasturlarning tarkibiy bo'laklarini hamda ularning bajarilishini ta'minlaydigan texnologiyaga xizmat qiluvchi modullar ham mavjud. Modullar,

birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Bilim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatlari hamda ularning o'zlashtirishini nazorat qilishda ham modullardan foydalaniladi.

Modullashtirish va o'quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Lekin bu borada o'quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga etkazilgan emas.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar tinglovchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

-fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;

-har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;

-fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

-tinglovchilar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;

-tinglovchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim tinglovchilarga fanni individuallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

-axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish. Buning natijasida tinglovchi etarli bilimlarga ko'nikmaga ega bo'ladi. Demak, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning xususiyati ham shuki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

4.4. Muloqot – pedagogik hamkorlik vositasi sifatida. Muloqot - odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi.

Muloqot - yunoncha so'z bo'lib, so'zlashuv, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv, og'zaki nutq shakli, ikki yoki undan ortiq shaxslarning so'zlashuvidir.

Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, muomala va madaniyatlari bilan uzviy bog'liq.

Pedagogik muloqot deganda, odatda, o'qituvchining o'quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo'ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar uchun yo'naltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi.

O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Bu esa o'qituvchining so'zlashish madaniyatiga bog'liq. So'zlashishni, muloqot olib borishni doimo o'rganib borish lozim. O'qituvchi darsni samarali olib borishi uchun so'zlashishni bilishi, suhbat, ma'ruza, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'ya olishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot bo'lishi uchun o'qituvchi etarli darajada qobiliyatga ega bo'lishi kerak, hamda o'z-o'ziga doimo quyidagi savollarni berishi va unga javob berishga harakat qilishi kerak:

Nimaga o'rgatish? Kimni o'rgatish? Qanday o'rgatish?

Nimaga o'rgatish: a) ilm-fandagi yangiliklarni anglash, yangi fan terminlarini tushunish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish; b) malaka, ko'nikma va qobiliyatni shakllantirish; v) o'quv predmetlari o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirish; g) o'quv mazmunini tushunarli tizim asosida ko'rish.

Kimni o'rgatish: a) o'quvchilarning ba'zi psixik xususiyatlarini (eslab qolish, nutq, fikrlash) hamda ularni qay darajada o'qimishli, tarbiyali ekanliklarini aniqlash; b) o'quvchilarning bir darajadan ikkinchisiga o'tishidagi qiyinchiliklarni oldindan aniqlash; v) o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolalariig g'oyalari, fikrlarini hisobga olish; g) o'quvchilardagi turli psixik o'zgarishlar va rivojlanishni hisobga olib o'z pedagogik mehnatini tashkil etish; d) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, yakka holdagi ishni tashkil etish.

Qanday o'rgatish: a) ish jarayonida ishlatiladigan kuch va ketadigan vaqtni hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyalashning turli usullari majmuini ishlatish.

Pedagog o'quvchilar bilan muomala qilar ekan, juda mayda qismlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi. Bular sirtidan qaraganda unchalik ahamiyatli bo'lmasada, shaxsda sodir bo'layotgan, uni tushunish uchun juda muhim bo'lgan zarur ichki jarayonlar ko'rinishlarining alomatlari bo'lishi ham mumkin, bunda pedagog shaxsi katta rol o'ynaydi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o'rnini to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi.

Muomala – muloqot va boshqarish vositasi.

Muomala - insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositalaridir. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala o'quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi nihoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatidan keyin boradi. Muomala - axloq ko'rki sanaladi. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi uning muomalasidan ma'lum bo'ladi.

Muomala o'z mohiyati va tuzilishiga ko'ra murakkab axloqiy hodisadir. Shuningdek, muomala ijtimoiy jarayon bo'lib, u jamiyatda yosh avlodning

shakllanishi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha sohalarga kirib boradi. Bu fikr o'quvchilar muomalasiga nisbatan ham to'g'ridir, chunki uyushgan jamoalarga yoki stixiyali guruxlarga dastavval ular doirasida u yoki bu amaliy faoliyatni (hordiq chiqarish va ma'naviy faoliyatni ham kiritganda) yo'lga qo'yish maqsadi bilangina birlashib, ular bu guruhlarda muomalaga kirishadilar, uning pirovard maqsadi ular uchun sirtidan qaraganda muomalaning o'zi maydonga chiqadi, aslida esa o'z hayotiy yo'lining aniq bir bo'lagida hayot ma'nosini topishdir.

Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til - aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. So'zga chechanlik, o'z fikrini to'g'ri bayon etish har bir insonning ziynatidir. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, so'zga hurmat bilan yondashishlarini o'qtirib o'tganlar. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy muomala madaniyati, xushmuomalalik, tilning ahamiyati to'g'risida, shirinso'zlik haqida hikmatomuz fikrlarini bayon qilganki, bugungi kunimiz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. «Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi esa - foydali. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir», - deydi Alisher Navoiy.

Pedagog bolalarga bilim berish uchun bir qatorda ular nutqining rivojlanishiga ham alohida ahamiyat beradi va bunda u turli pedagogik usullardan foydalanadi.

Bolalar nutqini o'stirishda pedagog so'zi muhim ahamiyatga ega: bir tomondan, uning nutqi bolani o'qitish va tafakkurini rivojlashirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki pedagogning nutqi obrazli, chiroyli, jarangdor, namunali bo'lmog'i, bola diqqatini o'ziga tortmog'i lozim. Zotan nutq pedagogning o'z mutaxassisligiga qay darajada loyiq ekanligini ifodalaydigan o'lchov, ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun nutq ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir pedagogning eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya ichida nutqning ta'sir kuchi nihoyatda kattadir. O'qituvchining nutqi o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ham ta'sir etuvchi kuchli vositadir. O'qituvchining nutqida uning hissi, intilishlari, iroda va etiqodi aks etadi. U nutq yordami bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hislarini tug'diradi. Xalq bilan birga turish, birga yashash muosharat deb ataladi.

Odamlarning bir-birlari bilan bo'lgan munosabatlarining go'zalligi, muloyimligiga «Muosharat odobi» deyiladi. Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun iisonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabati ko'pchilikning didiga to'g'ri kelmaydigan, qo'pol va dilozor odamni ko'pchilik yoqtirmaydi. Insonlar xushfe'l, shirinsuxan, mard, muomalasi shirin kishilarni dildan yoqtirishadi va hurmat-e'tibor qilishadi.

Inson o'z so'ziga, tiliga nihoyatda ehtiyotkor bo'lmog'i lozim. Ayrim yoshlarimizda so'zga, tilga e'tibor ancha sust. Eng avvalo, yoshlarga muomala madaniyatini, kattalar oldida mahmadonalik qilmaslikni, kattalar gapini bo'lmaslikni, yoshi ulug'larga gap qaytarmaslikni o'rgatishimiz zarur. Muomala madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda... shuning uchun ham biz kim bilan qanday

muomala qilishni bilishimiz kerak. Insonning qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi muomala orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini birlariga so'z yordamida etkazadi, amalga oshiradi. Shu tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. So'zlashuv ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atni mukammal o'rganish har bir insonga zarur. Shirinsuhanlik va go'zal nutq hech qachon, hech qaerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa tinimsiz shirin so'zlashishni mashq qilmoqlikdir. Buni esa asosan ko'p kitob o'qish yo'li bilan amalga oshiriladi. Muomala insonning kimligini ko'rsatuvchi yuzidir.

4.5. Pedagogik o'zaro munosabatlar. Pedagogik muloqot uslublarining tasnifi va xususiyatlari.

Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala – munosabatlar katta o'rin egallaydi. O'qituvchi barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar -o'quvchi (talabalar) lar bilan muloqatda bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilar oldida aktyor singari o'z rolini ijro eta olishi kerak, ya'ni turli xil vaziyatlardan chiqqa olishi kerak. Darsdan tashqari vaqtda esa - erkin, dilkash, samimiy bo'lishi kerak. Sevimli o'qituvchi o'quvchi uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi ham mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro muomalasida ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyatni saqlay bilishi pedagogik axloqning muhim talablaridan biridir. Muallim bilan o'quvchi-talaba o'rtasidagi muomalani tartibga soluvchi talablardan biri bolaning hulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona to'g'ri baholashdir.

O'qituvchi faoliyat jarayonida o'quvchilar bilan birga ota-onalar bilan aloqada bo'lib, muomala munosabatlariga kirishadi. O'qituvchi bolada qanday axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog'i kerak. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi darkor.

Tarbiyaning samaradorligi ko'pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab quya bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o'qituvchi bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, muomalasiga katta e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. O'qituvchining muomala ko'lamidan yana biri uning ta'lim muassasi jamoasi bilan muomala munosabatlarida o'z aksini topadi. Maktabda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida, oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarlarining o'qituvchi va o'quvchi-talabalar bilan muomala odobiga, rahbarlik qilish uslubiga bog'liq.

Boshqaruv uslublari bo'yicha birinchi eksperimental psixologik izlanishlar 1938 yilda nemis psixologi Kurt Levin tomonidan AQShda emigrasiyalangan nasistlarning Germaniya hududiga qaytishi davomida o'tkazilgan. Bu izlanishda boshqaruv uslublarining kengaytirilgan klassifikatsiyasi sifatida avtoritar, demokratik va e'tiborsizlik yoki layoqatsizlik (liberal) uslublari kiritilgan edi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, K. Levin keltirilayotgan boshqaruv uslublari bo'yicha o'zining buyuk tadqiqotini muallimlarning maktab o'quvchilari ustidan olib boradigan boshchiligini o'rgangan holda o'tkazgan edi. Demak, mutaxassislarining fikricha,

o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatlarida uch xil boqarish uslubi ko'zga tashlanadi.

1. Avtoritar uslub. O'qituvchi barcha o'quv-tarbiyaviy ishlarini yakka hokimlik asosida tashkil etadi va amalga oshiradi. Harakatning asosiy shakllari - buyruq, ta'kidlash, tavsiyalar, hayfsan berishdan iborat. Avtoritar uslubning xarakterli tomoni sifatida undagi qattiqqo'l boshqaruv va umumiy nazorat ko'proq muallimning boshqalarga nisbatan buyruq ovozida munosabatlarga kirishishiga va tez ogohlantirishlar berishiga olib kelishida ko'rish mumkin. Shuning bilan ba'zi ishtirokchilarga nisbatan sababsiz ogohlantirishlar va boshqalariga esa asossiz maqtovlar yog'dirilishi kuzatiladi. Aytaylik, kimdir ishni boshqacharoq tashkil etishni taklif qilsa, demakki u bu narsani oldindan ko'rib chiqmaganligiga sha'ma qilayotgandek tuyular ekan.

2. Demokratik uslub. Bu rahbarning jamoa fikriga tayanishi asosida quriladi. U o'z faoliyati maqsadini har bir o'quvchi ongiga etkazishga, hammani birdek maqsadni amalga oshirishga yo'naltiradi. Shu asosda munosabatlarda o'zaro ishonch, hamkorlik tug'iladi, o'quvchilarda rag'bat, o'z kuchiga ishonch, o'z-o'zini boshqarish shakllanadi. Bunday o'qituvchilar vazifalarni teng taqsimlaydi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga oladi. Faollikni rag'batlantirib, tashabbusni rivojlantiradi. Munosabatlarning asosiy usullari - iltimos, maslahat, o'zaro axborot almashishdan iborat bo'ladi.

Demokratik o'qitish uslubining asosiy xususiyati sifatida guruhning o'rtacha tashlangan masala muhokamasida va uning tashkil etilishida faol ishtirok etilishi qaraladi. Natijada ishtirokchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi va o'z-o'zini boshqarish hissi rag'batlantiriladi. Bu uslubda guruhdagi o'zaro munosabatlar yaxshi kelisha olish tarzida davom etadi va bir-biriga bo'lgan ishonch kuchayadi.

3. Liberal uslub. Anarxiya va o'zibo'larchilikka asoslangan munosabatdir. Bunday rahbar jamoa hayotiga aralashmaslikka, betaraflikka asoslanadi, turli masalalarni yuzaki hal etadi, boshqalarning ta'siriga tez beriladi. Javobgarlikni his qilmaslikka harakat qiladi Bunday o'qituvchilar hech qanday obro'ga ega bo'lmaydi. O'qitishda boshqaruvning layoqatsizlik uslubining asosiy xususiyati sifatida rahbarning bo'lib o'tadigan voqea-hodisaga nisbatan javobgarlik hissidan o'zini olib qochishini ko'rsatish mumkin.

Natijalarning ko'rsatishicha, eng yomon uslub layoqatsizlik uslubi bo'lib chiqdi. Bu uslubda vazifalar oz bajarilib, ularning sifati ham yomon edi. Avtoritar uslubda o'qituvchi bilan kelishishda ko'pgina janjallar paydo bo'lishi kuzatildi. Eng samarali uslub sifatida demokratik uslub tan olindi. Bunda guruh qobiliyati, erishilgan umumiy muvaffakiyatlar ustidan g'urur tuyg'usi, o'zaro ko'maklashuv va do'stona munosabatlar kuchaydi. Bu natijalar keyinchalik amalga oshirilgan izlanishlar asosida ko'p marta tasdiqlandi. Shunday qilib, ta'lim maskanlari hayotida va bilim olishda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Pedagog munosabati – pedagogning o'quvchi-talabalar bilan tarbiya maqsadida aloqa o'rnatishidir. Uni ma'lum pedagog vazifalariga ega va o'quv-tarbiya faoliyatining optimallashtirishga yo'naltirilgan pedagogning o'quvchiga kasbiy ta'siri deb ta'riflash bo'ladi. Pedagogik munosabat – uchun gapirish madaniyatiga (jonli nutq,

talaffuz tarzi, nutq ohangi, orfoepiya) to'g'ri nafas olishga, ovozni qo'ya bilishga o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Pedagog o'z ovozini, yuzini boshqarishga, pauza tutishga, gavdani, mimikani, ishorani tutishga o'rganishi kerak.

Pedagogik munosabat muammolariga amerikalik pedagoglar katta e'tibor beradi. Yaqinda chiqqan Dj. Brofi va T. Guddning «O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari» nomli kitoblarida o'qituvchining o'quvchilarni ajratib munosabat qilishga asoslangan «sub'ektiv» munosabatlar xususiyatlari tahlil qilinadi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, pedagoglar ko'proq yoqimtoy o'quvchilarga munosabat qilar ekan. Ular uchun beparvo o'quvchilar e'tibordan chetda qolar ekanlar. O'qituvchilar aqilli, zakovatli, intizomli va bilimli o'quvchilarga yaxshiroq munosabat qilar ekanlar. Sust – erksiz, lapashang o'quvchilar ikkinchi o'rinda turar ekan.

Pedagogik munosabat usullariga o'qituvchilarning uch xil turini ajratsa bo'lar ekan: «proaktiv» -faol, «reaktiv» -tezlik, «sierxaaktiv» -o'ta faol. Birinchi tur munosabatni qurishda –tashabbuskor, o'quvchilar bilan aloqalarni individual tarzda o'rnatadi, qo'yadigan vazifalari tajribaga munosib o'zgarib boradi. U nima kerakligini biladi va uning muomalasi maqsadga erishishga o'rdam berishini tushunadi. Ikkinchi turi ham – vazifalar qo'yishda egiluvchan, ammo dildan bo'shroqdir. U o'zi emas, ammo o'quvchilarning sinf bilan bo'ladigan munosabat tusiga amrini o'tkazadilar. Buning maqsadlari aniq emas va fe'l atvori yaqqol munofiqlona.

Uchinchi turdagi o'qituvchi o'z o'quvchilariga haddan ortiq baholar qo'yadi va xayoliy munosabat modellarini quradi. Agar o'quvchi boshqalardan ko'ra faolroq bo'lsa – u isyonchi va bezori, agar u – sustkash bo'lsa, u dangasa va tentak. Bu kabi o'ylab chiqarilgan baholar bunday o'qituvchilarni munosib tarzda harakat qilishini majbur qiladi va u doim haddan oshib ketadi va o'qituvchilarni o'zining qoliplariga kiritadi.

Pedagogning asosiy qudrati – so'zdan tashqari uning qurolxonasida – munosabat uchun nutqsiz vositalarning bir qatori mavjud. His-xayajonni ifodalaydigan harakatlar – ko'zga ko'rinadigan o'qituvchining harakatlari. Bu erda axborot yetkazuvchi bo'lib gavdani tutish, mimka, ishora, nigoh katta rol o'ynaydilar. Masalan, kuzatuv tadqiqotlariga ko'ra o'qituvchining yuzi qimirlamasa, yoki ko'zga ko'rinmasa 10-15% axborot yetkazib berilmaydi. O'quvchilar o'qituvchi nigohiga juda ta'sirchan bo'ladilar.

O'qituvchining g'azablangan, noxush kayfiyati uning ko'z qorachig'ini toraytiradi. Uning yuzi iltifotsiz bo'lib qoladi va o'quvchilar shinamsizlik xis qiladilar va ishini samaradorligi pasayadi. Pedagogik faoliyatda ayrim o'qituvchilarning xirildoq ovozlari o'quvchilarga yoqmaydi, g'azablantirishi ham mumkin, hamda fanga nisbatan qiziqishni ham yo'qotadi va darsni zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bu esa ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishni ruyobga chiqarmaydi. Shu boisdan avvalo pedagog bolalar bilan muloqat qilish san'atiga ega bo'lishi lozim, kerakli muomala ohangi va munosabat usulini tanlashni bilishi kerak, boshqa so'z bilan aytganda, o'quvchilarga individual yondoshishni bilishi zarur.

Pedagog doimo bolalarning katta guruhi va ular bajarayotgan ko'p jarayonlar bilan ish olib boradi va ularning barchasi o'qituvchi nazaridan chiqib ketmasligi kerak. Shuningdek pedagog uchun yana bir muhim narsa shuki, bu o'quvchining

tashqi ko'rinishidan uning ruhiy holatini aniqlash. Buni pedagogik usullarni tanlash chog'ida hisobga olmasa bo'lmaydi.

Pedagogik faoliyatda zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishni, yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda.

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagogik faoliyat, u bilan kimlar shug'ullanishlari xususida O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonunining 5-moddasida quyidagicha izoh berilgan:

«Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadir. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi».

O'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va eng murakkab vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ishlash uchun tayyorlanayotgan o'qituvchilar: pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, shuningdek, umuminsoniy qadriyat sifatida ilohiy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ravnaq topishiga ishonadigan vatanparvarlik, fuqarolik burchini anglagan, ixtisosga doir bilimlar, ko'nikmalarni, ijtimoiy-gumanitar bilimlarni, psixologo-pedagogik, metodik bilim va ko'nikmalarni mukammal egallagan, o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, insonparvar, talabchan, adolatli, ishchan, erkin va ijodiy fikrlay oladigan, har bir shogirdi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs bo'lib etishishlariga ko'maklashadigan kishi bo'lmog'i kerak.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi o'qituvchi shaxsiga ham katta talablar qo'yilmoqda:

1. O'qituvchi hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy-ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim.
2. Vatan tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur biladigan, ma'naviy komil inson bo'lishi;
3. O'z fani doirasida chuqur bilimga ega bo'lgan, fanlararo aloqalarni yaxshi bilish va uni o'quvchilarga o'rgatish;
4. Pedagogik texnologiyani yaxshi biladigan, uning yangi-yangi yo'llarini yarata oladigan, izlanuvchan, ijodiy ishlaydigan pedagogik mahorat egasi bo'lish;
5. Pedagogik muomala madaniyatini yaxshi egallagan, o'z hissiyotini idora qiladigan, sabotli bo'lishi, pedagogik etika qoidalariga amal qiladigan bo'lishi;
6. Dunyo taraqqiyoti darajasidagi bilimlardan xabardor, ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson bo'lishi;
7. Bolalarni sevishi va ularning kelajagi uchun qayg'uradigan, istiqbolini o'ylab ish ko'ra biladigan mohir inson bo'lmog'i lozim;

8. Nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchining yuksak axloqiy fazilatlarini, uning teran bilim doirasi, pedagogik mahoratga egaligi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi yoshlarni (talabalarni) o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchilar unga ishonadi va ergashadi.

Xullas, har bir o'qituvchi o'z ustida tinmay ishlashi kerak hamda barcha sohada chuqur bilimli bo'lishi talab etiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi qanday ma'noni anglatadi? Texnologiya tushunchasi fanga qachon kirib kelgan?
2. Pedagogik texnologiya tushunchasiga «YUNYESKO» tashkilotining ta'rifini ayting? Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarga nimalar kiradi?
4. Muammoli o'qitish texnologiyalarining mazmun va mohiyatini izohlab bering?
5. Muammoli vaziyat qanday yaratiladi? Modul nima?
6. Pedagogik muomala deganda nimani tushunasiz? Pedagogik muomalaning asosiy vazifalari qaysilar?
7. O'qituvchi muomala uslublarini sanab bering.

5 - Ma'ruza. O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari

Reja:

- 5.1. *Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Davlat ta'lim standartlari.*
- 5.2. *O'quv rejalari va dasturlari. Darslik. O'quv tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish prinsipi.*
- 5.3. *O'qitish jarayonini loyihalash va loyihalash bosqichlari. Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli.*
- 5.4. *Oila tarbiyasi va uning tarbiya tizimida tutgan o'rni. Ota ona va farzandlar burchlari.*
- 5.5. *Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari.*

Adabiyotlar. 7, 10, 16, 19, 21, 22.

Tayanch iboralar: ta'lim mazmuni, o'quv rejasi, dastur, darslik, o'quv jarayoni, loyiha, loyihalashtirish prinsipi, dars loyihasi, model, texnologik xarita, darsga qo'yilgan talablar;

5.1. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Davlat ta'lim standartlari

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning bilish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda

tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

a) ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari;

b) davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari;

v) o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktablarda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy va sinfiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, hajmi o'sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan.

Ta'lim tizimi sifatida – davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa ta'lim doimo bir yula tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, pedagogika tarixida «maktabda beriladigan ma'lumotning mazmunini bola xohishiga bo'ysundirish» ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko'zga ko'ringan vakili Amerikalik faylasuf –pedagog Jon Dyudir. Uning qarashicha maktab azaldan mavjud bo'lgan tabiiy layoqatlarni, qiziqish va odatlarni rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozim. Shunday ekan, maktablarda hamma o'quvchilar uchun umumiy bo'lgan o'quv rejasi va dasturlarning bo'lishi ham shart emas, balki alohida-alohida shaxslar layoqatiga moslangan ma'lumotlar berilishi lozim.

1917 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida VII-VIII asrlardan beri davom etib kelgan eski – «usuli qadmiya», XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan «usuli savtiya» maktablari, xat –savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan.

1905 yildan so'ng, o'lkaning ba'zi shaharlarida «jadid» maktablari paydo bo'la boshladi. Shunday qilib, maktablarning hammasi o'sha ijtimoiy tuzum-muhit talablaridan kelib chiqdi va shu davr iqtisodiy, ma'naviy maqsadlari uchun xizmat qildi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli, bilimli yoshlarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

Davlat ta'lim standartlari - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

5.2. O'quv rejalari va dasturlari. Darslik

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi – davlat hujjatidir. O'quv rejalari xalq ta'lim vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. Maktabning o'quv rejasi maktabda o'rgatish uchun tanlangan o'quv

predmetlarini, ularning ta'lim olish yo'llari bo'yicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlarning haftalarga bo'linishini belgilaydi.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. O'quv rejalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Shuningdek, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asosan tuziladi.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining maqomi tenglashtirilgan. Ularning o'quvchilari va bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo'nalish bo'yicha faoliyat ko'rsatishda konstitutsiyaviy haq-huquqlarini amalga oshirishda teng huquqlidirlar.

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. O'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi.

Dasturning asosiy vazifasi - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linish, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

Darslik o'quv jarayonining zarur qismidir. Darslik - o'quvchilarning ikkinchi «muallimi», chunki u, avvalo o'quvchi uchun zarur qo'llanma va uning eng muhim qurolidir. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qullanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va hokazolar shular jumlasidandir.

O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan darsda, ham uy sharoitlarida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Darslikdagi bilimlar tizimi o'zaro ichki, mantiqiy bog'lanishlarga ega bo'lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan.

Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim. Shu holdagina o'quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu soda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lmog'i zarur.

5. Mavzulardan fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O'quv tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirish prinsipi.

Ma'lumki, o'qitish jarayoni boshqariladigan jarayondir. O'qituvchi pedagogik texnologiya qonuniyatlariga ko'ra maqsad, faoliyat, natija yo'nalishida amalga oshirib, ya'ni ta'lim natijasini oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'qish-o'qitish masalalarini va ularni hal etish texnologiyasini loyihalash qonuniyatlari bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. Loyihalangan texnologiya dars mavzuiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilib, tanlangan qo'shimcha ma'lumotlar o'quvchilar kuchiga, bilim darajasiga, yosh va individual xususiyatlarga mos kelishi kerak. Shuningdek, o'qish-o'qitish jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va qo'llash malakasini o'qituvchi o'zida shakllantirgan bo'lishi lozim. Bu albatta, o'qituvchidan ijorkorlikni, yangilikni anglay olish va undan aniq foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi ko'z o'ngida doimo nimani o'qitish? Kimni o'qitish? va qanday o'qitish? muammosi turishi kerak bo'ladi.

Ilmiylik, zamonaviylik va yakuniy natijani kafolatlanganlik prinsipi tajribada sinalgan, yaxshi natija berishga mos bo'lgan ta'lim-tarbiyaning shakl, metod, vositalari faol metodlarini doimiy ravishda ilmiylikka yo'llashni talab etadi. O'qituvchi-tadqiqotchi uzluksiz izlanishi didaktik ma'lumotlarni oqilona qo'llash malakasiga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xarakterda bo'lish prinsipi mavjud. Bu prinsip pedagogik texnologiyalar tizimida ta'lim-tarbiyada o'quvchi manfaatining ustivorligini ta'minlash prinsipini joriy etishni taqozo qiladi. Shunga asosan o'quv tarbiya jarayonida ko'proq o'quvchining mustaqil o'qishi, mutoala qilishi, tahlili qilishiga e'tibor qaratilmog'i talab etiladi. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini egallashlarida ularni ng qiziquvchanligini, tashabbuskorligini uyushtirish pedagogik texnologiyasin ing yo'nalishlaridandir. O'qituvchi – o'quvchi faoliyatini tashkil qilish, mustaqil o'qish, fikrlash, tahlil qilish, qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalashi lozim.

Yangi pedagogik texnologiya zamonaviy talab, ehtiyojlardan kelib chiqib, texnologik jarayon xususiyatlariga asoslanadi. Ma'lumki davr, taraqqiyot ishlab chiqarish o'zgarib, rivojlanib borish xususiyatiga ega. Mavjud texnologiyalar maxsulot turiga qarab ishlab chiqarish qurollarini, ishchi o'rinlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi va u zudlik bilan o'zgartiriladi. Texnologiyaning bu sifat ko'rsatgichi egiluvchanlik deb ataladi. Ta'lim tarbiyada ham davrning o'zgarishi, taraqqiyotning yangi bosqichga o'tishi munosabati bilan ta'lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalarining o'zgarishiga olib keladi. Bu o'zgarish o'z navbatida ta'limning mazmunini, shaklini, metodlarini, vositalarini o'zgarishiga olib chiqdi. Bu yangi pedagogik texnologiyaning egiluvchanlik prinsipining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib yuqorida izohlangan pedagogik texnologiya prinsiplari ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya jarayonini ilmiy asosda qurishga, o'quvchilarning ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirish, tahlil qilish, shaxsiy mulkiga aylantirishga va shu asosda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi. Demak ta'lim-tarbiya jarayonining

tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, shakl, metod vorsitalari) ga yaxlit holda yondashilsa pedagogik texnologiyalar o'z muddaosiga erishadi.

5.3. O'qitish jarayonini loyihalash va loyihalash bosqichlari

O'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonini tahlil qilishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o'qish bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o'rgatishi, o'zlashtirilgan bilimlarni ko'nikmalarga aylantirish uchun o'quv mavzulari bo'yicha metodik tizimni yaratadi, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va ma'lumotlar mazmuni yordamida o'quvchi tasavvur qilishi lozimlilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o'quv mashg'ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg'ulot)ni maqsadga mos tanlaydi va uni echishga yo'llaydi.

O'qitish yoxud o'rgatuvchi faoliyati, bilim oluvchilar faoliyatlarini boshqarish, ya'ni o'quvchilarning o'quv ishlarini uyushtirish, ularning bilish jarayonlariga rahbarlik qilish, nazorat uyushtirish, ma'naviy axloqiy sifatlarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

O'qitish jarayonining bu ikki elementi bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalanib, o'quv tarbiya ishlarini takomillashtirish, ijtimoiy buyurtmani hal etishga qaratilgan. Shunga ko'ra bu jarayonda shaxsning qobiliyatlari, fazilatlar, ma'naviy axloqiy sifatlar, bilish qobiliyatlari rivojlanadi, bo'lajak kasb egalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik rivojlanadi va o'quv mehnati madaniyati tarbiyalanadi.

Mazkur jarayonning samarali bo'lishi, ijtimoiy buyurtmaning aniq hal bo'lishi va ko'zlangan maqsadga erishish uchun, o'qitish jarayonini loyihalash, ya'ni ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish talab qilinadi. Zero, "Pedagogik texnologiya metodining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda ta'limning rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv bilish jarayoni loyihalashtiriladi.

Xo'sh loyiha nima? O'quv loyihasi, o'qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi ?

Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

O'quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir. O'qitishni loyihalash esa ta'limning umumiy maqsadi, mazmuni o'quv maqsadlari o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiy maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalashtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o'quv mazmuni asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo'lsak, unda o'quv jarayoni ma'lum modullar, birliklardan

iborat bo'ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo'shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Ma'lumki, o'quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog'liq o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar. (M)
2. O'quvchining o'qish faoliyati. (O'F)
3. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati. (B)

Shunday qilib, o'quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin:

$$O'J=M+O'F+B$$

Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo'lga qo'yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o'quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalga qo'llanilganda ta'limning tabiatga uyg'unlik qoidasiga asoslansa, ya'ni o'qituvchining tabiiy xususiyatlari-qiziqishi, istak, xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

Pedagog olim Malla Ochilovning ta'kidlashicha pedagogik texnologiya metodining muvaffaqiyati, ta'limni rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirishdir. Muallifning fikricha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda o'qituvchi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, dastur, darslik, ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar mazmunini o'qituvchi-o'quvchining oldingi ish faoliyati mazmuni, kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyati inobatga olinadi. O'quv jarayonini loyihalashda o'quvchilarning belgilangan maqsad sari harakatlanishi uzluksiz nazorat qilishni e'tibordan chiqarmaslik kerak.

Shunday qilib, ta'lim jarayonining qurilmasi, uni loyihalashning:

- a) ta'lim maqsadlari va natijalarni belgilashni;
- b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (dars konspekti) ni ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli.

Hozirga kadar ko'pgina maktab va kollejlarda dars loyihasini tuzish, ta'lim maqsadini belgilash yoki ta'limni tashkil etish yo'llari kabi elementlar vaqt sinovidan o'tdi.

Dars loyihasining har bir elementida ma'lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo'lib, ularni bir qancha ta'lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi.

Dars loyihasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Mo'ljalni belgilash - Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo'yiladigan savollar, qo'yiladigan muammolar va hokazo.

2. Maqsad - talabalar bugun nimani o'rganadi va natijada qanday ishni bajara oladi (malaka). Ular o'qituvchiga bugungi o'rganganlari asosida ma'lum bir faoliyat turini bajarib ko'rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni O'qituvchi belgilaydi.

3. Kirish - o'qituvchi talabalar o'rganishi lozim bo'lgan materialni belgilaydi, konsepsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo'llarini ko'rsatadi.

4. Modellashtirish (namoyish qilish)-O'qituvchi o'rganilayotganlarni va natijada o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmani grafik shaklda ko'rsatadi yoki namoyish qiladi.

5. Amaliy boshqaruv - o'qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma - qadam rahbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko'rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

6. Tushunchalarni tekshirish - o'qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olga borish mumkinmi yoki yukligini aniqlaydi. Agar olga borish mumkin bo'lmasa orqaga kaytib bajariladigan ishlarni belgilaydi.

7. Mustaqil amaliyot - o'qituvchi talabalarni o'zlarini tekshirib ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o'zlari o'rganganlarini tekshirib ko'radilar.

8. Darsni tugallash - Darsni xulosalash oldida talabalar o'z ishlarini, o'rganganlarini o'qituvchiga so'zlab berish, namoyish qilish orqali ko'rsatadilar.

Darsda belgilangan vazifalar tahlili:

O'qituvchi darsni taxminan rejalashtirar ekan rejadagi sifatlarni bolalarga o'rgatish va ularda shu ko'nikma va malakalarni qanday shakllantirish yo'llarini izlashi lozim. Buning uchun o'qituvchi o'zini o'quvchi urnida tasavvur etib, bu ko'nikma va malakalarni bir necha qismlarga bo'ladi. Shundan keyingina o'qituvchi har bir qismni ko'rgazmali tashkil etadi va belgilangan ko'nikmani o'quvchi egallashini ta'minlaydi. Ba'zi o'qituvchilar belgilangan ko'nikmani talabaga o'rgatish uchun boshidan oxirigacha ko'rsatib, gapirib beradi. Bunda "tugal material" (ya'ni izohlangan ko'nikma) odatdagi kabi dars jihozi hisoblanadi.

O'qituvchi modelni tushuntirgach talaba mustaqil ish paytida unutib qo'yishi o'qituvchidan unutgan qismini qayta so'rashi mumkin. Masalan, men 4 - qismni unutdim, mumkin bo'lsa menga yana bir ko'rsating. Shundan keyin o'qituvchi talabaga eslatish uchun individual yordam beradi. Yoki talaba ko'rsatilgan ko'nikmani bajarayotganda o'qituvchi yo'l ko'rsatib turadi. Siz 3 - qismni to'g'ri bajardingiz. Siz 4 - qismdasiz orqaga qaytib, ishni boshidan boshlab bajaring. Tekshirib ko'ring, to'g'ri bajardingizmi? kabi. Talaba bajarishi kerak bo'lgan ishni ko'radi va nusxa ko'chirgan kabi bajarib, unutanini eslaydi.

O'qituvchi ishni yaxshi bajargan o'quvchilarni rag'batlantiradi.

Darsni optimal tashkil etishning birdan bir yo'li talabalarning o'z faoliyatini tanqidiy nazorat qilishi va xatolarini bartaraf eta bilishidir. Faqat shundagina talabalar yanada ko'prok ko'nikmalarni egallaydilar. Ular ongli fikrlash va yanada yaxshirok tushunishga erishadilar.

5.4. Oila tarbiyasi va uning tarbiya tizimida tutgan o'rni. Ma'lumki, oila jamiyatning birinchi va birlamchi zarrasidir. Jamiyat ana shu zarralardan tashkil topadi. Lekin u shunchaki zarra emas, tirik vujudlar ittifoqidir. Er va xotin – ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan 3 chi bir olam bu oiladir.

Oila faqat er-xotinning o'zidan iborat emas. Oila er-xotin ularning bola chaqalari eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi–xonadonidir. Oila,

odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligidir.

Ota-onalarning o'z hayotlari turmush tarzlari, bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ma'naviy ahloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga—oilaviy tarbiya deyiladi.

Oilaning maqsadi—ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzandni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligi ta'minlash.

Oila vazifasi—er-xotinning birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash, hamda jamiyatga sog'lom, aqlli, har tomonlama barkamol farzandni tarbiyalash.

Oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. Oila tarbiyasidagi yutuqlar ota onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashishi ota onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir.

Oilaning jamiyat oldidagi 2 ta vazifasi bor:

1. Tabiiy biologik vazifasi
2. Ijtimoiy vazifasi.

Barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lgani kabi insonni ham farzandni dunyoga keltirishi uning tabiiy biologik vazifasidir. Faqat insongagina xos bo'lgan ikkinchi asosiy vazifa shu dunyoga kelgan farzandlarni jamiyat el yurt uchun xizmat qiladigan inson qilib tarbiyalash uning ijtimoiy vazifasidir. Ko'rinib turibdiki, oila tarbiyasi ota onaning shaxsiy ishi emas balki, davlat jamiyat oldidagi burchi hamdir, chunki bola qobil bo'lib o'ssa undan nafaqat ota-ona, balki butun el yurt, mahalla kuy davlat ham manfaatdor bo'ladi.

Agar bola noqobil bo'lib o'ssa, undan faqat ota-ona oilagina emas, balki el, yurt, jamiyat, davlat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, tarbiya tizimida asosiy markaziy o'rinni egallaydi, chunki xohlagan tarbiya turini olsak—axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya hammasi avvalo, oilada shakllanadi. Demak oila tarbiyaning dastlabki debochasidir. Shuning uchun ham yurtboshimiz oilaviy tarbiyaga alohida e'tiborni qaratib, oilani ijtimoiy muhofaza qilish, oilada yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, oilani huquqiy tamoyillarini kengaytirish kabi masalalar bo'yicha qator huqumatimiz tadbirlarini ishlab chiqdilar, buni biz 1998 yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e'lon qilinishi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek: “Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan, oila ahl va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi—milliy farovonlik asoslaridir.

Shuni unutmaslik lozimki, farzandlarimizni har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoit yaratishsagina oila tarbiyasi muvafaqqiyatli bo'lishi mumkin.

Oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Yosh avlod hayotining ko'p qismi oilada o'tadi, shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada urf odatlar, rasm rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit, qizlar asta sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi.

Kelajagimiz qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalaydigan yoshlarga bog'liq. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog'liq. Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'ladigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishga olib keladi.

Oilaviy muhit va oilaviy munosabatlar. Ota ona va farzandlar burchlari.

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi. Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim.

Farzandlarning har tomonlama etuk bo'lib voyaga etishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondoshuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Oilaviy tarbiya muvaffaqiyatli chiqishi uchun har bir ota-ona o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim.

I. Ota onaning farzandi oldidagi burchlari:

1. Farzandiga chiroyli ism qo'yish savodini chiqarish, bilim berish o'qitish va kasb hunar o'rgatish.
2. Uylantirish yoki turmushga chiqarish
3. Uyli joyli qilish.
4. Farzandlar orasidagi meros taqsimoti adolatli bo'lish.

II. Farzandning ota-ona oldidagi burchlari.

1. Ota-onaning pand nasihatlariga quloq solish. Ularga har doim yordam berish, mehribon e'tiborli bo'lish oila ishlariga ham ma'naviy ham iqtisodiy yordam berish.
2. Har bir farzand o'z singil va ukalariga mehribon, yo'lboshchi va yo'ldosh, odobda, ahloqda, ishda, ilm hunar o'rganishda o'rnak bo'lish.
3. Ota onaga ham ma'naviy ham amaliy mehribonlik ko'rsatish.
4. Berayotgan ma'naviy iqtisodiy yordamni minnat qilmaslik, tavallud, xayit kunlarida yo'qlash.
5. Ota onaga shirin muomalada bo'lish.
6. Vaqti etib bandalikni bajo etsalar, hurmatini joyiga qo'yib marakalarini o'tkazish.

Oila va jamiyatda er va xotin teng huquqlarga ega. Bu erda qonunda belgilangan huquqlar haqida gap ketmoqda. Bunday tenglik saylash, saylanish, kasb tanlash, ishlash, bilim olish juft tanlash huquqlarida o'z ifodasini topadi. Lekin 2 jinsning biologik ruhiy tuzilishi nuqtai nazaridan shunday tenglik yo'q.

Ularning faqat o'zlariga xos huquq va burchlari mavjud.

Erkakning vazifasi. Oilani ma'naviy iqtisodiy qo'llab quvvatlash. Ayol va farzandlarning tashvishiga sherik bo'lish, ularga qalqon bo'lish, g'amxo'r bo'lish.

Ayolning vazifasi. Oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish, mehr ko'rsatish. Erkakning topib kelganini pishirib, mehmon kutish, erini, bolalarini ishga maktabga kuzatish, kutib olish.

tarbiyaning asosi oilada shakllanadi.

Otasini og'ritgan el ichida xor bo'lar,

Onasini og'ritgan parcha nonga zor bo'lar.

5.6. Hozirgi zamon o'zbek oilalaridagi tarbiyaning xususiyatlari.

Ma'naviy merosimizdagi tarbiyaviy g'oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo'lsak, qanchalik ma'naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Ular tubsiz ummon, bitmas-tuganmas boylikdir. Har bir inson bu ummonga shung'iganda o'zining fel-atvori, dunyoqarashi, bilim saviyasi va boshqa xususiyatlariga qarab ulush olib chiqishi muqarrardir.

Tabarruk manbalarimiz bo'lmish “Quron”, “hadislar”, ajdodlarimiz ma'naviy merosi hisoblangan Qobusnoma, “Shohnoma”, “Temurnoma”, “Boburnoma”, “Guliston”, “Bo'ston”, “Temur tuzuklari”, “Qutadg'u bilig”, «Maqbul ul qulub kabi durdona asarlarni mutolaa qilgan har bir inson tarbiyaning inson shakllanishidagi muhim omil ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Tarbiyaniig murakkabligi hakida Amir Temur “Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqurroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim”- desa, Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyaning ahamiyatiga:

“Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”,- deb katta baho beradi. Tarbiyani oiladan shakllantirib borish kerakligi, buning uchun ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerakligi hakida uqtiradi.

Bolalarga biror narsani va'da qilgan bo'lsangiz va'daning ustidan chiqish kerak. Bola oldida obro'yingizni to'kmang. Chunki bolalar juda ishonuvchan va beg'ubor bo'ladilar. Sizning bergan va'dangizni sabrsizlik bilan kutadi. Vaqtni, daqiqalarni sanab o'tkazadi. Intizorlik bilan kutgan vaqt kelganda: «Dada, bugun bizni parkka olib borasizmi», desa-yu, sizniig bergan va'dangiz esingizdan chiqib ketgan bo'lsa, mulzam bo'lib qolasiz. Shunday holatlar 4-5 qaytarilsa, bolangizning sizga bo'lgan ishonchi yo'qoladi. Gaplaringizga ishonmay qo'yadi. Obro'yingiz ketadi. Shuning uchun o'zingizga ishonmasangiz va'da bermang. Uddasidan chiqa oladigap ishga va'da bering. Bo'lmasa yaxshisi bolani aldamaganingiz ma'qul.. Aks holda bola ham katta bo'lganida odamlarga va'da berib, uni bajarmasa ham bo'lar ekan, degan xulosaga kelib olishlari mumkin.

Farzanlaringizniig tug'ilgan kunlarini bir xil mehr bilan teng ko'rgan holda o'tkazishga harakat qiling. Birini ikkinchisidan kam ko'rmasligingiz lozim. Bolalaringizning tug'ilgan kunlarini oilaviy qilib, sodda o'tkazishga o'rgating.

Farzandlaringizning tug'ilgan kunida oila a'zolaringizni ishdan yoki o'qishdan vaqtlitiroq kelishlariga odatlantiring. Oldindan kelishib, farzandingizni tug'ilgan kuni bilan tabriklash uchun unga yoqadigan eng kerakli biron-bir sovg'a xarid qiling. Yoki o'zi anchadan beri olib bering deb yurgan narsasini olib bering. Yaxshi ko'radigan taomi, shirinliklari va mevalarini tayyorlang. Shu kuni tug'ilgan kuni nishonlanayotgan bolangizni kundalik ishlardan ozod qiling. Qolgan farzandlaringiz barcha yumushlarda sizga yordam bersin.

Oila a'zolarining hammasini tug'ilgan kunlarini shunday o'tkazishga ko'nikma hosil qilgan farzandlaringiz keyinchalik tug'ilgan kunlarni o'zlari mustaqil ravishda o'tkazadigan bo'ladilar. Bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli bo'ladilar. Bola-chaqali bo'lganlarida bir-birlarini yo'qlaydigan, bir-birlariga yordam beradigan bo'ladilar.

Bolani yoshligidan mehnatga o'rgatib boring. Inson birdaniga mehnatkash bo'lib qolmaydi. Siz buyurib ketgan ishlaringizni bolalaringiz baholi-qudrat bajarib qo'yishibdimi, chala yoki kamchiligi bo'lsa ham eng avvalo o'z xursandchiligingizni bildiring, ma'qul usullar bilan rag'batlantiring. Ishimni qo'limdan oladigan bo'lib qolibsizlar, deb maqtang. Dadasi yoki oyisi, xudoga shukur o'g'il-qizlarimiz katta bo'lib qolishibdi, endi bemalol ularga ishonib ishlarimizni topshiraversak bo'lar ekan,

deb bolalarning o'zlarini oldilarida ularning nafsoniyatlariga tegmasdan, bafurja tushuntiring.

Farzandlaringizni iloji boricha mustaqil ishlashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgating. Masalan, biror fandan sizdan yordam so'rasa, uni farzandingiz uchun ishlab bermang, faqat tushuntiring. Masalani mustaqi hal qilib bo'lgandan keyin: «Mana o'zing bemalol echsang bo'lar ekanku,-deb ko'nglini ko'tarib qo'ying. Ana shunda farzandingizda o'ziga ishonch hosil bo'la boradi. Farzandlaringizni uy ishlariga o'rgatib boring. Yoshiga qarab qo'lidan keladigan ishlarni buyurib turing.

O'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya mazmunining o'ziga xos tomonlari borki, uni hisobga olmasdan ilojimiz yo'q. Respublikamiz o'zining demokratik, etnik milliy shart-sharoitlari jihatidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan: aholining zichligi tez ko'payishi, ko'p farzandlilik, kattalarga hurmat, otaning mavqei, mehmondo'stlik, ayolarni ayash, o'g'il va qiz bolalar tarbiyasining o'ziga xosligi, mehnatga o'rgatish, oilaviy hayotga tayyorlash.

Ota-ona farzandlari nigohida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun ular farzandlari oldida eng yaxshi sifatleri bilangina obro' qozonishlari mumkin. Insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan ota-ona o'z farzandlari tomonidan bir umr e'zozlanadi.

Bolalarni barkamol inson qilib etishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun maktab ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirishi lozim. Ota-onalarni o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvida aytgan fikrlari ayniqsa, ota-onalar uchun qimmatlidir, chunki ular o'z farzanlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shunday ekan, bola tarbiyasining tub mohiyatini unutgan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladilar.

Ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan tarbiya sohasida hamkorlik qilishlari juda muhimdir. Bu ishlar oila tarbiyasiga salmoqli hissa qo'shadi. Komil farzand tarbiyalash uchun oila, maktab va jamoatchilik, (mahalla)ning hamkorligi talab qilinadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e'tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni loyihalash metodi deganda nima tushiniladi?
2. O'quv jarayonini loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. O'qitish jarayonining tuzilishi, uni loyihalash va loyihalash bosqichlari.
4. O'quv maqsadlari, turlari va ularni loyihalash deganda nima tushiniladi?
5. Oila nima? Uni o'z fikringiz bilan izohlab bering.
6. Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
7. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
8. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mazmunidan nimalar aks etadi?
9. Sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasini yo'lga qo'yish borasidagi qarashlarida qanday g'oyalar ilgari suriladi?

6 – Ma'ruza. O'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari

Reja:

6. 1. *O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha.*
6. 2. *Sinf – dars shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.*
6. 3. *Darsga bo'lgan talablar, darslarning tuzilishi.*
6. 4. *Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari.*

Adabiyotlar. 5, 10, 16, 19, 21, 26.

Tayanch iboralar: ta'lim va uning tashkiliy shakllari, sinf-dars tizimi, dars turlari, darsga qo'yilgan talablar, guruhli mashg'ulotlar, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'uloti, seminar, ekskursiya, amaliyot, kurs ishi, mustaqil ta'lim;

6.1. O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha.

Ta'lim insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki paytlaridayoq katta rol o'ynagan. Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Ya. A. Komesnkiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon mamlakatlariga tadbiq etilmadi. Ularda 1917 yilga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi (shakli) davom etib keldi. Ushbu maktablarda 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir xonada bir vaqt maboynida mashg'ulot olib borilardi. Shu boisdan bolalarning bilim darajalari va o'zlashtirishi ham turlicha bo'lar edi.

O'zbek maktablari oktyabr to'ntarishidan keyin sinf-dars tizimiga o'tdi. Hozirgi davrgacha guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

Sinf-yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir.

Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir.

Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.

Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.

Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Endilikda mustaqil respublikamiz xalq ta'limi oldiga qo'ygan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil qilishning yangi-yangi shakllari yaratilmoqda. Bugungi kunda maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba yer uchastkalarida ishlash, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

6.2. Sinf – dars shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish.

Ta'lim maskanlari oldida turgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o'quvchitalabalarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini - darsning tashkiliy daqiqalari deb ataladi. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi yoki tuzilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfning tayyorgarligini sinchiqlab kuzatish muhimdir. Tajribali va mahoratli o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar. Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa – butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi.

Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib o'qtirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi. Darsda rejada mo'ljallangan materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi darsni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi, turli xil ta'lim metodlaridan unumli foydalanish va o'quvchilarga ko'proq muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularga yangi materialni bayon qilishi dars sifatini oshiradi.

Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni o'qtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Ya'ni o'qituvchi bayon qilayotgan mavzu o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir. O'qituvchi darsda mavzuni bayon qilish davomida

o'quvchilarga muammoli vaziyat tug'diradigan savollar berib, ularni fikrlash va izlanishga undasa o'quvchilar ushbu materialni puxta o'zlashtirib oladi.

v) Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faolligi (og'zaki, yozma mashqlar va laboratoriya-tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i lozim. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilimlarini ham ishga tushirishga xizmat qiladi va to'g'ri baholash uchun katta imkoniyat tug'diradi.

g) dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallari boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega.

Darsda o'quv – tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan deb hisoblash qabul qilingan. Shunga asosan o'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondoshishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Umuman olganda, sinfga ham reproduktiv, ham ijodiy topshiriqlar berish mumkin.

6.3. Darsga bo'lgan talablar, darslarning tuzilishi.

Dars - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu soxada ko'pgina islohatlar amalga oshirilmoqda.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'log'i lozim.

3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i, shuningdek xilma xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.

4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq zarur.

5. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

6. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

7. Darsda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilar:

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi (ma'ruza).

O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.

O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.

Takrorlash – umumlashtiruvchi va kirish darslari.

Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi).

Har bir dars turining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishiga, mustahkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o'zlashtirishini nazorat qilib borishiga yordam

beradi. Maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri – yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

- a) yangi bilimlarni bayon qilish;
- b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
- v) yangi bilimlar ustida ishlash;
- g) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalari topshirish.

Demak, dars boshdan – oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash (savol-javob), yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish (masala va misollar yechdirish, grafik ishlari olib borish), uyga vazifa (boshqa bir dars elementi-tushuntirish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va h. k) kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga buysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism – didaktik usul, dars tuzilishi bo'lavermaydi. U o'qitish usuli bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil qiladi. Ya'ni dars tuzilishining o'zgarishi bilanoq dars olib borish usuli ham o'zgaradi. Darsning tuzilishi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolat darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi. Masalan, aralash dars turining tuzilishi:

uy vazifalarini so'rash, tekshirib ko'rish;

yangi materiallarni bayon qilish;

yangi materiallarni mustahkamlash;

uy vazifalarini topshirishni o'z ichiga oladi. Bunda:

a) uy vazifalarini ko'rish suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining birinchi qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o'qituvchi tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma'ruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining ikkinchi qismi, darsning ikkinchi bosqichi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishining uchins qismi, uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu – dars tuzilishini to'rtinchi qismi, darsning to'rtinchi bosqichidir. Yuqorida ko'rib o'tilgan dars turlarining hammasi o'z tuzilishiga ega bo'lganidek, ma'lum bosqichlarga ham ajraladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning ma'lum bir qismi yoki yirik mavzu o'tib bo'lganidan keyin o'tkaziladi. Bunda o'tilgan materiallarni takrorlash – qayta esga tushirish va mustahkamlash maqsadida o'tilgan mavzularni qamrab olgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan savollar orqali umumlashtirish nazarda tutiladi.

6.4. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari.

Oliy maktabdagi o'qitish jarayoni o'qitishning shakl va metodlarini tashkil etishning ko'p qirrali yagona tizimiga asosan amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning shakl va usullari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;
- talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonunida «Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi» deyilgan. Shu bilan birga oliy ta'lim talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga ham o'rgatadi. Shu o'rinda yurtboshimiz ta'kidlaganidek «Ayniqsa o'sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi. Bunda oliy o'quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari bo'lishiga qayg'urish har birimizning muqaddas burchimizdir». Shu nuqtai nazardan oliy maktablarda bilimlarni hozirgi zamon darajasida berib borish alohida ahamiyatga ega. Hozirda oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat, ya'ni bakalavriat va magistratura. Mana shu bosqichlarni amalga oshirishda, aniqrog'i, oliy ma'lumotli yetuk mutaxassis tayyorlashda o'qitishning bir qancha tashkiliy shakllari qo'llaniladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ta'limi kabilar kiradi.

Ma'ruza – bilim berishning shunday shakli, unda pedagog (o'qituvchi) tomonidan berilayotgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar talabalarga yoppasiga bayon etiladi. Ma'ruza - o'quv jarayonining ilg'or usullaridan biri bo'lib, dastlab u o'rta asrlarda biron bir kitobni o'qish yoki uni izohlash yo'li bilan namoyon bo'lgan. Jamiyat rivojlanishi maboynida og'zaki tushuntirishning bu usuli XVIII asrda lotin tilida amalga oshirildi. XVIII asr o'rtalariga kelib ma'ruzalar rus tilida o'qiy boshlandi. Uning ilg'or namoyandalaridan biri M.V. Lomonosovdir.

Fanlar bo'yicha ma'ruzada hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;
- talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;
- o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi. Didaktik maqsadiga (yo'nalganligiga) ko'ra kirish, tematik va umumiy – yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

Amaliy mashg'ulot - o'quv ishlarining mantiqiy davomi bo'lib, bu termin talabalarning mustaqil auditoriya ishlarining umumiy tushunchasi hisoblanadi. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilimini sinashga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda

mashqlar, laboratoriya ishlarini o'tkazish, har xil ilmiy tajribalarni o'tkazish kabilar amalga oshiriladi. Bilim berishning bu shaklida ma'ruzalarda olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog'lanadi va o'quvchilar tomonidan tajribalar amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulot shakllaridan biri seminardir.

Seminar – talabalarning ma'ruzadan olgan ilmiy-nazariy bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan ta'lim shakllaridan biridir. Seminar jarayonida o'qituvchining o'rni juda yuksak, ya'ni o'qituvchi talabaning o'rniga javobni aytib bermaydi, balki muhokamalarni tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Seminar mashg'ulotiga tayyorlanish talabalardan katta mas'uliyatni talab etadi. Jumladan, talabalar seminar darslariga tayyorgarligi davomida mustaqil o'qishlari, kerakli adabiyotlar bilan ishlashlari, ro'znoma va jurnallardan foydalana bilishlari, shuningdek boshqa mavzuga oid manbalarni izlab topishlari, ularni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari- Bunda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi. Laboratoriya mashg'uloti odatda maxsus jihozlangan xonada hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar: mikroskop, lupa, kolba, o'lchov asboblari va boshqa qurollar bilan ta'minlangan joylarda (auditoriyada) olib boriladi.

Ekskursiya – ta'lim va tarbiya ishlarining shunday turidirki, bu usul bilan o'rganilayotgan narsa va hodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, dala, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (muzey, ko'rgazma va h.k.larga) tashkiliy ravishda olib boriladi. Ekskursiya usuli asosan o'qituvchi yoki ekskursiya o'tkazishga mas'ul bo'lgan shaxsning kuzatilayotgan ob'ektni bayon qilishi, tushuntirishi orqali olib boriladi. Ekskursiya oxirida, albatta yakunlovchi dars o'tkaziladi va unda o'quvchi-talabalar tomonidan tayyorlangan chizma, rasm, taassurotlar kabi materiallardan foydalaniladi. O'qituvchi mulohaza va fikrlarni umulashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Amaliyot – ta'lim shakllaridan yana biri bo'lib, unda talaba oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq etadi. Bu jarayonda amaliyotchiga amaliyot davomida oliy o'quv yurtidan ilmiy rahbarlar tayyorlanadi. Amaliyot talaba uchun kelajak ish faoliyatida ilk qadami bo'lib, shu amaliyot davomida talaba oliy o'quv yurtida olgan bilimlarini qanchalik amaliyotga qo'llay olishini o'z nuqtai nazaridan ham baholaydi va bu orqali unda kelajagini tasavvur qilishga imkon yaraladi.

Kurs ishi – oliy maktab o'quv rejasida qayd qilingan ta'lim berishning shakllaridan biri. Kurs ishlari biror fanning nazariy kursi tugallangandan so'ng amalga oshiriladi. Ta'lim berishning bu turi talabalarning ilm olish davrida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, nazariy bilimlarini qanchalik amaliyot bilan bog'lay olishi negizida paydo bo'ladi. Kurs ishi tayyorlash jarayonini bevosita mustaqil ishlar tarkibiga kiritish mumkin. Kurs ishi ham o'quv rejasida kiritilgan bo'ladi.

Diplom ishi – talabaning oliy o'quv yurtida olgan bilimlarining natijasi, ilmiy izlanishlarning boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, ta'lim berishning bir shakli sifatida

namoyon bo'ladi. Diplom ishi bir mutaxassislikning talaba tomonidan tamomlanayotgan, shu mutaxassislik rahbari bilan birga tayyorlanadigan va o'quv yurti rejasida qayd qilingan ta'lim berish shakllaridan biridir.

Oliy maktabda o'quv jarayoni mustaqil ta'limni tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarning mustaqil taxsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan initilishi sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'limning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'z ustida ishlashga hamda ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir. Mustaqil ta'lim buyicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasi tuziladi. Umuman olganda barcha oliy maktablarda ta'lim berishning tashkiliy shakllari amal qilar ekan, ularga bir qator talablar qo'yiladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Maktab ta'limida sinf-dars tizimi qachon va kim tomonidan yaratildi?
2. Ta'limning tashkiliy shakli nima?
3. Sinf-dars tizimi Sharq mamlakatlari, jumladan O'rta Osiyoda qachon joriy (tadbiq) etildi?
4. Darsning mohiyatini tushuntirib bering?
5. Sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlardan amaliy va tajriba shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar qanday farqlanadi?
6. Bugungi kunda ta'lim maskanlari oldida turgan muhim vazifalar nimalardan iborat?
7. Darsning tashkiliy daqiqalari deganda nimani tushunasiz?
8. Dars qanday didaktik talablarga javob berishi lozim?
9. Ta'lim tizimida eng ko'p qullaniladigan dars turlarini ayting?
10. Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga nimalar kiradi?

7- Ma'ruza: Pedagogik nazorat va ta'lim sifatini baholash

Reja:

- 7.1. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari.**
- 7.2. Ta'lim maqsadlariga erishilganini baholash. Test vazifalarining shakllari.**
- 7.3. Reyting tizimi va uning o'quv jarayonida qo'llanishi. Bilimlarni og'zaki, yozma va test usulida nazorat qilishning afzalliklari va kamchiliklari.**
- 7.4 Ta'lim tizimini boshqarish masalalari va vazifalari.**
- 7.5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlarida ta'lim tizimini boshqarish masalalari.**

Adabiyotlar: 7, 14, 21, 22, 26, 29.

Tayanch iboralar: ta'lim sifati, o'qitishda nazorat, o'z-o'zini nazorat, baholash, joriy, oraliq, yakuniy nazorat, test usuli, reyting tizimi;

7.1. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari. O'qitish tizimida nazoratning zarurligi, eng avvalo, barcha ta'lim muassasalarining samarali ishlayotganligi haqida axborot olishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqadi. Nazorat ta'lim jarayonining ajralmas qismlaridan biri sanaladi. Chunki nazorat qilish tufayli o'qitishdagi o'zaro muloqot, o'qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish, yangi darsga aniq vazifalar qo'yish imkonini beruvchi aloqa amalga oshiriladi.

Nihoyat nazorat maktabdagi o'qitish jarayoniga xos bo'lgan: ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantirishdek bir qator asosiy vazifalarni bajaradi. Nazoratning ta'limiy ta'siri o'qituvchi barcha o'quvchilarni o'z o'rtoqlarining javobini tinglashga jalb qilishi, tuzatish va qo'shimchalar qilishni taklif etishi orqali ta'minlanadi. Shu tufayli ham so'rash jarayonida barcha o'quvchilar o'rganib, o'zlashtirib olgan bilimlarini tizimga solishadi, takrorlashadi va mustahkamlashadi.

Nazoratni turlarga bo'lishning xususiyati shundaki, nazoratning keyin keluvchi har bir turida ham oldingi turidagi belgilar namoyon bo'ladi. Shuning uchun nazoratning bir qancha turlari: og'zaki, yozma va laboratoriya turlari hamda ularga muvofiq keluvchi usullari qo'llaniladi. O'quv jarayonida nazorat qilish tufayli o'qitishdagi o'zaro muloqot, o'qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatish, yangi darsga aniq vazifalar qo'yish imkonini beradi.

Og'zaki nazorat – yakka va guruhli so'rash yo'li bilan amalga oshiriladi. Alohida so'rashda o'qituvchi ma'lum vaqt davrida o'quvchilar tushunchalar, qonun, nazariya hamda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. O'qish jarayonida matematika, ona tili, fizika va boshqa fanlar bo'yicha diktant, bayon va insholar o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar bilimini yozma nazorat qilib borish amalga oshiriladi.

Yozma ishlar turli davomiylikka ega. Yozma nazorat ishlarini o'tkazishda, baholarning to'liq ob'ektivligini ta'minlash bilan birga bo'sh o'zlashtiruvchilarni

ilg'orlar safiga tortish, topshiriqni uddalashlariga ishonch hosil qilish maqsadida ularga masalalarning javoblarini, qo'shimcha rasmlar va hokazolar berish kerak.

O'z-o'zini nazorat qilish o'quvchilarning o'quv faoliyatni muhim elementlaridan biridir. O'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qila olish mahoratini shakllantirmoq lozim. Masalan, o'quvchilarga uy vazifalarini bajarayotganda o'z-o'zini tekshirishning quyidagi usullarini tavsiya qilsa bo'ladi: darslik matnini o'qib chiqqandan so'ng uning muhim joylarini ifodalovchi qisqa rejasini mustaqil tuzish, rejadan foydalanib, matnning asosiy ma'nosini gapirib berish, kitobda shu mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob berish uchun tayyorgarlik ko'rish.

O'qituvchi yoshlarni o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatishda o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni ko'ra olish mahoratini shakllantirmog'i lozim. Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish uslublarini o'zaro mohirona biriktirish barcha o'quv fanlari bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

7.2. Ta'lim maqsadlariga erishilganini baholash.

Baholash – **joriy, oraliq va yakuniy** nazoratlarni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat talabani ta'lim mazmunini o'zlashtirib borayotganidan muttasil xabardor qilib turadi. Odatda, **joriy nazoratda** o'quvchi-talabani bilimiga baho qo'yilmaydi, uning intilishlari ma'qullanib boriladi. Yakuniy nazoratda rejalashtirilgan ta'lim maqsadiga erishilgani baholanadi.

O'quv jarayonida nazorat og'zaki, yozma yoki test usulida bo'lishi mumkin. Og'zaki nazorat – yakka va guruh so'rash yo'li bilan amalga oshiriladi. Og'zaki javob berishda yaxshi tayyorlangan o'quvchi o'z bilimdonligini, qo'shimcha o'rganganlarini namoyish etadi. Talaba bilan bevosita aloqa natijasida so'rash, savol-javob paytida talabani bilim o'zlashtirishi masalasida o'qituvchida tug'ilgan ayrim shubhalar bartaraf etiladi. Shu bilan birga talabani bilimni og'zaki nazorat qilishda pedagogning shaxsiy sifatlari aks etadi. Og'zaki baholashda har bir o'qituvchiga xos ob'ektivlik va sub'ektivlik munosabati namoyon bo'ladi. Pedagogik tadqiqotlarda aniqlanishicha, ikki imtihon oluvchining bir talabaga bir fandan qo'ygan baholari 40-60% ga mos keladi. Bir bolaga imtihonchilarning bittasi yuqori baho qo'ygan bo'lsa, ikkinchisi past baho qo'yish hollari ham uchraydi. Bitti yozma ishning o'ziga turli imtihonchilar turlicha baho qo'yishlari mumkin.

Xullas, og'zaki va yozma imtihonlarda o'quvchiga qo'yiladigan baholarda sub'ektivlik alomati ko'proq. O'qituvchi ko'pincha bahoni boshqa o'quvchilarga nisbatan qo'yadi, bunda qo'yilayotgan baho kamaytirilishi ham, oshirib yuborilishi ham mumkin.

Test – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, sinov, tekshirish, baholash demakdir. O'quvchilarning fanlardan o'zlashtirish faoliyatini yaxshilash, baholashda pedagogik test ularning bilimlarini xolis baholash samarasini beradi, chunki bu baho uni qo'yayotgan odamga bog'liq bo'lmaydi. U barcha tekshiruvchilarga bir qo'llaniladigan qilib tuzilgan mezon bo'yicha to'g'ri echilgan test topshiriqlari foiz asosida aniqlanadi. Shuning uchun pedagogik test to'la asos bilan o'qitish natijalarini aniq va ishonchli baholashga imkon beradigan pedagogik o'lchov quroli deb ataladi. Sifatli

tayyorlangan pedagogik test o'quvchilar va talabalarning bilimlarini yuqori aniqlikka va ishonchlilikka ega bo'lgan xolis bahosini olishga imkon beradi.

Pedagogik testlar ta'lim tizimida ko'p tashabbuslarning tarkibiy qismidan iborat. Pedagogik testlardan foydalanilganda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qitish sifatini so'zsiz oshirish mumkin bo'lgan etarli ijobiy imkoniyatga ega. Shuning uchun test madaniyatini egallash har bir pedagog va ta'limni boshqarish idoralari xodimlarining eng muhim masalalaridan biridir.

Pedagogik test o'tkazish o'qitishning tashkiliy natijalariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sifatli testlar talabalar bilish faolligini oshirishga qodir, ular o'quvchi-talabalar faoliyatida yuqori mo'ljallarni belgilaydi. Aksincha, yomon tuzilgan testlar o'quv jarayonida teskari samara berishi mumkin.

Test vazifalarining shakllari.

Test topshiriqlari mazmuniga ko'ra to'rt turga bo'linadi: yopiq testlar, ochiq testlar, moslik va izchillikka oid testlar. Test vazifalarining boshqa shakllari ham bo'lishi mumkin.

Yopiq testlar – test sharti savol yoki biror vazifa va qisqa javoblardan iborat bo'lib, ko'pincha javoblardan bittasi to'g'ri, qolganlari to'g'ri javobga o'xshashroq bo'ladi. Yopiq test deb atalishining boisi shundaki, tekshiriluvchi qo'yilgan shartga (savolga) o'z «javobi»ni bera olmaydi, u testda kiritilgan javoblardan birini – o'zicha to'g'ri deb hisoblaganini tanlashi, belgilashi mumkin, xalos. Yopiq test vazifasida bir necha to'g'ri javob ham bo'lishi mumkin.

Yopiq test topshiriqlarini tuzishda test shartini biror vazifa, topriq shaklida, shuningdek savol shaklida ifodalash tavsiya etiladi. Yaxshi tuzilgan test vazifasi talabani to'g'ri javobni izlab tanlash, fikr yuritish, aql ishlatishga da'vat etsin.

Misol. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?

A) 1990 yil 23 dekabr.

S) 1999 yil 8 avgust.

V) 1998 yil 5 may.

D) 1997 yil 29 avgust

To'g'ri javob: D.

Ochiq test vazifalari - kishiga o'z hoxishiga ko'ra javob berish imkoniyatini yaratadi. Ochiq testlar, odatda, bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan jumladir. Misollar: Asosiy so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan, javob taklif etilmagan test vazifasi..... deyiladi.

To'g'ri javob: ochiq test.

..... tushirib qoldirilgan va javobi ko'rsatilmagan topshiriq ochiq test deyiladi. To'g'ri javob: muhim so'z.

Moslikka doir testlarning mohiyati shundan iboratki, bir narsaning qismlari boshqa narsaning qismlariga mos kelishini aniqlash zarur.

Izchillikka doir test vazifalari topshiriqlar turli harakatlar, fikr yuritishlarda izchillik mavjudligini tekshirish, aniqlash uchun ishlatiladi.

Misol. Pedagogik testni tuzishda harakatlar izchilligi (ketma-ketligi) to'g'riligini aniqlang.

A) Test xususiyatlarini aniqlash.

V) Test topshiriqlarining miqdorini belgilash.

S) Umumiy va xususiy maqsadlarini aniqlash.

D) Test vazifasini tuzish (ishlab chiqish).

G) Testni sinov –tajribada tekshirib ko'rish.

Javob indeksleri tartib (izchillik) shaklida bo'ladi.

To'g'ri javob: V, S, A, D, G.

Test tuzishda bunday izchillik zarurligining sabablari bor. Avvalo test vazifalari miqdorini aniqlash lozim, chunki u o'quv predmetiga ajratilgan test topshiriqlari soniga, vaqt va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Yakuniy testni ishlab chiqish nazorat vazifalari miqdorini aniqlashdan boshlanadi. Ularning soni nazorat turiga, ta'lim maqsadi va vazifalariga erishilganini qanchalik chuqur tekshirish rejalashtirilganiga bog'liq. Demak, nazorat vazifalari og'zaki, yozma yoki test shaklida bo'lishi mumkin.

7.3. Reyting tizimi va uning o'quv jarayonida qo'llanishi.

O'quvchilar bilimi sifatini nazorat qilishning **reyting tizimi** deganda har bir talabaning o'qish jarayoni va o'quv natijasini baholashga bir xil yondashuvni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatma va qoidalar majmui tushuniladi.

«**Reyting**» inglizcha so'z bo'lib, baholash, individual koeffitsient ma'nolarini anglatadi. Reyting bevosita kuzatish, baholash metodi bo'lib, ma'lum bir pedagogik hodisani o'rganish uni juda ko'p yillardan buyon doimiy kuzatib yurgan odamlarning baholashlariga asoslanadigan usuldir.

Reyting tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- nazorat turlari (joriy, oraliq, yakuniy);
- nazorat usullari (og'zaki, yozma, pedagogik test);
- vaqti-vaqti bilan baholash;
- baho shkalasi;
- o'quvchiga qo'yib borilgan baholarni predmet bo'yicha umumiy bahoga birlashtirish qoidalari;
- natijalarni rasmiylashtirish qoidasi va boshqalar.

Reyting tizimini qo'llashning maqsadi va vazifalari, odatda, quyidagi natijalarga erishish uchun sharoit yaratish hisoblanadi:

- o'quvchi va talabalar davlat ta'lim standarti talablarini o'zlashtirishiga erishish;
- bilimni baholashda ob'ektivlik va muntazamlilikni ta'minlash;
- har bir talabada o'zlashtirishni faollashtirish, o'qishga ijobiy motiv hosil qilish va talabaning o'quv sohasida egallagan o'rnini aniqlab, yutuqlari uchun rag'batlantirish;
- ta'lim natijalarini taqqoslashga imkon yaratish kabilar.

O'quv jarayonida reyting tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

1. Uzluksiz ta'lim tizimi har bir bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

2. Baholashda ko'p balli shkalani qo'llash.

3. O'qituvchi qo'yadigan baholar murakkab matematik hisob-kitoblar bilan bog'liq bo'lmasligi lozim. Baho o'quv yurtida qabul qilingan (qo'llanib kelayotgan) mezonlarga binoan qo'yib borilishi kerak.

4. Reyting tizimi natijalari o'quvchilar, ota-onalar, pedagoglar tushunishi uchun qulay bo'lishi lozim. Reyting ballarini hisoblash, yakuniy ballarni qayta hisoblash

tartibi iloji boricha soda bo'lishi, ballarni nazorat turlari va shakllari bo'yicha taqsimlab hisoblashni talab etmasligi kerak.

5. Uzluksiz ta'limning har bir bosqichida turli o'quv yurtlari reyting tizimlari natijalari ta'lim natijalarini taqqoslashga imkon berishi kerak.

Bilimlarni og'zaki, yozma va test usulida nazorat qilishning afzalliklari va kamchiliklari.

Og'zaki nazoratning yaxshi jihatlariga: o'qituvchining talaba bilan jonli muloqoti shaxsan aloqada bo'lishi, og'zaki nutqini mashq qilishi, bilimni chuqurroq aniqlash (tekshirish) uchun qo'shimcha savollar berish imkoniyati kabilar kiradi. Og'zaki javob berish talabani faol fikrlashga undaydi.

Yozma imtihonning afzalligi, yaxshi tomoni – u o'quv materialini bola o'zlashtirib olganiga hujjatli dalil bo'ladi, talaba o'z fikrlarini qog'ozda ifodalashi uchun amaliyotdir. Ekspertlar o'tkazgan yozma nazorat ob'ektivroq baho qo'yishga imkoniyat yaratadi.

Og'zaki va yozma nazoratning an'anaviy tizimiga xos jiddiy nuqsonlari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Imtihonda talaba variantidagi 3 – 4 ta savolga javob beradi, baho esa o'quv predmeti dasturini bilgani uchun qo'yiladi.

2. Besh balli baho shkalasi bilim o'zlashtirish darajalari orasidagi tafavutlarni aniq belgilashga imkoniyat bermaydi.

3. Og'zaki va yozma imtihonlar bilim o'zlashtirish sifatini ob'ektiv, aniq va asosli baholashni ta'minlay olmaydi.

4. Og'zaki so'rashga, shuningdek yozma ishlarni tekshirishga vaqt ko'p ketadi.

5. Og'zaki va yozma nazorat uchun kompyuterlarni ishlatish qiyin, ularni avtomatlashtirib bo'lmaydi. Bu jihatdan test nazorati ustunliklarga ega.

Testning muhim afzalligi uning ob'ektivligidir. Test nazoratining yaxshi tomonlariga quyidagilar kiradi:

1. Yaxshi tuzilgan pedagogik test ob'ektiv pedagogik o'lchash (baholash) ning instrumenti bo'lib, uning natijasi nazorat o'tkazuvchi odamga bog'liq bo'lmaydi.

2. Pedagogik test o'quv materiali mazmunini to'liq qamrab olishi mumkin, ta'lim natijasini test usulida o'lchashda – hamma talabalarga nisbatan bir xil, oldindan belgilangan shkalaga binoan aniq va to'g'ri baho qo'yiladi.

3. Test nazoratida texnikani ishlatish qulay, bu ma'lum o'quv materialini yoki butun bir fanni, nisbatan oz vaqt kam kuch sarflab, ommaviy nazorat qilishga imkon beradi.

4. Test nazoratini kompyuterlar vositasida avtomatlashtirish oson. Bu uning muhim ustunliklaridan biridir, lekin test usuli ham nuqsonlardan xoli emas. Masalan, test nazoratining ko'p shakllari talabani og'zaki va yozma javoblarini mustaqil ifodalash imkoniyatidan mahrum etadi. Talabaning ruhiy kechinmalari ham o'qituvchi oldida erkin javob berayotganidagidek namoyon bo'lmaydi, bilimdonligi, shaxsning o'zigagina xos ruhiy xususiyatlarini ko'rsatish imkoni yo'q. Imtihon topshiruvchi to'g'ri javobni tanlashigina mumkin, xalos. Shunga qaramay pedagogik testlarning ijobiy imkoniyatlari katta, ulardan o'rinli, to'g'ri foydalanish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qish va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Har

bir pedagog, ta'lim boshqaruvi idoralarining xodimlari test madaniyatini, test nazariyasi va amaliyotini chuqur o'rganishlari lozim.

7.4 Ta'lim tizimini boshqarish masalalari va vazifalari.

Boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga hos bo'lgan ichki xususiyatdir. Mehnatning har qanday shakli-ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat – idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir. Demak to'g'ri boshqaruvning muhim sharti-boshqaruvchining ya'ni rahbarning faoliyatidir. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunga muvofiq boshqaruvning 3 ta asosiy yo'nalishi bor:

1. Iqtisodiy boshqaruv
2. Ijtimoiy-siyosiy boshqaruv
3. Ma'naviy boshqaruv.

Biz yashayotgan jamiyat taraqqiy etmog'i uchun yuksak intellektual potensialga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma'rifat berishni, aholiga madaniy maishiy xizmat ko'rsatishni, ilmiy asosda boshqarish zaruriyati ana shundan kelib chiqadi.

Hozirgi davrda ma'naviy boshqaruv g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu shakldagi boshqarish umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta'lim organlari, o'rta maxsus kasb hunar kollejlari va akademik liseylari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni boshqarish o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta'lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

Ta'lim tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog'i bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta'lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi. Ma'lumki, boshqarish deganda mavjud vosita va imkoniyatlardan foydalanib ko'zlangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishish jarayoni tushuniladi va shuning bilan birga har bir insonni o'z ko'zlagan maqsadiga erishishning tez va qulay varianti qiziqtiradi.

Ta'lim tizimini boshqarish sohasida ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish ishlarini tashkil etishga ham alohida e'tibor beriladi. Ta'lim muassasasi uning rahbari (direktor yoki rektor) tomonidan boshqariladi.

Ta'lim muassasasi direktori o'quvchilarni ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom bo'lishlari, fan asoslarini puxta o'zlashtirishlari, umumiy ta'lim muassasalarining bugun faoliyati uchun javobgar shaxs sanaladi. Tashkilotchi oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagog ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi ta'lim beruvchi tuman xalq bo'limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta'limi (Toshkent shahrida shahar xalq ta'limi) bo'limi tomonidan direktor tayinlanadi. Ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'ini ta'lim muassasasi xodimlari bajarishi shart. Rahbarning ta'lim muassasasidagi vazifalari asosan quyidagilardan iborat: o'quv muassasasining pedagogik jamoasiga rahbarlik qilish; kadrlarni to'g'ri tanlash; joy – joyiga qo'yish; xodimlarning ijtimoiy – g'oyaviy saviyasi malakasini oshirish uchun zarur shart – sharoitni yaratish,

o'quvchilar bilimi va tarbiyasi sifatli bo'lishini ta'minlash, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkil etilishiga rahbarlik qilish va tegishli nazorat o'rnatish. O'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashini ta'minlashni yo'lga qo'yish, ota – onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan ishlarni tashkil etish. Maktabda ichki intizom, sanitariya – gigiena, umumiy rejim, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishni ta'minlash va hokazolar.

Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan faoliyat yuzasidan ish yuritish hujjatlarida qayd etiladigan hisobotlar muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim muassasalarida ish yuritish hujjatlari quyidagi tartibda joylashtiriladi:

1. Rahbar organlarining ko'rsatmalari;
2. Tashkiliy masalalarga oid hujjatlar;
3. O'quv masalalariga oid hujjatlar;
4. Tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar;
5. Kadrlarga oid hujjatlar;
6. Jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta'lim muassasalarining ommaviy ishlariga oid hujjatlar;
7. Moliya, xo'jalik ishlariga moddiy ta'minot va ta'mirlash ishlariga oid hujjatlar;
8. Ta'lim muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar qayd etiladigan daftar va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.

Uzluksiz ta'lim tizimi – kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxsning jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha.

Uzluksiz ta'lim – milliy modelning asosiy qismi bo'lib, quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, DTS ni, kadrlar tayyorlash tuzilmasini va uning faoliyat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi. O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir – birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

Endi uzluksiz ta'limning tarkibiy qismlari haqidagi qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz.

1. Maktabgacha ta'lim – bu milliy pedagogik kadrlar tayyorlashning boshlang'ich shakli. Maktabgacha ta'limning vazifasi bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, ulardagi o'qishga intilish hissinini uyg'otish va uni muntazam ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir.

2. Umumiy o'rta ta'lim – bu to'qqiz yillik (I – IX sinflar) o'qitishdan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim – majburiy ta'limdir. Demak, o'rta umumta'lim – uzluksiz majburiy ta'lim bo'lib, unda quyidagi muammolar hal bo'ladi:

- fanlar asoslari bo'yicha uzluksiz bilim beriladi;
- mehnat ko'nikmalari shakllanadi;
- ijodiy fikrlash va atrof muhitga ongli munosabatda bo'lishi o'rgatiladi;

- kasb tanlash shakllanadi.

Umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi boshlang'ich ta'lim deb nomlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim tugallangandan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

3. O'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi. Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi tizimi yo'nalishi – akademik litsey yoki kasb – hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akdemik litsey DTS ga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi.

Kasb – hunar kollejiga tegishli DTS doirasida ta'lim oluvchilarga o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi beriladi; o'quvchilarga kasb – hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb – hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb – hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb – hunar kollejlari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisos va kasb – hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

4. Oliy ta'lim.

Oliy ta'lim – malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (akademiyalar, universitetlar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi negizida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalilovchi bakalavriyat va magistraturaga ega.

Bakalavriyat – mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir.

5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy – pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb – hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab – ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

7.5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlarida ta'lim tizimini boshqarish masalalari.

O'zbekistonning kelajagi, uning taraqqiyoti va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma'naviy etukligiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar muhim o'rin tutadi. 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning 9-sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishning aniq yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjatdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida ko'rsatib berilgan. Ular quyidagilardir:

25-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari

26-modda. Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sohasidagi vakolatlari

28-modda. Ta'lim muassasasini boshqarish

29-modda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, bog'chalarga rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejlariga, litseylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Xalq ta'limi vazirligi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning bajarilishi, maktablarda o'quv-tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy bazasi, o'qituvchilarning malakasi va kattalar talimining tashkil etilishi uchun javob beradilar. Xalq ta'limi vazirligida turli xil o'quv-metodika bo'limlar tashkil etiladi. Ular pedagogika jamoatchiligini xalq talimi bo'limlari va maktablarga yordam berishga jalb etadilar.

Tuman, xalq ta'limi bo'limlari o'zlariga qarashli maktablari faoliyatini, mahalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda nazorat qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi maktab va boshqa o'quv-tarbiya muassasalari barcha ishlab chiqirishning asosida boshqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari va ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi.

O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida” gi Qonunning 4 bo'limi **“Ta'lim tizimini boshqarish”** deb nomlanadi. Ushbu bo'lim 25, 26, 27, 28 va 29-modlarni o'z ichiga oladi. Qonunning 25 – moddasida **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari keltirilgan.**

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha quyidagi vakolatlarga egadir:

1. Ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
2. Ta'lim sohasida davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
3. Ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishni amalga oshirish;
4. Ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
5. Ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagogik, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
6. Boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
7. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
8. Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;
9. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
10. Davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
11. Oliy ta'lim muassasalarining rektorini tayinlash;
12. Ta'lim oluvchilarning akkreditasiya qilingan bir ta'lim muassasalaridan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlari.

Respublika ta'lim tizimini boshqarishda bir qator davlat organlariga tegishli vazirliklar, chunonchi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, shuningdek, markazlar xususan, Respublika ta'lim Markazi, akademik lisey, kasb – hunar kollejlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz, viloyat, shahar, tuman xalq ta'limi bo'limlari ham ishtirok etadilar.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqlari doirasiga quyidagilar kiradi:

1. Ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
2. Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;
3. DTS, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlash;
4. O'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

5. O'quv va o'quv uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil etish;
 6. Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestasiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternet to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
 7. Davlat oliy ta'lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;
 8. Pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlashni tashkil etish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.
- Respublika ta'lim tizimini boshqarishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishtirok etadi. Ularning Respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli quyidagilar bilan belgilanadi:
1. Ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno) ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
 2. O'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydi;
 3. Ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar. Shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq bosh vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. O'qitishda nazoratning mohiyati nimalardan iborat?
2. O'z-o'zini nazorat qilishni qanday izohlaysiz?
3. Baholash nima?
4. Baholash qaysi nazoratlarni o'z ichiga oladi?
5. Og'zaki va yozma nazoratning mohiyati, farqi nimada?
6. Boshqarish, boshqarish tizimini qanday tushunasiz?
7. Jamiyatda boshqaruvning qanday asosiy yo'nalishlarini mavjud?
8. Ta'lim muassasalarini kim boshqaradi?
9. Uzlaksiz ta'lim tizimi deganda nimani tushunasiz?
10. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga nimalar kiradi?

8 - Ma'ruza. Psixologiya fanining predmeti va vazifalari

Reja:

- 8.1. Psixologiya fanining predmeti. Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi**
- 8.2. Psixik hodisalar va ularning shakllari. Psixologik nazariyalarni yo'nalishlari va psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.**
- 8.3. Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi va tarmoqlari.**
- 8.4. Hozirgi zamon psixologiya fanining metodlari.**

Adabiyotlar: 9, 13, 16, 17, 31, 34.

Tayanch iboralar: psixologiya, psixika, yangicha tafakkur va mafkura, psixik jarayonlar, ong, ruh, jon, miya, bixevorizm, freydizm, psixik holatlar va xususiyatlar;

8.1. Psixologiya fanining predmeti. Har bir fan boshqa fanlardan o'z predmeti bilan farq qiladi. Boshqa fanlardan farqli ravishda, psixologiya fanining predmeti, u bahs yurituvchi hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tushunish qiyinroq. Buning sababi psixik hodisalarning o'zgaruvchanligi, odamni qurshab turgan tashqi olamdagi hodisalardan farq qilishida. Psixologiya fanining predmeti psixika deb atalmish turli hodisalar (idrok, xotira, tafakkur, iroda va huquq) bo'lib, ular voqelikdagi haqiqiy hodisa va fanlarga qarama-qarshi qo'yib kelingan. «Psixologiya» so'zi ikki (grekcha so'z «psyuxē» «jon, ruh», «logos» «ta'limot») birikmasidan iborat bo'lib, «ruh, jon» haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Psixik hodisalarning barchasi «psixika», «odam psixikasi», «kishining ichki dunyosi», «ruhiy hayoti» kabi nomlar bilan ataladi.

Psixologiya rivojlanish tarixida psixologik bilimlarning to'planishi ikki yo'nalishda amalga oshgan:

1. Hayotiy psixologiya fanining rivojlanishi;
2. Ilmiy psixologiya fanining rivojlanishi.

Psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar haqidagi bilimlar hali yuzaga kelmagan juda qadim zamonlardayoq hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan. Bu bilimlar turli amaliy faoliyat, hamkorlik, o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanib avlodlardan avlodga o'tib, tilda, xalq ijodiyotida, maqollarda, san'at asarlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, odam xotira jarayonlari haqida ilmiy bilimga ega bo'lmasa ham biror matnni takror-takror o'qishi uni yaxshi esga olib qolishga yordam berishini bilgan.

Ammo psixologiyadagi hayotiy bilimlarning hammasini ostida haqiqat, qonuniyat yotadi deb bo'lmaydi. Ikkinchidan ko'pchilik hayotiy bilimlardan turli kasblarga doir amaliy faoliyatda (pedagogika, tibbiyot, ishlab chiqarishda) foydalanib bo'lmaydi. Bu sohalarida ob'ektiv va ishonchli bilimlar talab qilinadi. Bunday bilimlar ilmiy bilimlardir.

Ilmiy psixologiya fanidagi psixik faktlarni miqdor (reaktsiya tezligi, xotira hajmi, diqqatning ko'lam va h.k.) va sifat jihatdan (idrokning konstantligi, tafakkurning mustaqilligi, xotiraning anglanganligi va h.k.) o'rganadi. Ilmiy psixologiya psixik faktlarni o'rganish va ularni tasvirlash bilan cheklanib qola olmaydi. Ilmiy bilish hodisalarni tasvirlashdan ularni tushuntirib berishga o'tishni talab qiladi. Buning uchun o'rganilayotgan psixik hodisa qaysi qonuniyatga bo'ysunishini aniqlash va o'rganish lozim. Chunki barcha psixik hodisalar doimo va bir xil tarzda yuzaga chiqmaydi. Bu hodisalar yuzaga chiqishi ma'lum qonuniyatlarga bog'liq. Shu sababli ba'zi hatti-harakat shakllari, odatlar kishining hayotga moslashishiga yordam bersa, boshqalari sharoit o'zgarganda o'zining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi va hatti-harakatning yangidan shakllantirishni talab qiladi. Hatti-harakatni samarali ravishda qayta qurish uchun uning mexanizmlarini bilish lozim.

Hodisalar o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikni bilishning o'zi ana shu qonuniyatni keltirib chiqaradigan mexanizmlarni ochib bera olmaydi. Psixik faoliyat u yoki bu psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi aniq anatomik hamda fiziologik apparatlarning ishi bilan bog'liq bo'lganligi tufayli psixologiya bu mexanizmlarning tabiati va ta'sir

masalalarini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda aniqlaydi.

Shunday qilib, hozirgi zamon **psixologiya fani** psixik hodisalarni, ularning mexanizmlarni, ular ostida yotgan qonuniyatlarni o'rganuvchi fandir, ya'ni psixologiya inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha xilma-xil individual xususiyatlarni hamda ularga xos bo'lgan umumiy psixik sifat, jarayonlarni **o'rganadi**.

Psixologiya fan sifatida kishining psixikasini o'rganish, psixik hodisalar asosida yotgan yangi qonuniyatlar ochish, ruhiy hayotga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qiluvchi omillar tahlil qilish, turli psixik hodisalarning mexanizmlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Psixologiya o'quv predmeti sifatida esa talabalarni, o'quvchilarni, turli soha mutaxassislarini psixologiya fani tomonidan ochilgan yangiliklar, amaliy natijalar bilan tanishtiradi.

Psixologiya fan sifatida rivojlanishi. Psixologiya tashqi olamni faol ravishda sezgilar, idrok, tafakkur, hissiyot va boshqa shaklda aks ettiruvchi psixik jarayonlar va psixik hodisalar haqidagi fandir.

Qadimgi zamonlardan boshlab ijtimoiy hayot ehtiyojlari har bir kishidan boshqa kishilarning psixologik xususiyatlarini, ularning xarakterlarini xulq-atvorini o'rganishni va hisobga olishni taqozo qilgan. Hayot davomida boshqalarning xulq-atvorini kuzatish, ulardan amalda foydalanishga intilish jarayonida kishi ruhiy olamida (psixikasida) ko'p tushunarsiz, ba'zan sirli hodisalarga duch kelganlar. Bunday hodisalar jonning ishi deb tushunilgan. Ularning tasavvuricha, jon o'z mohiyatiga ko'ra o'lmas, boqiy, ko'rinmas, hidsiz, ilohiy (xudo tomonidan berilgan) xususiyatlardir. Tana jon uchun vaqtinchalik joy. Jon tanadan chiqib ketishi, qaytib kelishi mumkin, jon tanani boshqaradi deb hisoblaganlar. Kishilar hayotida uchraydigan (masalan, tush ko'rish, alahsirash, jahl, o'lim va h.k.) hodisalar jonning faoliyati va xususiyati bilan tushuntirilgan. Masalan, tush ko'rish-jonning tanadan chiqib ketishi va boshqa jonlar bilan uchrashishi, o'lim-jonning qaytib kelmasligi bilan tushuntirilgan. Jonning o'zini turlicha tasavvur qilganlar. Gretsiyalik mutafakkirlardan Geraklit (eramizdan oldingi VI asr) jonni «uchquncha»dan, Demokrit (eramizdan oldingi V asr) «olov atomi»dan iborat deb hisoblaganlar. Shu bilan birga tabiatni o'rganish, aniq va tibbiy fanlardagi rivojlanish, kishi tanasi tuzilish haqidagi bilimlarning boyishi natijasi psixika (jon) haqidagi bilimlar ham ilmiylashib borgan.

Eramizdan oldingi VI asrda yashab o'tgan grek vrachi Alkmeon anatomiya hamda tibbiyot sohasidagi tajribalarga asoslanib, psixikaning organi Miya degan fikrni ilgari surdi. Keyinchalik ko'pchilik olimlar (shu jumladan Aristotel ham) psixikaning asosiy organi yurak degan fikrni himoya qilganlar. «Meditcina fanining otasi» Gippokrat (eramizdan oldingi V asr) temperament haqidagi (Sharqda temperament «mijoz» deb yuritilgan) ta'limotni yaratdi. Ularning fikricha kishi temperamenti kishi tanasidagi «sharbatlar» (suyuqliklar) aralashmasi va ularning nisbati bilan tushuntirilgan. Shunday qilib psixikani ilmiy tushunishga katta qadam qo'yilgan.

Ko'pchilik adabiyotlarda psixologiya fanining asoschilaridan biri («otasi») makedoniyalik mutafakkir Aristotel (eramizdan oldingi IV asr) deb ko'rsatiladi.

Aristotel jonning rivojlanishi tirik tabiatning rivojlanishi bilan muvofiq boradi degan g'oyani ilgari surdi va himoya qildi. Unga qadar jon va tirik tana ikki xil narsa deb qaralar edi. Aristotel jon va tananing birligi haqidagi g'oyani maydonga tashladi. U psixika haqidagi fikrlarini «Jon haqidagi» risolasida aks ettirdi. Bu risola psixologiya fani sohasida maxsus yozilgan birinchi asar hisoblanadi. Aristotel tomonidan yoritilgan chizgilar, ularning turlari, asotsiatsiyalar haqidagi fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Eramizdan oldingi II asrda rimlik vrach Ralen fiziologiya va meditsina sohasida erishilgan yutuqlarni umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari haqidagi tasavvurlarni birmuncha boyitdi.

XVII asr biologik va psixologik bilimlar taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Tana va jonni tushunish sohasida tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Inson tanasi mashinaga o'xshatildi. Tana ham mashina singari ishlaydi deb qaraladi. Buyuk frantsuz matafakkiri Dekart hatti-harakatlarning reflektor («refleks» so'zi frantsuz tilidan kirib kelgan bo'lib «aks ettirish» degan ma'noni anglatadi) xarakteri haqidagi g'oyani ilgari surdi.

XIX-XX asrga kelib barcha fanlar sohasida ayniqsa biologik va aniq fanlar erishilgan yutuqlar ta'siri ostida psixologiya fanida psixikani tushunish juda kata o'zgarishlar ro'y berdi.

XIX-XX asrda psixologiya mustaqil eksperimental fan sifatida rivojlandi. Bunga tabiiy fanlar sohasida ayniqsa biologiya, sezgi organlari fiziologiyasi, psixofizika va psixofiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasining rivojlanishi psixologiyaga pedagogika, meditsina, ishlab chiqarishning talabining kuchayishi sabab bo'ldi.

Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixini to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

Psixologiya jon, ruh haqidagi fan sifatida, Psixologiyaga bundan 2500 yil avval shunday ta'rif berilgan. U davrda inson hayotidagi ko'plab tushunarsiz voqealarni jon, ruh va uning xususiyatlariga bog'lab tushuntirishga o'ringanlar.

Psixologiya ong haqidagi fan. Tabiiy fanlarning rivojlanishi ta'siri ostida XVII asrda paydo bo'ldi. Kishining fikrlash, his qilish, istaklarining namoyon bo'lishini ong deb atadilar. Psixologiya fanining eng asosiy tadqiqot metodi o'z-o'zini kuzatish va tahlil qilish hisoblangan.

Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan sifatida. XX asrda shakllangan bo'lib, psixologiyaning asosiy vazifasi bevosita kuzatish imkoniyati bo'lgan psixik hodisalar, ya'ni kishining xulq-atvori, harakatlari, reaksiyasi kabilarni o'rganish hisoblangan. Kishining hatti-harakatlari ostida yotgan motivlar hisobga olinmagan.

Psixologiya psixik faktlarni, psixik hodisalarning mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida. Hozirgi zamon psixologiya fani psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi falsafa, tabiiy va tibbiy fanlar, aniq fanlar sohasidagi ko'plab boy tajribalarga asoslanib shakllangan.

8.2. Psixik hodisalar va ularning shakllari. Psixologiya fanining taraqqiyoti jarayonida uning o'rganish ob'ekti ham aniqlashib bordi. Hozirgi zamon psixologiya fani «jon, «ruhni emas, balki insoning ichki dunyosini, ya'ni uning psixik xususiyatlarining yuzaga chiqishini o'rganadi. Inson psixikasining barcha shakllari

umumiy qilib psixik hodisalar deb ataladi. odatda psixik hodisalarning uchta katta guruhi farqlanadi: psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar (sifalar) va psixik holatlar.

Psixik jarayonlar-ob'ektiv voqelikning sub'ektiv aks ettirilishi shakllaridir. Psixik jarayonlar yordamida tashqi olam o'rganiladi, turli bilim, ko'nikma, malakalar shakllantiriladi. Psixik jarayonlarning quyidagi asosiy turlari farqlanadi: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, tasavvur, emotsiyalar, iroda. Ular quyidagi uch guruhga birlashtiriladi: bilish jarayonlari, emotsional (hissiy) va irodaviy xususiyatlar.

Psixik xususiyatlar (sifatlar) – Shaxsning individual psixologik xususiyatlari bo'lib, ular bir kishini boshqalardan ajratib turuvchi, ular faoliyatining tipologiyasi, o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Psixik xususiyatlar (sifatlar) kishinig nisbatan turgan xususiyatlaridir. Ular individual hayot davomida asta-sekinlik bilan va kam darajada o'zgaradi. Faqat juda katta ta'sirga ega bo'lgan, favquloddagi ta'sirlar ostidagina psixik xususiyatlar keskin o'zgarishi mumkin. Psixik xususiyatlarga temperament, xarakter, qobiliyatlar kiradi.

Psixik holatlar–kishi psixikasining dinamikasini, vaqt davomidagi o'zgarishini aks ettiradi. Psixik holatlar turli tashqi va ichki omillar ta'siri ostida yuzaga keladi va faoliyatning (o'qish, mehnat, o'yin) samaradorligiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga psixik holatlar ma'lum faoliyatning natijasiga munosabat oqibati shaklida ham yuzaga keladi. Psixik holatlarga toliqish, bezovtalik, g'azab, stress, monotonlik, depresiya, affekt, kayfiyat va boshqalar kiradi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha psixik hodisalar o'zaro chambarchas bog'liq va bir butun psixik faoliyatning tomonlari sifatida birgalikda yuzaga chiqadi.

Hozirgi davrda psixologiya fani bo'yicha o'quv qo'llanmalarda ko'rsatilmagan yana bir guruh psixik hodisalar mavjud. Bu guruh hodisalarni yuqorida tahlil qilingan uch guruhning birortasiga ham bevosita taaluqli bo'lmaydi. Bundan tashqari bu hodisalarning ko'pchiligidan mohiyati, mexanizmlari to'liq o'rganilmaganligi uchun ular g'ayritabiiy, ilohiy, sirli hodisalar sifatida qarab kelinmoqda. Ularning barchasini parapsixologik hodisalar deb to'rtinchi guruhga birlashtirish mumkin. Parapsixologik hodisalarga tush ko'rish, gipnoz, telepatiya, telekinez, levitatsiya va boshqa turli-tuman ektrosensor hodisalar kiradi. Bu hodisalarning ba'zilarining tabiati, mexanizmlari qisman o'rganilgan bo'lsa, boshqalar esa turli fan sohalari mutaxassislarini qiziqtirib kelayotgan muammolar qatorida turibdi.

Psixologik nazariyalarni yo'nalishlari va psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.

Psixologiya fanining ko'p yillik taraqqiyoti bir qancha yo'nalishlar maydonga keldi.

Psixologiya oqimlaridan biri BIXYeVORIZM (inglizcha behaviour so'zidan olingan bo'lib, xulq-atvor ma'nosini bildiradi) dastavval AQSHda hayvonlarni kuzatish sifatida yuzaga keldi. Uning namoyondalari – D.Uotson (asoschisi), E.Torndayk. Bixevorizmning asosida psixologik tadqiqotning predmeti sifatida psixikani ongni inkor qilish yotadi. Ularning fikricha psixologiyaning o'rganish predmeti xulq-atvordir. Bixevoristlarning fikricha, psixologiyaning vazifasi stimulg (turtki, qo'zg'atuvchi) (S) ga qarab bunga qanday javob, reaksiya (R) bo'linishi va aksincha reaksiyaga qarab uning stimulini aniqlash aytib berishdan iboratdir. Klassik bixevorizmning formulasi S – R demakdir. Klassik bixevorizm mexanistik yo'nalish

bo'lib, bu yo'nalish tarafdorlari ishining xulq-atvorini oddiy mexanik, bir taraflama tushuntirishga harakat qilganlar. Lekin hayotda bir stimul ko'plab, turli-tuman reaksiyalar, harakatlar tug'dirishi va aksincha bir xil reaksiyaning asosida bir-biriga o'xshamagan turli stimullar yetishi mumkin. Stimul va reaksiya orasidagi bog'lanishlar atrof-muhitning ta'siriga, kishining ichki dunyosiga, ongiga, qiziqishiga va boshqalarga bog'liq holda yuzaga chiqadi.

FREYDIZM. Asoschisi venalik psixiatr va psixolog Z.Freyd. ko'pchilik psixologik oqimlar orasida eng ta'sirga ega bo'lgan oqimlardan biri. Ularning fikricha odamning xulq-atvori, hatti-harakatlari ikkita printsipga «rohatlanish printsipti» (hayvonlar instinktiga o'xshash jinsiy moyillik ko'zda tutilgan) va «reallik printsipti» (jamiyat talabiga mos kelmaydigan, uyat va man qilingan o'zining jinsiy hirsilariga erk bermasligi) ga bo'ysunadi. Rohatlanish va reallik printsiplarining to'qnashishi natijasida qondirilmagan mayllar ongsizlik (ong osti) sohasiga siqib chiqariladi. Ammo ular butunlay yo'qotilmaydi, balki ongsizlik sohasidan turib kishi xulq-atvori va hatti-harakatlariga ta'sir qilib ba'zan boshqarib turadilar.

Hozirgi vaqtda psixologiya o'zining predmetiga, maxsus vazifalariga va maxsus tekshirish metodlariga ega. Bugungi kunda psixologiya sohasiga taalluqli bir qancha psixologik tashkilotlar, ilmiy muassasalar, o'quv yurtlari va nashriyotlari mavjud. Shuningdek, psixologlarning ilmiy assotsiatsiyalari va psixologlar jamiyati ish ko'rmoqda. Psixologiya muammolar bo'yicha Respublikamizda xalqaro konferentsiyalar, kongresslar o'tkazilmoqda. Ma'lumki psixologiya fani XX asrda falsafa fani tarkibidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. O'z-o'zidan ravshanki bu bilan psixologiya falsafadan chetda qolib, undan butunlay uzoqlashgani yuk. Hozirgi zamon psixologiya fanining asosini falsafadagi ilmiy-falsafiy tasavvurlar, turli falsafiy qarashlar tashkil qiladi. Shu bilan birga psixologiya sohasida erishilayotgan ilmiy va amaliy yutuqlar o'z navbatida falsafa fanini, falsafiy amaliyot va nazariyani boyitadi.

Hozirgi zamon texnik taraqqiyoti kishi psixikasiga katta talablar qo'yadi. Barcha sohalarda psixik omillarning roli oshib bormoqda. Kishining xotirasiga, tafakkuriga, idrokiga, temperamenti xususiyatlariga reaksiya tezligini hisobga olishga e'tibor kuchaymoqda. Chunki odamning ishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasligi, ishni buzmasligi uning psixik va Shaxsiy fazilatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Shu sababli «odam-mashina» tizimini to'g'ri tashkil qilishda psixologiya fanining ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa texnik fanlar va psixologiya o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, bir-biriga kirishib ketishiga olib kelmoqda.

Psixologiya va pedagogika o'rtasidagi aloqalarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Har tomonlama barkamol Shaxsni tarbiyalash vazifasi psixologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda psixologiyaning imkoniyatlari keng foydalanish imkonini beradi.

Psixologiya oldida turgan vazifalardan biri, pedagogik amaliyotda qo'llanilayotgan qoidalarni (ta'lim va tarbiya mazmuni, metodlari, usullari va h.k.) psixologik pedagogik amaliyotdan oldinda borishi, pedagogika uchun yangi yo'llar ko'rsatishi lozim. Psixologiyaning yordamisiz pedagogika o'z oldiga qo'ygan ko'plab vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olmaydi.

8.3. Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi va tarmoqlari. Hozirgi zamon psixologiya fani amaliyotning turli sohalar bilan bog'langan, g'oyat tarmoqlanib ketgan fanlar tizimidan iborat. Psixologiya fanining barcha sohalarini quyidagi asoslar bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. konkret faoliyatning psixologik tomoni;
2. taraqqiyotning psixologik tomoni;
3. insonning (taraqqiyot va faoliyat sub'ekti sifatida) jamiyatga bo'lgan munosabatning psixologik tomoni. Konkret faoliyatning psixologik tomoni bo'yicha psixologiya fanining bir qator sohalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Mehnat psixologiyasi. Mehnat psixologiyasi inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishining psixologik asoslarini o'rganadi. Odamning kasb uchun muhim ahamiyatga ega xususiyatlarini, mehnat malakalarining shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganish, ishlab chiqarish vositalarining turli xususiyatlari (rangi, mosligi, joylashishi) ish joyi kabilarning kishiga (mehnatkashga) ta'sirini o'rganish mehnat psixologiyasining vazifasiga kiradi.

Mehnat psixologiyasining taraqqiyoti jarayonida uning tarkibidan bir qancha mustaqil sohalar ajralib chiqdi. Shulardan biri injenerlik psixologiyasi. Injenerlik psixologiyasi inson va mashina o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash, ularning vazifalarini muvofiqlashtirish kabi muammolarni o'rganadi. Psixologiyaning bu sohasi asosan avtomatlashtirilgan tizimlarni boshqaruvchi operatorlarning faoliyatini o'rganadi. Keyingi yillarda mehnat va injenerlik psixologiyasi tarkibidan avval aviatsiya, keyinchalik kosmik psixologiya ajralib chiqdi.

Pedagogik psixologiyaning predmeti ta'lim va tarbiya jarayonlarining qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Bu soha o'quvchilarda tafakkurning tarkib topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o'zlashtirishni boshqarish muammolari, ta'lim samaradorligiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni, pedagoglar va o'quvchilar orasidagi munosabtlarni, o'quvchilardagi individual tafovutlar va ularni hisobga olishni, psixik taraqqiyotdan orqada qolgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish kabi muammolarni o'rganadi.

Pedagogik psixologiyaning ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat psixologiyasi, anomal rivojlangan bolalarga ta'lim va tarbiya berish psixologiyasi kabi ko'plab tarmoqlari mavjud.

Medsina psixologiyasi. Psixologiyaning bu sohasi tibbiyot xodimlarining faoliyatini, bemorlarning xulq-atvorini o'rganadi. Meditsina psixologiyasi quyidagi qismlarga bo'linib ketgan: neyro psixologiya–psixik xodimlarning millati fiziologik tuzilmalari, asoslarini, mexanizmlarni o'rganadi; psixofarmokologiya- davolashda qo'llaniladigan turli xil dorilarning kishi psixikasiga ta'sirini o'rganadi; psixoterapiya-bemorlarni davolashda turli psixik ta'sirlardan foydalanish; psixoprofilaktika va psixogigiena-turli psixik kasalliklarning kelib chiqishi, ularni profilaktika qilish masalalarini o'rganadi.

Yuridik psixologiya-xuquq tizimida amalga oshirish mobaynida yuzaga keladigan masalalarni ko'rib chiqadi. Uning tarmoqlari: sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitentsiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi.

Harbiy psixologiya-jangavor harakatlar sharoitidagi odamning xulq-atvori, boshliqlar va ularning qo'l ostidagilar o'zaro munosabatlarining psixologik tomonlari «psixologik urush» olib borish va unga qarshi kurash kabi masalalarni o'rganadi.

Sport psixologiyasi- sportchi va uning Shaxsiy xususiyatlari, ularni psixologik jihatdan tayyorlash shart-sharoitlari va vositalari, sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish kabi masalalarni o'rganadi.

Savdo psixologiyasi-xaridorlar psixologiyasini, talablarini, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, xizmat ko'rsatishning psixologik omillari, reklamalarni tayyorlash, ularning xaridorga ta'siri kabi masalalarni o'rganadi.

Yosh davrlari psixologiyasi- psixik xususiyatlarning yosh davomidagi dinamikasini, psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi. Yosh davrlari psixologiyasi quyidagi tarmoqlarga ega: bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirin yoshlar psixologiyasi, katta yoshli kishilar psixologiyasi, geranto psixologiya (qariyalar psixologiyasi).

Sotsial psixologiya-(ijtimoiy psixologiya ham deb yuritiladi)-kishilar orasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan psixik hodisalarni o'rganadi. Sotsial psixologiya ijtimoiy kayfiyatni, taqlid qilish hodisasini, «psixologik» yuqishni, guruhlardagi tabaqalanish va liderlik hodisalarini o'rganadi.

SHu tartibda psixologiya fanining boshqa sohalarini ham ko'rib chiqish lozim. Biz ulardan ba'zilarini sanab o'tish bilan cheklanamiz xolos. Bularga differentsial psixologiya, siyosiy psixologiya, iqtisodiyot psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, anomal taraqqiyot psixologiyasi va uning tarmoqlari, qiyosiy psixologiya (zoo psixologiya ham deb yuritiladi) va boshqalar.

Psixologiya fanining asosiy printsiplari. Hozirgi zamon psixologiya fanining quyidagi printsiplarini ko'rsatib o'tish mumkin: determinizm printsiipi, ong va faoliyat birligi printsiipi, psixikaning faoliyatda rivojlanish printsiipi.

Determinizm printsiipiga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va yashash sharoiti o'zgarishi bilan o'zgaradi. Agar, hayvon psixikasi haqida gapiradigan bo'lsak, uning taraqqiyoti biologik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Inson psixikasining taraqqiyotiga esa ishlab chiqarish usullari, ijtimoiy tarixiy omillar ta'sir qiladi. Ong va faoliyat birligi - ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, ular bir butunlikni tashkil qiladilar. Ong faoliyatning ichki rejasini uning programmasini tashqil etadi. Psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsiipiga ko'ra psixika taraqqiyot mahsuli, faoliyat natijasi deb qaraladi. Faoliyat jarayonida (o'qish, o'yin, mehnat) odam ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, bu esa psixik taraqqiyotning faqat insongagina xos shaklini tarkib toptiradi.

8.4. Hozirgi zamon psixologiya fanining metodlari. Barcha fanlar kabi psixologiya fani o'zining taraqqiyot ob'ektiga tadqiqot metodlariga ega. Psixologiyaning metodlari juda turli-tuman bo'lishiga qaramay ularning barchasi umumiy talablarga va qoidalarga bo'ysunadi. Bular tadqiqotning dialektik metod bilan ob'ektiv ravishda olib borish va genetik printsiipiga amal qilishdir. Shunday talablardan biri dialektik metod talabidir. Ilmiy psixologik metodlarning ob'ektivligi psixikani o'rganishda psixik hodisalar paydo bo'lishining ob'ektiv shart-sharoitlari va ob'ektiv nomoyon bo'lishlari tekshiriladi.

Genetik printsipga amal qilishning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan har qanday psixik hodisaga jarayon tarzida qaraladi. O'rganilayotgan psixik faktning tarixini taraqqiyot momentlarini, bu momentlarning o'rin almashishlarini o'rganishdan iborat.

Hozirgi zamon psixologiya fani qancha aniq, tekshirilib, sinovdan o'tkazilgan, samarali metodlarga ega. Ularning asosiylariga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Kuzatish metodi- psixologiya fanida qadimdan keng qo'llanilib kelayotgan metodlardan biridir. Hayotiy psixologiyada aytarli barcha faktlar kuzatish yordamida to'planadi. Ular asosida xulosalar, maqollar, matallar to'plangan. Kuzatish metodining ikki turi farqlanadi: o'z-o'zini kuzatish va tashqi kuzatish.

O'z-o'zini kuzatish o'z vaqtida psixologiya fanning eng asosiy metodi deb hisoblangan. Chunki bu nuqtai-nazar tarafdorlari fikricha, kishining haqiqiy ruhiy holatlarni kishining o'zi biladi va tushunadi xolos. Boshqa kishi bu hodisalarni oxirigacha hech qachon tushuna olmaydi. Haqiqatda esa o'z-o'zini kuzatish sub'ektivlikka egadir.

Tashqi kuzatish- bir kishining boshqa kishi tomonidan kuzatilishi. Kuzatishning bu turi turli vositalar (fotoapparat, kinokamera, xronometraj va boshqa murakkab kuzatish va ma'lumotlarni aks ettirish vositalari) qo'llab olib boriladi.

Kuzatish psixik hodisalarning tashqi alomatlarini tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki bu hodisalarning psixologik tabiatini tushuntirib bersagina, u haqiqiy psixologik tadqiqot metodi bo'la oladi. Ilmiy psixologik kuzatish turmushdagi kuzatishdan farq qiladi va olingan ilmiy natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan.

Ilmiy kuzatish quyidagi talablarga javob berishi shart (talablar):

- gipoteza (faraz)ning mavjudligi uni tekshirish;
- kuzatishning aniq reja asosida olib borilishi;
- kuzatilayotgan kishining kuzatish va uning maqsadini bilmasligi (yashirinligi);
- kuzatishning sistemali ravishda olib borilishi;
- kuzatishning ob'ektivligi (kuzatuvchining Shaxsiy munosabatlari, hissiyotlari natijasida aks etmasligi lozim).

Eksperiment – yangi psixologik faktlarni olishning va ob'ektiv ilmiy bilishning asosiy qurollaridan biri.

Eksperiment metodi keyingi yillarda psixologiya fanining eng yetakchi metodlaridan biriga aylandi.

Eksperiment-kishini maxsus jihozlangan laboratoriya sharoitlarida o'rganish. Psixologik eksperiment psixologik faktni aniq namoyon qilishga yordam beradigan sharoitni yuzaga keltirish maqsadida tadqiqotchining tekshiriluvchi faoliyatiga aralashishini taqozo qiladi. Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment.

Laboratoriya eksperimenti laboratoriya sharoitida maxsus psixologik apparatlar yordamida o'tkaziladi. Tekshiriluvchi kishining nima qilishlari lozimligi ularga oldindan ogohlantirib qo'yiladi.

Tabiiy eksperiment (1910 yilda A.F. Lazurskiy tomonidan tavsiya qilingan) mohiyatiga ko'ra eksperiment sharoitida tekshiriluvchiga o'zi ustida tajriba olib borilayotganligini bildirmaslikka qaratilgan bo'lib, tadqiqotni odatdagi tabiiy sharoitga ko'chiriladi. Eksperimentning yuqoridagi ikkita turidan tashqari psixologo-

pedagogik eksperiment va shakllantiruvchi eksperiment deb ataluvchi ikkita tur mavjud bo'lib, ular pedagogikada keng qo'llaniladi.

Faoliyat maxsulotini psixologik tahlil qilish–psixologik metodlarning bir ko'rinishidir. Faoliyat natijalarini tahlil qilish jarayonida mahsulotning o'zi emas, balki shu mahsulotni hosil qilish bilan bog'liq faoliyat psixologik jihatdan baholanadi. Bu metod ayniqsa, bolalar psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalarning chizgan rasmlarini o'rganish orqali ularning psixikasi va taraqqiyoti haqida ma'lumot olinadi. Bu metodlarning o'rganilayotgan Shaxsda biror xususiyatning mavjudligi uning taraqqiyot darajasi, turli metodlarga mos kelishi darajasini aniqlashdir. Shunday metodlarning barchasi umumiy nom bilan test deb yuritiladi.

Test - qisqa muddat ichida bajariladigan standart vazifalardan iborat. Ularning natijalarini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish orqali o'rganilayotgan psixik funktsiya va xususiyatlarning nechog'lik takomillashganligi va rivojlanganlik darajasi baholanadi. Testlar yordamida kishining biror kasbga layoqatliligi, aqliy rivojlanish darajasi, bilim darajasi o'rganiladi. Testlar ichida proektiv testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Bulardan tashqari psixologiya fanida anketa, suxbat, biografiya metodlari keng qo'llaniladi.

Psixologik tadqiqot o'tkazishning asosiy bosqichlari. Har qanday tadqiqot va o'rganishlar o'z maqsadiga, yo'nalishiga, qo'llanilayotgan vositalarning xususiyatiga, amaliy yoki nazariy ahamiyatiga ko'ra turlicha o'tkaziladi. Shu bilan birga ularning umumiy tomonlari ham mavjud. Masalan, har qanday tadqiqot to'rt bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda material turli vositalar bilan o'rganiladi, o'rganilayotgan hodisalar haqida dastlabki materiallar to'planadi. To'plangan materiallar tahlil qilinadi. Bu bosqichda ma'lum gipoteza (faraz) paydo bo'la boshlaydi. Bu faraz tadqiqot jarayonida yoki tasdiqlanadi. Yoki inkor qilinadi. Har qanday tadqiqotning samaradorligi to'g'ri tadqiqot yo'lini tanlash ko'p jihatdan tayyorgarlik bosqichiga bog'liq.

Ikkinchi bosqich-bevosita tadqiqot o'tkazish bosqichi. Bunda tadqiqotning konkret metodlari ishga solinadi. Bu bosqichda tadqiqotchi o'z tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqqan holda bir yoki bir necha konkret metodikalardan (eksperimentlardan) foydalanadi. Tekshirish (eksperiment) o'tkazilib zaruriy tadqiqot (eksperimental) ma'lumotlar yig'iladi.

Uchinchi bosqich tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlarni miqdor jihatdan ishlab chiqish. Psixologiya fani bu bosqichda ko'plab samarali matematik statistika usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning to'rtinchi bosqichi olingan natijalarni tushuntirib berishdan iborat. Bu bosqichda to'plangan va matematik metodlar yordamida ishlab chiqilgan ma'lumotlar psixologik nazariya asosida izohlanadi va tadqiqot gipotezasining to'g'ri yoki noto'g'riligi o'zil-kesil hal qilinadi.

Psixologiya metodlari amaliyot bilan bog'lanmog'i, ya'ni amaliy jihatdan juda muhim masalalarni hal etish uchun yaroqli bo'lmog'i lozim. Masalan, bolaning psixik taraqqiyoti o'rganilar ekan, uning psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini, asosiy xususiyatlarini aniqlash, bolaning xuddi shu tarzda psixik taraqqiy etish sabablarini bilib olish hamda sinchiklab o'rganish asosida maktab va

oila tarbiyasi va ta'limi jarayonlarini tobora takomillashtirish uchun muayyan usullarni belgilash kerak.

O'z –o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosini aytib bering.
2. Psixologiya fanining predmeti nima ?
3. Psixologiya fan sifatida rivojlanishida Demokrit ta'limotini tushuntiring.
4. Psixologiya fan sifatida rivojlanishida asosiy to'rt bosqichni tushuntiring.
5. Psixik jarayonlar deganda nimani tushunasiz ?
6. Psixologiya fanining klassifikatsiyasi nimaga asoslanadi ?
7. Psixologiya fanining tarmoqlarini ta'riflang.
8. Fanning asosiy printsiplarini tushuntiring.
9. Proektiv test deganda nimani tushunasiz?

9 - Ma'ruza. Shaxs va uning faoliyati

Reja:

- 9.1. *Shaxsning psixologik xarakteristikasi. Psixologiyada Shaxs tushunchasi.*
- 9.2. *Shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy omillar*
- 9.3. *Shaxs va uning faolligi*
- 9.4. *Faoliyat turlari, jismoniy va aqliy harakatlar*
- 9.5. *Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.*

Adabiyotlar: 3, 9, 13, 16, 31, 33.

Tayanch so'zlar: Shaxs, rivojlanish, ehtiyoj, motiv, mashq, o'yin, mehnat, ta'lim, shaxs va jamiyat, individ, inson, shaxs faoliyati, individuallik, ijtimoiy omillar, motiv, shaxs motivatsiyasi;

9.1. Shaxsning psixologik xarakteristikasi. Psixologiyada shaxs tushunchasi.
Inson, odam ko'plab fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ular odamlarning turli tomonlarini va hayot tarzini, rivojlanishi va boshqalarni o'rganadi. Psixologiya fani odamni jamiyatda, boshqalar bilan munosabatda bo'luvchi ongli faoliyat sub'ekti sifatida o'rganadi. Psixologiya fanida odamni ta'riflashda ko'plab tushunchalar qo'llaniladi. Shu jumladan «Shaxs», «individ», «individuallik» tushunchalari ham qo'llaniladi.

Odamning insonlik jinsiga mansubligi individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Katta yoshdagi kishilar, chaqaloqlar, tilni va oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan ruhiy kasallar (telbalar) ham individdir. Individ tushunchasida kishining biologik turga mansubligi aks ettirilgan. Barcha kishilar odamlar individdir. Yangi tug'ilgan chaqaloqning ham, katta yoshning ham, tafakkurni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo'lib yetishadi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik, jamiyatdagina Shaxsga aylanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ongi yuksak taraqqiy etgan, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina Shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi-uning ongli faoliyat egasi ekanligidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o'zaro munosabatda til yordamida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda shakllanadi. Binobarin Shaxs ham faqat jamiyatdagina Shaxsga aylanishi mumkin.

Shaxs ijtimoiy tajribani faol ravishda tahlil qiladi, o'zlashtiradi, o'zi uchun o'zgartiradi-bu jarayon davomida o'zi ham Shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning faolligi o'zi hayot uchun yo'l tanlashida, bu yo'lni egallashida. Shaxs shakllanib borgan sayin tashqi ta'sirlar, shu jumladan ijtimoiy ta'sirlar ham uning ichki dunyosi, psixologiyasiga qarab turli odamlarga turlicha ta'sir qiladilar. Masalan, bir xil baho turli o'quvchilarga turlicha ta'sir qiladi.

Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgisi: sotsiolligi, ongi va tilidir.

Inson Shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning **individualligidir**.

Individuallik - Shaxs psixologik, ijtimoiy, fiziologiya xususiyatlarining birikmalarining qaytarilmasligidir. Shaxs individualligi uning xarakteri, temperamenti, psixik jarayonlarning dinamikasi, hissiyotlari, faoliyatining motivlari, qobiliyatlari va shunga o'xshashlarning yig'indisiga bog'liq. Bularning hammasini birga qo'shib, mujassamlashtirsak ikkita bir xil odam bo'lmagan va bo'lmaydi.

Individuallik kishining o'ziga xosligini uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlaridan odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlarga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur)da Qobiliyatlarda faoliyatning shaxsga xos uslubida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q – inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir. Shunday qilib, individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarining faqat bitta jihati bo'lib hisobalanadi, xolos.

Ma'lumki odam jamiyatda turli guruhlarda (oilada, o'qishda, ishda, davrada) bo'ladi. Har bir guruhda o'ziga xos ba'zan butunlay bir-biriga o'xshamaydigan rollarni o'ynaydi. Lekin shunga qaramay, ko'pincha odam turli vaziyatlarda o'xshash sifatlarni namoyon qiladi. Shaxsning psixologik ko'rinishi, psixologik xususiyatlarining birikmalari har bir odamda nisbatan doimiylikka ega. Odamning psixik holatlari, o'zini tutishi o'zgarib tursa ham shaxsning psixologik qiyofasi ma'lum darajada barqaror bo'lib qolaveradi.

9.2. Shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy omillar

Shaxs xislatlarining bir butunligi va o'zaro bog'liqligi uning psixologik tuzilishini, dinamik strukturasini hosil qiladi. Shaxsni, uning tuzilishini o'rganishdan maqsad nima? Shaxsni, uning tuzilishini o'rganishdan maqsad uni boshqa odamlardan ajratib turuvchi individual xususiyatlarni aniqlashdir. Bu boradagi psixologik tadqiqotlar va nazariy ishlar asosida turli «Shaxs tillari»ning ajratishga, ularni o'rganishga olib keladi. Nazariyalar orasida shaxsda ikkita qism, ikkita omilni ajratuvchi yo'nalishlar ko'rinarli o'rin egallagan. Ular Shaxs tuzilishida ikkita omil, biologik va ijtimoiy omillarni ajratib ko'rsatadilar.

Ma'lumki, shaxs ijtimoiy mavjudod bo'lishi bilan birga, o'zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi. Ammo ikki faktorni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, ular birlikni tashkil qiladi, birgalikda yuzaga chiqadi.

Shaxs tashqi turmush sharoitlari ta'sirida shakllanadi, ammo bir sharoitda tarbiyalangan ikki bola ikki xil bo'ladi. Chunki ularning tabiiy qobiliyatlari turlicha bo'ladi. Demak Shaxsning shakllanishiga sotsial omillardan tashqari biologik faktorlar ham ta'sir qiladi. Bu ikki narsa bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishning biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalari nomini olgandir. Biogenetik kontsepsiya inson Shaxsining rivojlanishi biologik, asosan rasmiy omillar bilan belgilanishga asoslanadi.

Sotsiogenetik kontsepsiya shaxsni tevarak-atrofdagi ijtimoiy mohiyatning bevosita ta'sir natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblanadi. Bunda ham xuddi biogenetik kontsepsiya kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligini hisobga olinmaydi, uning tevarak atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudodga xos sust rol uynashigina mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik kontsepsiyaga amal qilinadigan bo'lsa, nima uchun ba'zi vaqtlarga bir xildagi ijtimoiy muhitlarda har xil odamlar yetishib chiqishini tushuntirib bo'lmaydi.

Shaxsning shakllanishi jamiyatda ro'y beradi. Individdning Shaxs bo'lishi yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo'lish kabi ehtiyoji aynan jamoada to'laqonli qondiriladi. Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazishda tarbiya yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiya shaxsni rivojlantirishning jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo'naltirib boradi va uyushtiradi.

Shaxs haqidagi psixologik nazariyalar. Shaxs haqidagi psixologik nazariyalar uzoq vaqt davomida rivojlanib keldi. Buning natijasida ko'plab nazariyalar, yondoshishlar yuzaga keldi. Ular orasidan g'arb mamlakatlarida rivojlangan va tan olingan asosiy nazariyalarga to'xtalib o'tish lozim. Shaxs haqidagi barcha nazariyalarni rivojlanish bosqichiga ko'ra uch guruhga birlashtirish mumkin:

1. Shaxs haqida an'anaviy nazariyalar (V.Diltey, K.Levin, V.SHtern, Z.Freyd, K.Yung va boshqalar).

2. Shaxs haqidagi yangi nazariyalar (G.Ayzenk, D.Kettel, A.Maslou, G.Olporp, K.Rodjers, K.Xorin va boshqalar).

3. Eng yangi nazariyalar (E.Bern, K.Leongard, D.Mid, G.Sallivn, Sirs, E.Fromm va boshqalar).

Ko'rsatib o'tilgan nazariyalar quyidagi psixologik yo'nalishlarning tarkibida rivojlangan yoki ularning asosi bo'lgan:

Freydizmning kontsepsiyasi neofreydizm (yangi freydizm), postfreydizm, bixevorizm va neo freydizm, gumanistik psixologiya, interaktsionizm, ekzistentsionalizm, sotsiologik nazariyalar, eliktik nazariyalar va h.k.

An'anaviy nazariyalar. Shaxs haqidagi an'anaviy nazariyalar orasida freydizm alohida o'ringa ega. E Freyd turli xil kasalliklarni (asosan nevroz bilan bog'liq bo'lgan) tahlil qilish natijasida bu kasalliklarning sabablari kasalning hayotida oldin ruy bo'rgan va uning psixika (ruhiyati)da yoki rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan voqealar degan xulosaga keldi, bu ta'sirlar ko'pincha odamlar tomonidan unitiladi va anglanmaydi, ammo ular kishilarning xulq-atvoriga ta'sir qilishda davom etadilar, ba'zida xulq-atvor buzilishiga olib keladilar. E.Freyd turli psixoterapevtik usullar

yordamida ularni topish va ularni anglashga yordam berish samarali davolash usuli ekanligini aniqladi. Izlanishlar natijasida Z.Freyd odamning psixik hayotida uch darajani ajratdi: ongsizlik, ong osti (ong oldi) va ong.

Ongsizlik-instinktiv harakatlarning asosi. Ular orasida ayniqsa, jamiyat tomonidan ta'qiqlanganligi sababli anglanmaydigan bo'lib qolgan jinsiy mayllar (libido) alohida o'rin tutadi.

Ong - ijtimoiy me'yorlar, man qilinishlar (tabu). Ong doimo ongsizlik bilan kelishmovchilikda. Turli xildagi jinsiy va boshqa mayllarni yuzaga chiqarmaslikka harakat qiladi.

K. Yung va uning psixologik qarashlari. Karl Gustav Yung (1875-1961) Shveytsariyalik psixiatr, psixolog. Z.Freydning yaqin safdoshlaridan biri. U.Z.Freydning izidan borib, inson psixikasida «ong» va «ongsizlik» darajalarini ajratgan. Uning fikricha hatti-harakatni boshqarishda ongsizlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ongsizlik ikki xil shaklda mavjud: a) individual, b) kollektiv (jamo) – uning asosini oldingi avlodlar tashqil qiladi. Bular asosan instinktlar, mayllar, arxetiplardan iboratdirlar.

Instinktlar va mayllar K.Yung tomonidan tug'ma ehtiyojlar sifatida qoraladi. Arxetiplar (kishilikning birlamchi obrazlari) talant, tush ko'rish, afsonalar, diniy qarashlar asosida yotadi. K.Yung kishilarning psixik yo'nalanganligi asosida ularni ikki guruhga bo'ladi: introvertlar va ekstrovertlar.

Introvertlar–xulq-atvor sabablarini o'zidan axtaradi. Ular ijtimoiy passiv, tortinchoq, o'z harakatlarini chuqur tahlil qilishga moyil boshqalarga ko'p qo'shilishga intilmaydilar. Ekstrovertlar tashqi olamga yo'nalgan. Ular impulsiv tashabbuskor, dilkash guruhga va jamoaga tez moslashuvchan.

K.Yung fikricha shaxs xususiyatlari Shaxsning ehtiyojlari va motivlariga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Uning fikricha tashqi muhit va Shaxsning ichki dunyosi orasidagi muvozanat buzilsa, Shaxs harakatlarida, xulq-atvorida zo'riqish paydo bo'ladi. K.Levin tomonidan Shaxsning guruhdagi o'rni, mavqei, liderlik hodisalari, nizolar o'rganilgan.

Shaxs haqidagi eng yangi nazariyalap. Psixologiyada yangi nazariyalarning salmog'i juda katta. Erik Bern (1902-1970) Shaxsni rivojlantirishning amaliy va nazariy asosi sifatida xizmat qilishga yo'naltirilgan «transakt tahlil» nazariyasini taklif qildi. Erik Fromm (1900-1980) gumanistik psixoanalizga asos soldi. Djordj Gerbert Mid (1863-1931) simvolik kommunikatsiyaning interaksionistik nazariyasini ishlab chiqdi. Karl Leongard «Shaxs aktsentuatsiyalari» nazariyasiga asos soldi.

Keyingi yillarda Aleksandr Kellining (1905-1966) «Shaxs konstruktleri» nazariyasi juda keng tarqaldi va qo'llanilmoqda. Bu nazariyaga asosan Shaxsning bilish jarayonlarining kechishi uning kelajakdagi hodisalarni qanday «ko'ra olishi» (oldindan modellashtirishi, tasavvur qilishi) bilan aniqlanadi. A.Kellining fikricha xar bir odam tadqiqotchi. U doimo o'zidagi «Shaxs konstruktleri», o'zining maxsus baholash shkalalari asosida reallikning obrazini tuzadi (hosil qiladi). agar tuzilgan obraz haqiqatdan farq qilsa, to'g'ri kelmasa mavjud konstruktler qayta quriladi. Barcha bilish jarayonlarining samaradorligi, muvaffaqiyatli konstruktler ko'rish kishining psixologik bilim darajasiga bog'liq.

9.3. Shaxs va uning faolligi.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning **faolligidir**. Faollik (lotincha «actus» - harakat, «activus» - faol so'zlaridan kelib chikkan tushuncha) Shaxsning hayotdagi barcha xatti harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyalardir. Bu- o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashiga aloqador sifatleri orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

1. Tashqi faollik- bu tashqaridan o'z ichki istak-xoxishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

2. Ichki faollik – bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga yetdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayrilik muddati, nochorlik tufayli ayrilik kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham Shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir aniq Shaxsga uning ehtiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bulib, Shaxsning jamiyat bilan buladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi

Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi xarakterlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, **faoliyat**- inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu-yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu-moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu-yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu-rekordlarni ko'paytirishga

qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

9.4. Faoliyat turlari, jismoniy va aqliy harakatlar.

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon buladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga – predmetga qaratilgani uchun xam, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashki olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yunaltirilganiga karab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat Shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat – birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jaraenlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ruy beradi, tajriba orttirib borilgan sari sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ishida o'zicha gapirishga o'rganib, uylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar quyadigan bo'lib boradi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi muvofiqlik nuqtai nazaridan ongi tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy-motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz?. Agar uylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir tuxtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan – misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar-Shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli – tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

pertseptiv-ya'ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

mnemik faoliyat – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga alokador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi;

fikrlash faoliyati - aql, faxm – farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboklarni yechishga qaratilgan faoliyat;

imajitiv – («image»-obraz suzidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida xozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ruy bergan bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada interiorizatsiya deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi eksteriorizatsiya deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga kura xam farqlanadi. Masalan, shunday bo'lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida xar bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yunalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga ugirilganda, malaka hosil bo'ladi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni ko'nikmalar deb ataymiz.

Inson faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi: Bu – muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir.

Muloqot- Shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nuqtsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

O'yin – shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetmaydi.

O'qish faoliyati ham Shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turlarni ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat qilish ham eng tabiiy extiyojlarga asoslangan faoliyat bulib, uning maqsadi, albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushurish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetgayunaltirishgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir Shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar- sabablar muhim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir

9.5. Ijtimoiy hulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.

Yuqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egalagan mavqei ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bema'ni. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs hulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv» va «motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi.

«Motivatsiya» tushunchasi «motiv» tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. **Motivatsiya** – inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?» degan savollarga javob qidirish- motivatsiyani qidirish demakdir. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokozolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi. Ular Shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, Shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi, «Nega?» degan savolga «O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman», deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan motiv – konkretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu hulq –atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shu ma'noda Shaxs hulqining motivatsiya turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga tayangan, ongli tahlillar hattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta'siri shakllanadigan sabablar kompleksini o'z ichiga oladi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda Shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda hulq motivlari namoyon bo'ladi. Misol uchun talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani ununmasligimiz lozimki, Shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va mohiyatdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar harakteriga bog'liq bo'ladi. Umuman shaxs ijtimoiy xulqi

motivi haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: harakat dasturi va maqsad. Harakat dasturi maqsadga erishish vositalariga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oqlashi kerak, aks holda dastur hech narsa bema'ni. Masalan, ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi Shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og'ir tarbiyaviy shartlarni qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, uncha-muncha tashqi ta'sirga berilmadigan bo'lib, qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan va maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi.

Motivlarning turlari. Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida **muvaffaqiyatga erishish motivi** bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Maklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekxausenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: **muvaffaqiyatga erishish motivi** hamda **muvaffaqiyatlardan qochish motivi**. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo'ljallanishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilar, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lida ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar – tanish-bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning iehnatga, odamlarga va o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi harakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtihon topshirish jarayonini o'laylik. Ba'zi talabalar imtihon oldidan juda qayg'uradilar. ham. Ular uchun imtihon topshirish juda kata tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg'am bo'lib, sira kuyimaydilar.

Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi. Motivlar, ya'ni hatti-harakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya'ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag'lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo'lavermaydi. Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari avvalgi ma'ruzada ta'kidlanganidek, ijtimoiy ustanovka (inglizcha «attitud») hodisasi orqali tushuntiriladi.

Demak, ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy ob'ektlar, hodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik

xolatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Masalan, Vatanimizning hammamiz sevamiz, bayrog'imiz muqaddas, nemis investorlarga ishonamiz, negrlarga rahmimiz keladi, tijorat ishlari bilan shugullanadiganlarning albatta puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va hokazo. Bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar qachon va qanday qilib ongimizda o'rnashib qolganligiga e'tibor bermasdan yuqorida sanab o'tgan hissiyotlarni boshdan kechiraveramiz. Mana shularning barcha ijtimoiy ustanovkalar bo'lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi, va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlar ro'yobga chiqadi. Demak, motiv-har qanday harakatlarimiz va faoliyatimizning sababi (undov), sharti bo'lsa, ustanovka – ana shu harakat yoki faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan insondagi ichki psixologik holatdir.

Amerikalik olim G. Ollport ijtimoiy ustanovkaning komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent – ustanovka ob'ektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent – ustanovka ob'ektiga nisbatan su'ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

V. Harakat komponenti – sub'ektning ob'ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar majmui (xulka namoyon bo'lish).

Bu uchala komponentlar o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo'lishi mumkin. Shuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib-intizom bilan juda yaxshi tanish bo'lsalarda, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. «Tasodifan dars qoldirish», «jamoatchilik joylarida tartibni buzish» kabi holatlar kognitiv va harakat-komponentlarida uyg'unlik yo'qligini ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi printsiptining turli Shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o'rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatib borishimiz kerak. Bu Shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'z – o'zini tekshirish savollari:

1. Shaxs tushunchasini izohlang.
2. Individuallik nima?
3. Ekstrovert va introvert iboralarini tushuntiring.
4. K.Yung psixologiyasining mazmuni nimadan iborat ?
5. Gumanistik psixologiya tushunchasiga ta'rif bering.
6. Faollik va faoliyat tushunchalarini izohlang.
7. Psixologiyada shaxslararo munosabatning o'rni nimada ? .
8. Shaxsning psixologik tuzilishini tushuntirib bering?
9. Ehtiyoj turlarini aytib bering.
10. Motiv va uning turlari aytib bering.
11. Harakatni avtomatlashtirish nima ?

10- Ma'ruza: Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va ularning adekvatligi

Reja:

10.1. Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Sezgi va uning turlari.

10.2. Idrok haqida tushuncha, uning qonuniyatlari

10.3. Diqqat. Diqqatning fiziologik asoslari va turlari

10.4. Diqqatning xususiyatlari, bo'linishi (taqsimlanishi) va ko'chishi

10.5. Xotira. Xotira jarayonlari va turlari.

Adabiyotlar: 13, 16, 32 34, 39, 40.

Tayanch iboralar: psixik jarayonlar, sezgi, idrok, idrokning xususiyatlari, diqqat, diqqatning yo'nalganligi, to'planishi, induksiya, ixtiyoriy, ixtiyorsiz diqqat, parishonxotirlik, xotira, esda saqlash, qayta esga tushirish, eslash;

10.1. Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Sezgi va uning turlari.

Shaxs va uning bilish jarayonlari deganda, uning psixikasiga oid bo'lgan psixik jarayonlar, ijtimoiy borliqni bilish omillari kiradi. Shaxsning bilish jarayonlariga sezgi, diqqat, idrok, xotira, tafakkur va xayol jarayonlari kiradi. Tashqi olamni bilish, undan kelayotgan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash sezgi jarayonidan boshlanadi.

Sezgi deb, organlarimizga ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalari miyamizda aks ettirilishiga aytiladi. Materiya bizning sezgi organlarimizga ta'sir qilib sezgi hosil qiladi. Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi va saralaydi. Sezgi a'zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo'lidir. Kishi tevarak atrofdagi olam haqida doimo axborot olib turishi kerak. Axborotlarning ko'pligi (ortiqchaligi) yoki tanqisligi (sensor izolyatsiya) organizmda jiddiy funktsional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Buni tekshirib ko'rish uchun maxsus surdokameralarda ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sinaluvchi to'la izolyatsiya holatida bir necha soatdan keyin vahimaga tushadilar, tajribaning to'xtalishini talab qila boshlaydilar. Ularda og'riq, haroratni sezish kabi sezgilar xam buzilishi kuzatiladi. Agar odam ko'proq vaqt izolyatsiyada saqlansa, unda uning ongi buzilishi, turli galyuyutsinatsiyalar kuzatildai. Sezgilar va ularning mohiyati haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Avalo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, materialistik psixologiya sezgilarni materiya ta'sirining natijasi deb qaraydilar. Sezgilarning haqiqiy mezoni esa amaliyot hisoblanadi.

Sub'ektiv idealistlar (Berkli, Yum, MAx) olamni sezgilarning yig'indisi sifatida talqin qiladilar. Boshqa bir nazariya tarafdorlari (I.Myuller, Gelmgolts) sezgi organlarining o'ziga xos quvvati haqida fikr yuritadilar. Ularning fikricha sezgilar faqat tashqi ta'sirlarning timsoli, shartli belgilari. Shu sababli ular qaysi sezgilar organiga ta'sir qilsa, shu analizatorga xos sezgi hosil bo'ladi. Bu nazariyaning to'g'riligini isbot qiluvchi ko'plab misollar bor – elektr toki, bosimning ta'sirida turli analizatorlarda turli sezgilar hosil bo'ladi.

Ammo hid, tovushlar boshqa sezgi organlariga ta'sir qilib, ularga xos sezgilar hosil qilmaydilar. Sezgi organlarining o'ziga xos tashqi olamning o'ziga xos

xususiyatlari natijasida shakllangan. Mana shunday maxsuslashgan sezgi organlarining majmui analizatorlarni tashkil qiladi.

Har qanday analizator uch qismdan iborat: 1) tashqi ta'sir kuchini ichki nerv quvvatiga (jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator-analizatorning pereferik qism; 2) analizatorning pereferik qismini markaziy qism bilan bog'laydigan o'tkazish yo'llari. Ular afferent (markazga intiluvchi, efferent (markazdan qochuvchi) va 3) markaziy, pereferiyadan keluvchi signallarni qabul qilib, qayta ishlovchi qism (miya qismi).

Sezgilarining turlari. Sezgilar ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining xarakteriga, qo'zg'alishni qabul qilish masofasi, retseptorlarinig joylashgan o'rinlariga ko'ra klassifikatsiya qilinadi. Retseptorlarning joylashgan o'rniga ko'ra sezgilarining quyidagi turlari mavjud:

1) tashqi olamdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan va tananing tashqi yuzasida retseptorlari bo'lgan sezgilar- ekstrotseptiv sezgilar;

2) tananing ichki a'zolari va to'qimalarida joylashgan va tananing ichki holatini aks ettiruvchi sezgilar- interotseptiv sezgilar;

3) retseptorlari paylarda va mushaklarda joylashgan propriotseptiv sezgilar. Ular gavdamizing holati va harakatlari haqida ma'lumotlar berib turadilar.

Ekstrotseptiv sezgilarining o'zlari ikki guruhga – kontrak (bevosita aloqa bog'lovchi) va distant sezgilarga ajratiladilar. Kontrakt sezgilarga (kontakt retseptorlar orqali sezgi hosil bo'ladi) quyidagilar kiradi: ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgisi, ta'm bilish sezgilari. Sezgilarning bu klassifikatsiyasi modallik bo'yicha klassifikatsiya deyiladi va ular sezgilarning klassik klassifikatsiyasi deb ham yuritiladi. Chunki ular Aristotel tomonidan ko'rsatib o'tilgan sezgilar. Ular orasidan teri sezgisining o'zi bir qancha turlarga bo'linadi (to'qish, harorat, og'riq kabi).

Sezgilarining umumiy qonuniyatlari. Boshqa tabiat va psixik hodisalar kabi sezgilar ham ma'lum umumiy xususiyatlar va qonuniyatlarga ega. Shu jumladan ularning sifati, intenzivligi (kuchi), davomiyligi sezgilarning umumiy xususiyatlariga kiradi.

Sifat–mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgilardan farqlaydi va shu sezgi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisida tovushning balandligi, mayinligi, zo'rliqi; ko'rish sezgisining boyligi, ranglari va h.k. Sezgilarning sifatlarining boyligi va rang-barangligi materiyaning rang-barangligini aks ettiradi. Sezgilarning intensivligi-ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarning kuchi va analizatorlarning funktsional holati bilan belgilanadi.

Davomiyligi- sezgining vaqt bilan bog'liq xususiyati. U ham qo'zg'atuvchining xususiyati va analizatorning funktsional holati bilan bog'liq. Qo'zg'atuvchi sezgi organiga ta'sir qilgandayoq sezgi hosil bo'lmaydi, balki biroz vaqt o'tadi. Turli sezgi organlarining javob berish tezligi, ya'ni latent vaqti turlicha: taktil sezgilar uchun u 130 millisekund, og'riq uchun 370 millisekund, ta'm bilish uchun 50 millisekundni tashkil qiladi.

Adaptatsiya. Analizatorlarning sezgirligi bir qator fiziologik, psixologik va muhitning ta'siri ostida o'zgaradi. Bu o'zgarishlar orasida adaptatsiya hodisasi

alohida o'ringa ega. Adaptatsiya yoki moslashuv deganda kuzatuvchining ta'siri ostida sezgi organlari sezgirligining o'zgarishi tushuniladi.

Adaptatsiyaning biologik ahamiyati shundaki, u kuchsiz qo'zg'atuvchilar salbiy ta'siridan sezgi organlarini himoya qiladi.

Sensibilizatsiya. Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi hodisasiga sensibilizatsiya deyiladi. Sezgilarning o'zaro ta'siri ostida ularning sezgirligining oshishi qo'zg'alishining kontsentratsiyasi va irradiatsiya jarayonlari bilan tushuntiriladi.

Sinestizatsiya. Qo'zg'atuvchining biron bir analiztorga ta'siri natijasida boshqa bir analiztorga xos sezgining paydo bo'lishi sinestizatsiya deyiladi. Bunga «rangni eshitish» hodisasini misol qilib olish mumkin.

10.2. Idrok haqida tushuncha, uning qonuniyatlari

Narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga bevosita ta'siri natijasida ularning miyamizda, ongimizda yaxlit aks etishiga **idrok** deb ataladi. Idrok narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qiladi. Lekin idrok narsa ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iborat emas. Idrok hissiy bilishning yangi, yuqori bosqichidir. Idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular: idrokning predmetligi, yaxlitligi, ma'lum tartibda tuzilishi, konstantligi (o'zgarmasligi), anglanganligi.

Idrokning predmetligi. Idrokning predmetligi ob'ektivlash ham deyiladi va tashqi olamdan olingan ma'lumotlarni shu olamning o'ziga qaratishida ifodalanadi. Tashqi olamdan kelayotgan ma'lumot, obraz (masalan, o'qilayotgan kitobning tasviri) bizning sezgi organlarimizda emas (ko'z ichida emas), balki bizning tanamizdan tashqarida, tashqi olamda deb idrok qilinadi. Bu xususiyatsiz odamning amaliy faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Idrokning predmetligi tug'ma hisoblanmaydi. Sezgi va idrokning farqini tushunish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz. B.G.Ananov tomonidan bemor kishida kurish analizatorining sezgirligi (sezgi) saqlanib qolgan holda idrokning buzilishi tasvirlangan. Davolanishning avval boshida u butun fazoni qandaydir uzluksiz yorug'lik oqimi sifatida sezgan. Keyinchalik (davolanish natijasida) shaklsiz ma'nosiz dog'larni ajrata olgan. U birorta ob'ektning predmet sifatida xususiyatini so'z bilan ham, chizish bilan ham tasvirlay olmagan. Uch oy davomidagi davolanishlardan keyingina bemor ko'zining idrok qilish xususiyati qayta tiklangan.

Idrokning yaxlitligi. Yuqorida ko'rsatganimizdek, idrok sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farqli ravishda, narsalarning yaxlit obrazidir. O'z-o'zidan ravshanki, bu yaxlit obraz turli modallikdagi sezgilar orqali olingan narsalarning ayrim xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

Idrokning ma'lum tarzda tuzilganligi. Idrok ko'p darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga to'g'ri kelmaydi va bunday sezgilarning oddiy yig'indisidan iborat emas. Biz shu sezgilardan abstraktlashgan, ma'lum vaqt davomida tarkib topadigan elementlarning munosabatining umumlashgan tuzilishini idrok qilamiz. Muzika eshitayotgan kishining uning tuzilishini, uning elementlarining o'zaro munosabatini idrok qiladi. Chunki muzika alohida notalardan iborat emas. Notalarning o'zaro munosabatigina muzikani tashkil qiladi.

Idrokning konstantligi (o'zgarmasligi). Idrok qilinayotgan tashqi olam, muhit doimo o'zgarishda, turli holatlarda, turli sharoitlarda namoyon bo'ladi. Idrok qilingan narsalar turli sharoitda (yuqorida, pastda, uzoqda...) va turli tomondan ta'sir etishiga qaramasdan bir xilda idrok etishimiz idrokning o'zgarmasligi (konstantligi) deyiladi. Masalan: turgan va uchayotgan samolyot. Yaqin va uzoqdagi uylar, simyog'ochlar. Idrokning bu xususiyati ko'rish idroki misolida tushuntiriladi. Narsaning uzoq-yaqinligiga qarab uning ko'z to'r pardasidagi tasviri ham katta yoki kichik bo'ladi. Biz uzoqdagi narsani kichik, yaqindagisini katta deb idrok qilamiz.

Idrok jarayonining konstantligining **pertseptiv tizimining faol harakatidir.** Masalan, oynaga qarab turib yozishga harakat qilinsa tez orada kishi avval qiynaladi, keyinroq esa qo'lini to'g'ri boshqarishga o'rganadi. Idrokning konstantligi tevarak atrofdagi olamning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

Idrokning anglanganligi. Odamning idroki tafakkur bilan, narsaning mohiyatini tushunish bilan mustahkam bog'liqdir. Narsani ongli idrok qilish – uni fikran atash degan ma'noni anglatadi. Biz idrok qilayotgan narsalarimiz haqidagi ma'lumotlarni o'zimizga tanish bo'lgan narsalarga o'xshashligini aniqlashga, biror sinfga kiritishga, ba'zi kategoriyalarga qo'shishga intilamiz.

Idrokning turlari. Idrok klassifikatsiyasining asosi, sezgilardagi kabi, idrok jarayonida ishtirok qiluvchi analizatorlarning har xilligidir. Idrok jarayonida qancha analizatorning yetakchilik qilishiga ko'ra ko'rish, eshitish, tuyush, kinestizik, hid bilish va ta'm bilish idroklari farqlanadi.

Idrokning sof holatdagi turlari ham uchraydi. Odatda ular birlashib ketgan. Bundan tashqari materiyaning yashash shakllariga ko'ra ham idrok turlari, **fazoni, vaqtni, harakatni** idrok qilish aniqlanadi.

10.3. Diqqat. Diqqatning fiziologik asoslari va turlari

Diqqat deb, – Ongimizni biz uchun ahamiyatli bo'lgan ob'ektga yunaltirishga va shu ob'ekt ustida tuplashga aytiladi. Diqqat har qanday faoliyatning asosi bo'ladi. **Diqqat** – ongimizning shunday bir eshigiki, ongimizga kelayotgan barcha axborotlar faqatgina shu eshik orqali kiradi. Diqqat barcha psixik jarayonlarning namoyon bo'lishi uchun muhim shartdir. Masalan o'quvchilar diqqat tufayligina o'qituvchini tinglay oladilar, uning tushuntirishlarini idrok qila oladilar.

Diqqat kishining holatiga (sog'lig'i, toliqqan-toliqmaganligiga, tuyib uxlagan-uxlamaganligiga), oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalariga, muayyan ishni bajarishga, tashqi sharoitga, diqqatning yaxshi o'tish-o'tmasligiga bog'liq bo'ladi.

Diqqat hamisha kishining yuz harakatlarida, ya'ni mimikasida, ko'z qarashlarida, qaddining holatida yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin diqqatning tashqi ifodasi diqqat jarayonining borishiga muvofiq bo'lishi ham, muvofiq bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, kishining biror narsaga tikilib, qimirlamay turishi uning diqqatining biror narsaga juda ham jalb bo'lganini ko'rsatadi, lekin bu jim, qimirlamay turish tashqi ifodaning o'zigagina xolos. Aslida esa u murakkab fikrlash faoliyatidir.

Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi bilan birga, uning tuplanishini ham taqozo qiladi. Diqqatni bir joyga to'plash deganda, mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi-ko'pmi chuqur e'tibor berish tushuniladi. Masalan, murakkab va zarur o'quv materialini o'qish va tushunish diqqatni to'plashsiz amalga oshmaydi.

Diqqatning fiziologik mexanizmlari ma'lum nerv markazlarining qo'zg'alishi va miyadagi boshqa nerv markazlarining tormozlanishi bilan bog'liq. Bu mexanizm sub'ekt (organizm) uchun ahamiyatli bo'lgan qo'zg'atuvchilarni ajratishni psixik faoliyatning yo'nalganligini ta'minalaydi. Har qanday yangi qo'zg'atuvchi (agar u yetarli darajada kuchli bo'lsa) bu refleksni, I.P.Pavlov aytganidek, «nima u» degan refleksni keltirib chiqaradi. Bu soddada turdagi diqqatning fiziologik asosidir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, orientatsiya refleksi paydo bo'lgan paytda xuddi uyqudan uyg'onib bedorlikka o'tishdagidek o'zgarish hosil bo'ladi. I.P.Pavlov tomonidan kashf qiligan nerv jarayonlarining induktsiyasi qonuni diqqatning fiziologik asoslarining tushunib olish uchun muhim ahamiyatga ega. Nerv jarayonlarining induktsiyasi qonuniga ko'ra bosh miya po'stining bir joyida maydonga kelgan qo'zg'alish jarayonlari bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonini yuzaga keltiradi. Va aksincha bosh miya po'stining bir joyida maydonga kelgan qo'zg'alish jarayonlari bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonini yuzaga keltiradi.

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan dominantlik printsipli ham diqqatning fiziologik asoslarini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Bu printsipga asosan, miyada qo'zg'alishining har doim ustun turadigan hukmron o'chog'i mavjud, bu hukmron qo'zg'alish o'chog'i ayni paytda miyaga ta'sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo'zg'alishlarni qandaydir ravishda o'ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo'zg'alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi. Bunday qo'zg'alish o'chog'ining paydo bo'lish asosi mazkur qo'zg'atuvchining quchigagina bog'liq bo'lmay, balki nerv sistemasining ichqi holatiga ham bog'liq bo'ladi. Bu hol psixologiy jihatdan biror qo'zg'atuvchilarga diqqatning qaratilishi va ayni chogda ta'sir qilib turgan boshqa qo'zg'atuvchilardan chalg'ishda ifodalanadi. Diqqatning yuzaga chiqish mexanizmlari juda murakkab va ularning ko'rinishi, turlari ham turlichadir.

Diqqatning quyidagi turlari mavjud: Ixtiyorsiz (oldindan o'ylab olinmagan), ixtiyoriy (oldindan o'ylab olingan), va ixtiyoriydan keyingi yoki muvofiqlashgan diqqat;

Ixtiyorsiz diqqat. Biz diqqatimizni qaratishni maqsad qilib qo'ymagan paytimizda psixik faoliyatning biror ob'ektga yo'naltirilishi va to'planishiga ixtiyorsiz diqqat deyiladi. Ko'pincha faoliyatning maroqliligi va qiziqarliligi va kutilmaganda favqulotdaligi diqqatni o'ziga tortadi, odamni o'ziga jalb qiladi.

Ixtiyoriy diqqat. Ko'zlangan maqsad va qabul qilingan qaror tufayli ma'lum bir ishni bajarish lozimligini bilar ekanmiz, bunday holda diqqatning yo'nalishi va to'planishi ixtiyoriy harakaterga ega bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy diqqatni biz diqqatimizni qaratish uchun o'z oldimizga ongli suratda maqsad qo'yamiz, qiyinchiliklarni yengib, diqqatni to'plash uchun ko'rashib, har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab diqqatning xarakterli xususiyati xuddi mana shu maqsad ko'zlashda, irodaviy zo'r berishda namoyon bo'ladi.

Muvofiqlashtirilgan ixtiyoriy diqqat. Ixtiyoriy diqqatdan tashqari, diqqatning yana bir turini qayd etib o'tish lozim. Bu diqqatning ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan turi bo'lib, lekin doimiy irodaviy zo'r berishni talab qilmaydi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy bo'ladi. Kishi biror faoliyatni bajarishga o'zini majbur qiladi,

keyinchalik ishga kirishib, qiziqib ketadi va uning diqqati ixtiyoriy diqqatga aylanadi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy edi, keyin esa ixtiyorsizga aylandi. Shu sababli diqqatning bu turi ixtiyoriydan keyingi ixtiyorsiz diqqat ham deb yuritiladi.

10.4. Diqqatning xususiyatlari, bo'linishi (taqsimlanishi) va ko'chishi.

Diqqat ko'p tomonli jarayondir. **Diqqatning** quyidagi xususiyatlari mavjud: kuchi, barqarorligi, ko'chishi, hajmi va bo'linishi;

Diqqatning muhim xususiyatlaridan biri, uning ko'chishidir.

Diqqatning bir ob'ektdan ikkinchi ob'ektga o'tishi **diqqatning ko'chishi** deyiladi. Masalan, notiqqa qarash va uni eshitish vaqtida eshikdan biror kishining qarashi, yoki derazaga qattiq urilgan narsa tovushidan diqqatimiz o'sha ob'ektga o'tadi, qaratiladi. Uning asosiy xususiyatlaridan yana biri diqqatning barqarorligi va tebranishiga to'xtalib o'tamiz.

Diqqatning davomiyligi va uning tebranishi nimalarga bog'liq. Ayrim tadqiqotchilar diqqatning davomiyligini sof biologik ritm (tebranish)lar bilan bog'lashga intilganlar. Diqqatning tebranishi odatda bilinar-bilinmas qo'zg'atuvchilar orqali o'rganiladi. Masalan, soatning chiqillashiga quloq solsak, ovoz kuchayadi, ba'zan kuchsiz eshitiladi. Bu tebranishlar bir qadar barqaror harakaterga ega. Ularning davomiyligi 1,5 sekunddan 2,5 sekundgacha yetadi. Bu tebranishning mexanizmi diqqatning tebranishi bilan emas, balki sezgi a'zoalrining vaqti-vaqti bilan toliqishi va ularning o'zidagi biologik tebranish bilan bog'liqdir. Boshqa tomondan esa diqqatning tebranishi, yetarli darajada barqaror bo'lmasligi diqqatning ob'ekti bilan ham bog'liq. Masalan, diqqatni biror harakatsiz narsa ustida uzoq vaqt to'xtatib turib bo'lmaydi.

Diqqatning o'zgaruvchanligi va tebranish ikkilanma (masalan, kesik piramida tasviri) tasvirlarda yaxshi ko'rinadi agar diqqatimiz biror o'zgaruvchan faoliyatga yo'naltirilgan bo'lsa, masalan koptok o'yinini tomosha qilayotgan bo'lsak, diqqatni barqaror emas deya olamizmi? Yo'q bu holda diqqatimiz dinamik harakatga ega bo'lgan bir ob'ektga nisbatan barqaror yo'naltirilgan. Garchi diqqat biror ob'ekt ustida uzoq vaqt davomida to'xtab tura olmasa xam, lekin diqqat uzoq vaqt bitta faoliyatning o'zida to'planib turishi mumkin.

Diqqatning barqarorligi uchun bajarilayotgan faoliyatning aktivligi nixoyatda katta ahamiyatga ega. Diqqatning barqarorligi – uning biror obekt ustida uzoq vaqt davomida to'planib turishini ko'rsatuvchi xususiyatdir.

Diqqatning bo'linishi (taqsimlanishi). Diqqatning bo'linishi – psixik faoliyatning shunday tashqil qilinishiki, bunda ayni bir vaqtning o'zida ikkita va undan ham ko'p ish-harakat bajariladi. Diqqatning bo'linishiga misol: bir vaqtning o'zida arifmetik hisoblarni bajarish va biror qo'l mehnati turini bajarish. O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diqqatning taqsimlanishining samaradorligi bir qancha omillarga bog'liq ekan. Shular orasidan eng katta rol o'ynaydiganlari: kishining diqqatining individual xususiyatlari (diqqatning rivojlanganligi) bajarilayotgan ishlardan birortasining avtomatlashganlik darajasi. Diqqatning chalg'ishi-diqqatning ongli ravishda ko'chishiga butunlay o'xshamaydi. Shu sababli ularni adashtirib yuborib bo'lmaydi. Diqqatning osonlik bilan chalg'ishi, uning yetarli darajada barqaror emasligidan darak beradi. Albatta kuchli, kutilmagan, umuman ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaradigan sabablar diqqatning chalg'ishiga

olib keladi. **Parishonxotirlik.** Parishonxotirlik diqqatning salbiy tomonlaridan biridir. Parishonxotirlik ikki turi farqlanadi. Birinchisi, biror ishga (fikrga, uyga) nihoyatda berilib ketish natijasida kishining atrofdagi narsalarga, voqealarga va kishilarga e'tibor bermasligi.

Parishonxotirlikning tomoman boshqa holati- kishining biror narsa ustida diqqatni doim o'tib ketaverishidir. Katta kishilarda bunday parishonxotirlik toliqqan paytlarda uchraydi. Bolalarda esa diqqatning to'g'ri rivojlanmaganligi oqibatida bu xususiyat shakllanishi mumkin. Bundan tashqari parishonxotirlikning bunday turi ruhiy kasallik holatlarida ham uchrashi mumkin.

10.5. Xotira. Xotira jarayonlari va turlari.

Biz idrok qilgan narsalarni, anglagan voqea –hodisalarni unutib yubormaymiz. Ularning izi miyamizda saqlanib qoladi. Agar insonda xotira bo'lmaganda edi, u mangu chaqaloqligicha qolar edi.

Xotira deb – tajriba va bilimlarimizni, voqea –hodisalarni esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirish (eslash) jarayonlariga aytiladi. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar farqlanadi: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish. Bu jarayonlar bir-biridan ajralgan holda yuzaga chiqmaydi. Xotiraning yuzaga chiqishi, rivojlanishi kishining faoliyati bilan bog'liq. To'plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi.

Xotira mexanizmlari. Hozirgi kunda xotira mexanizmlari haqida ko'plab nazariyalar mavjud. Ularning barchasini bir necha guruxlarga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruh nazariyalar - psixologik nazariyalar, ikkinchisi-neyrofizilogik nazariyalar. Ularga keyingi yillarda yangi nazariyalar, uchinchi yo'nalish – bioximik yo'nalishdagi nazariyalar qo'shilmoqda.

Barcha nazariyalar orasida eng oldin paydo bo'lib rivojlangan nazariyalarga psixologik nazariyalar kiradi. Bu nazariyalar xotira jarayonlarini tarkib toptirishda sub'ektning faolligiga qanday o'rin berilganligiga, sub'ekt faolligining o'ziga qanday qaralganligiga bog'liq ravishda klassifikatsiya qilinadi. Shunday oqimlardan biriga assotsiativ nazariya kiradi.

Assotsiativ nazariyaning asosiy tushunchasi assotsiatsiya tushunchasidir. Assotsiatsiya – aloqa bog'lanish degan ma'noni bildiradi va xamma psixik hodisalarni tushuntiruvchi universal mexanizm sifatida karaladi. Ularning fikricha, agar ma'lum psixik hodisalar inson ongida ayni bir vaqtning o'zida bir-biridan ketma-ket hosil bo'lgan bo'lsa, ular o'rtasida biron-bir elementi qayta ta'sir qilsa yoki qayta namoyon bo'lsa, ongimizda assotsiativ aloqaning barcha elementlarini qayta tiklashga olib keladi.

Geshtaltizm (nemischa «gestalt» - obraz degan ma'noni anglatadi) – psixologik nazariya. Bu nazariyaning asosiy tushunchasi – geshtalt tushunchasidir. Geshtalt tushunchasi yaxlit, bir butun tashqilotni (bir butun organizmi) tarkibiy qismlarga bo'lib bo'lmaydigan tuzilishini anglatadi. Bu nazariyaga ko'ra aloqalar (bog'lanishlar) hosil qilishning asosi sifatida materiallarning tashqil qilinganligi e'tirof qilinadi. Materialning ma'lum tashqiliy tartibi esda olib qolishda katta rol uynaydi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida barcha psixik jarayonlarni, shu jumladan xotira jarayonlarini ham tarkib toptirishga sababchi bo'lgan asosiy faktor Shaxs

faoliyatidir, deb qarovchi nazariyalarp tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Bu nazariyaga asosan materialni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish jarayonlari sub'ekt faoliyatida ana shu materialni qanday o'rinda turishi bilan belgilanadi.

Xotira turlari. Xotira inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari ham nihoyat darajada har xildir. Xotiraning har xil turlari uch xil mezon asosida turlarga bo'linadi (birlashtiriladi).

1. Ko'proq faoliyatda ko'rinadigan psixik aktivlik harakateriga ko'ra xotiraning harakat, emotsional (hissiy), obrazli va so'z-mantiqiy turlari farqlanadi.

2. Faoliyat maqsadi xarakteriga ko'ra xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bo'linadi.

3. Materialni qancha esda olib qolish va esda saqlash muddatiga qarab qisqa muddatli, uzoq muddatli, oparetiv xotira turlariga bo'linadi.

Harakat, emotsional (hissiy), obrazli va suz-mantikiy turlari.

Inson faoliyatining har xil turlarida psixik faollikning turlicha ko'rinishlari ustun turishi mumkin. Shunga ko'ra xotiraning ham ma'lum bir turi xizmat qiladi. Bular harakat, emotsional (hissiy), obrazli va so'z-mantiqiy xotiralardir.

Harakat xotirasi – turli xil harakatlarni va ularning tizimlarini esga olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat. Ko'pchilik yuu xotira turining mavjudligini payqamaydi. Xolbuki xotiraning bu turi har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashqil qiladi.

Emotsional (hissiy) xotira- tuyg'u hissiyotga xos xotiradir. Emotsional (hissiy) xotira biz boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlab qolgan hissiyotlar harakatga undovchi yoki o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlab qoluvchi signal sifatida namoyon bo'ladi. O'zga kishiga hamdard bo'lish qobiliyati, kitob qahramoni bilan birga kayg'urish hissiy xotiraga asoslanadi.

Obrazli xotira–tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, xidlar, ta'mlar bilan bog'liq xotiradir. Xotiraning bu turi **ko'rish, eshitish, tuyish, xid bilish va ta'm** xotiralaridan iborat bo'ladi.

Xotiraning bu turlari turli odamlada turlicha rivojlangan bo'lib, ko'pchilikda ko'rish va eshitish yetakchi rol o'ynaydi. Ammo ba'zi kasblarda va ba'zi ko'rish va eshitish qobiliyatini yo'qotgan kishilarda yaxshi rivojlangan bo'ladi.

So'z-mantiqiy xotiraning mazmunini bizning fikrimiz tashqil qiladi. So'zlar bo'lmasa fikr ham bo'la olmaydi. Shuning uchun fikrlarimizga xos xotira shunchaki mantiqiy xotira emas, balki so'z-mantiq xotirasi deb ataladi. Bu xotira turi insongagina xos xotira turidir. Xotiraning bu turi ijtimoiy tajribani o'rganishda, uni keyingi avlodga yetkazishda-bilimlarni o'zlashtirishda, tarbiya jarayonida hal qiluvchi o'ringa ega.

Faoliyat maqsadiga ko'ra xotiraning **ixtiyorsiz va ixtiyoriy** turlari farqlanadi. Muayyan maqsadsiz biron-bir narsani esda olib qolish va eslash ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz ravishda qayta esga tushirish ixtiyorsiz xotira deyiladi. Biz o'z oldimizga biron maqsad qo'yib esda olib qolganimizda ixtiyoriy xotira haqida gap boradi. Ixtiyoriy ravishda esda olib qolish va esga tushirish jarayonlarida maxsus mnemik («mneme» lotincha so'z bo'lib xotira degan ma'noni bildiradi) harakatlar tarzida amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira. operativ xotira.

Operativ xotira tushunchasi inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan aktual harakatlar, operatsiyalar uchun xizmat qiluvchi mnemik jarayonlarni bildiradi. Masalan, arifmetik amalni bajarayotganda biz oraliq natijalarni «yodimizda» saqlab turamiz. Ishlatilgan, ishlangan materiallar esa esdan chiqarib yuborilaveradi. Ish tugatilgach ko'pincha barcha informatsiyalar esdan chiqarilmaydi, bu xotirani «ishchi» xotira ham deb yuritiladi. Xotira jarayonlari. Xotira turlaridan tashqari ularning jarayonlari ham harakaterlanadi. Bular esda olib qolish (mustahkamlash), esga tushirish (aktuallashtirish, qayta tiklash), esda saqlash, tanish va unitish jarayonlaridir.

Esda olib qolish natijasida yangi materialni oldin o'zlashtirilganlari bilan bog'lash orqali mustahkamlanadi. Esda olib qolish individ tajribasini yangi bilimlar bilan boyitishning zaruriy shartidir. **Qayta esga tushirish** – ilgari esda olib qolingani materialni aktuallashtirish. Qayta esga tushirishning **tanish, qayta esga tushirish va xotirlash** каби turlari farqlanadi.

Tanish – qandaydir ob'ektni qayta idrok qilish sharoitida uni qayta esga tushirish.

Qayta esga tushirish tanishdan shunisi bilan farq qiladiki, u qayta esga tushirilayotgan ob'ektni qayta idrok kilmay turib amalga oshiriladi. **Xotirlash**- o'tmishdagi obrazlarimizni zamon va makonda lokallashtirilgan holda qayta esga tushirishdan iborat.

Unutish – esda olib qolingani materialni vaqtinchalik yoki butunlay qayta tiklay olmaslik. Unutish qisman sodir bo'ladi.

Unutish turlari: butunlay unutish, qisman unutish, vaqtinchalik unutish.

Xotiraning ustunlik qiluvchi tiplariga ko'ra individual farqlar mavjud. Ko'rgazmali obrazli, so'z-abstrakt va oraliq tipdagi xotira tiplari farqlanadi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Shaxsning bilish jarayonlariga nimalar kiradi?
2. Diqqat deganda nimani tushunasiz ?
3. Diqqatning yo'nalganligi va to'planishi nima ?
4. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat turlarini tushuntiring.
5. Sezgi qanday jarayon ?
6. Sezgilarning turlarini aytib bering.
7. Diqqatning xususiyatlarini tushuntiring.
8. Diqqatning ko'chishini tushuntiring.
9. Parishonxotirlik nima ?
10. Xotira nima? Xotiraning qanday asosiy jarayonlari farqlanadi ?
11. Xotiraning qanday turlarini bilasiz ?

11-Ma'ruza: Muloqot

Reja:

11.1. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.

11.2. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Til va nutq faoliyati.

11.3. Muloqot jarayoni, uning maqsadi, vazifalari va turlari

11.4. Nutq faoliyati haqida tushuncha. Nutq faoliyatining turlari.

Adabiyotlar: 4, 13, 17, 24, 34, 39.

Tayanch iboralar: insoniy muloqot, muomala, verbal va verbal bo'lmagan muomala, nutq, til, monolog, diolog, ichki nutq, yozma nutq, muomala madaniyati, tinglash mahorati;

11.1. Muloqot. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.

Muloqot - odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuningdek, muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, insonlar o'rtasida o'zaro axborot almashish, idrok qilish, tushnib olish va baholash jarayoni hisoblanadi. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, muomla va madaniyatlari bilan uzviy bog'liq.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi - uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu Shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta'sir jarayonlariki, unda Shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy, samimiy va bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u Shaxs bo'la olmaydi.

Muomala deb – birgalikda faoliyat qilayotgan kishilar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning rivojlanish jarayoniga aytamiz. Shaxslararo muomalaning 3 ta tomonini ajratib ko'rsatamiz:

1. Kommunikatsiya (Axborot ayirboshlash). bunda kishilar bir-biridan nimanidir so'raydi, nimanidir aytadi va tushuntiradi. Bu jarayonda tomonlar bir tildan foydalanishi zarur.

2. Intraktiv. Bunda odamlar hatti-harakat yordamida muomalani amalga oshiradi.

3. Pertseptiv. Muomalada bo'layotgan kishilar bir-birlarini to'g'ri idrok qilishlari, tushunishlari va hurmat qilishlari shart, shundagina ijobiy muomala amalga oshadi.

Har qanday muloqotning eng elementar funktsiyasi –suhbatdoshlarning o‘zaro bir-birini tushunishlarini ta’minlashdir. Bu o‘zbeklarda samimiy salom-alik, suhbatdoshni ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo‘li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o‘zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo‘lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil qiladi.

11.2. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Til va nutq faoliyati.

Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlangan maqsadlaridan biri – o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o‘zgartishi va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta’sir – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti – harakatlariga ta’sir ko‘rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta’sirning (muomalaning) asosan uch vositasi (turi) farqlanadi:

1. Verbal ta’sir – bu so‘z va nutqimiz orqali ko‘rsatadigan ta’sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so‘zlardir. Ma’lumki, nutq – bu so‘zlashuv, o‘zaro muomala jarayoni bo‘lib, uning vositasi – so‘zlar hisoblanadi.

2. Paralingvistik ta’sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omildir. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to‘xtashlar, duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

3. Noverbal ta’sir (verbal bo‘lmagan muomala) ning ma’nosi «nutqsiz»dir. Bunda biz albatta ichki nutqdan foydalanamiz. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonida yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.

Tilning o‘zi nima? Umumiy qilib ta’rif berganda, **til belgilar tizimidan** iboratdir.

Belgi – voqelikning istagan elementlarini qandaydir aks ettirish, uni shartli ravishda belgilashdir. Masalan, avtomobil haydayotib, yo‘limizda uchraydigan ko‘cha harakati belgilariga bog‘liq holda o‘zimizni har xil tutamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, belgi ma’lum jihatdan qurolga o‘xshaydi. Faqat qurol bizning amaliy faoliyatimizga vositachilik qiladi, belgi esa bizning nazariy va intellektual faoliyatimiz, yuksak psixik funktsiyalarimiz (idrok, tafakkur va h.k.) vositasidir. So‘zning belgi sifatidagi asosiy xususiyati uning mazmuni, ma’nosidir. «Stul» so‘zining ma’nosi shu predmetning barcha ijtimoiy muhim belgilarini, xususiyatlarini (turkumi, vazifasi kabi) o‘zida aks ettiradi.

Shaxslararo muomalada so‘zlar – til asosiy vosita hisoblanadi. Bizning fikrlarimiz so‘zdagina o‘zining qobig‘iga ega bo‘ladi. Tilning eng muhim

funktsiyalaridan biri - til ijtimoiy tarixiy tajribani berish va uzlashtirish vositasidir. Har bir kishining hatti-harakati va faoliyati kishilikning ijtimoiy tarixiy tajribasiga bog'liq holda rivojlanadi. Kichkina bola dunyoni mustaqil suratda bilib olmaydi. U bilimlarning bir qismini ota-onasidan so'rab, savollar berib o'zlashtiradi. Boshqa bir qismini o'zaro munosabatlarda, asosan, til yordamida o'zlashtiradi. Yana bir qism bilimlarni maktabda, pedagoglardan o'rganadi (til yordamida). Bilimlarning anchagina qismini kitoblardan o'qib o'rganadi (yana til yordamida). Bu tilning **kommunikatsiya** funktsiyasidir.

Tilning ikkinchi vazifasi (funktsiyasi) – til **interaktsiya** vositasidir. Ma'lumki, kishining hatti-harakati va faoliyati, ko'pincha, ijtimoiy qimmatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari bilan ham belgilanadi.

Tilning uchinchi vazifasi–kishining o'z tajribasi va ijtimoiy tajriba asosida o'z hatti-harakatlarini boshqarish bilan bog'liq. Odam biror muammoli vaziyatlarda o'z tajribasigagina asoslanib qolmay, boshqa kishilarning tajribalariga, umuman jamiyat tajribasidan ham foydalanadi. Ana shunday vazifalarni o'z oldiga qo'yish va hal qilish jarayoni **intellektual akt (harakat) deb ataladi**. intellektual harakat uch bosqichdan iborat bo'ladi: faoliyatni *rejalashtirish*, uni *amalga oshirish*, maqsad bilan *solishtirib* ko'rish. Odamning individual harakatlari, asosan mana shunday intellektual aktlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu borada avvalbor odamlarning rejalashtira olish qobiliyati yuzaga chiqmoqda. Bunday rejalashtirish va umuman fikriy masalalarni hal qilish kishining asosiy quroli tildir.

11.3. Muloqot jarayoni, uning maqsadi, vazifalari va turlari

Ma'lumki hayvonlar olamidagi aks ettirish shakllari, ularning «tillari» ijtimoiy tajribani uzatish va bu tajribani keyingi avlod tomonidan o'zlashtirish imkonini bermaydi. Shaxsning rivojlanishi, uning ongining shakllanishi, uning individual tajribasi umuminsoniy tajriba bilan uzviy bog'liq. Kishilarda tilning mavjudligi tufayli ular ijtimoiy tajribani uzatadilar va o'zlashtiradilar.

Muloqot jarayoni quyidagilardan iborat:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni.

Insonlar muomala munosabatlar tizimida muloqotning quyidagi maqsadlari mavjud

- Faktlarni va shaxsning bu faktlarga bo'lgan munosabatini aniqlash.
- tarbiyaviy maqsad, ya'ni muloqot tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lishi kerak.

- Ziddiyatli holatlarda muloqot o'rnatish, bunda ikkala tomonning qiziqishlari bir joydan chiqmasligi natijasida muloqot shakli yuzaki, rasmiy bo'lib qolishining oldini olish.

Muloqotning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1.Suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlash;
- 2.Ijtimoiy tajribaga asos solish (mauglilar);
- 3.Odamni u yoki bu faoliyatga hozirlash, ruhlantirish.

Muloqot bosqichlari:

1. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti;
2. Boshqalar bilan muloqot;
3. Avlodlar o'rtasidagi muloqot.

Muloqot turlari va ko'rinishlari

1. Rasmiy;
2. Norasmiy;
3. Shaxsiy;
4. Ijtimoiy yo'naltirilgan;
5. Kishiga yoki predmetga yo'naltirilgan, bevosita «yuzma - yuz» bo'lishi;
6. U yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali;
7. Professional faoliyatda amaliy yoki do'stona muloqot;
8. sub'ekt - sub'ekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub'ekt - ob'ektli (monologik) bo'lishi mumkin.

Shaxsning psixik jarayonlari kayfiyati, hohishi, mimika, imo-ishoralari muloqot jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, ular berayotgan axborotga qarab muloqot yurituvchini voqea-holatga nisbatan haqqoniy yoki yasama munosabatini aniqlash mumkin. Ularni ko'ra bilish, baholay olish muhimdir. Buning uchun nima qilish mumkin?

Buning uchun **birinchidan**, muloqotga kirishish oldi tayyorgarligidan o'tish, suhbatdoshning dunyoqrashi, temperament xususiyatlari, aqliy faoliyati, muloqotning qay turiga layoqati, ayni shu paytdagi kayfiyati, qaysi usulda muloqot samaradorligini oshirish mumkinligini baholay olish qobiliyati alohida ahamiyatga ega vosita hisoblanadi.

Ikkinchidan, suhbatdoshning fikrini sizni qiziqtirayotgan masalaga yo'llash yoki yo'naltirish usullarini qo'llash, ulardan unumli foydalanish. Muloqotga qiziqish uyg'ota olish.

11.4. Nutq faoliyati haqida tushuncha. Nutq faoliyatining turlari. Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirishda tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq faoliyatining yo'nalishi har xil bo'lishi mumkin:

- yangi informatsiya berish;
- aqliy masalani yechish.

Til aloqa vositasi yoki quroli, nutq faoliyati esa aloqa jarayonining o'zidir. Psixologiya nutqni o'rganar ekan, har turli sharoitlarda, har xil muammoli vaziyatlarda tildan foydalanish xususiyatlarini aniqlaydi, inson hatti-harakatini rivojlantirishda tilning rolini o'rganadi, bolalarda aloqa (kommunikatsiya) jarayonining tarkib topish yo'llarini va shu kabilarni tahlil qiladi. Nutqning quyidagi umumiy turlarini ajratib ko'rsatamiz:

1. Ichki nutq. 2. Tashqi nutq.

Tashqi nutq o'z navbatida ikkiga bo'linadi: Yozma va og'zaki nutq. Yozma nutq turli zamon va makonda yashagan kishilar o'rtasidagi muomalani amalga oshiradi. Yozma nutqda biz turli belgilar (harflar) dan foydalanamiz. Og'zaki nutq o'z

navbatida 2 ga bo'linadi, ya'ni monolog va dialog. Shuningdek, yana mukammalroq darajada nutq faoliyatini turli belgilar asosida klassifikatsiya qilish mumkin:

Nutqning psixofiziologik mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan murakkablik darajasiga ko'ra:

- **xoroviy nutq;** - **exologik (oddiy takrorlash) nutqi**
- **atash nutqi;** - **kommunikativ nutq.**

Nutq faoliyatida rejalashtirishning (programmalashtirishning) roli bo'yicha:

- **faol nutq;** - **reaktiv nutq.**

Nutqning ixtiyoriyligi bo'yicha:

- **ixtiyoriy;** - **beixtiyor (impulsiv) nutq.**

Nutqning etreriorizatsiyalashgan yoki interiorizatsiyalashganligiga ko'ra:

- **tashqi nutq;** - **ichki nutq.**

Yuqorida ko'rsatilganlardan bir nechtasiga to'xtalib o'tamiz.

Ixtiyoriy va ma'lum darajada faol nutq ko'p xollarda **monologik reaktiv nutq esa dialogik** nutq deb ataladi.

Monologik nutq. Monologik nutq ma'lum darajada nutqning batafsil turi hisoblanadi. Chunki monologik nutqda biz barcha ma'lumotlarni iloji boricha to'liq berishga, notanish vaziyat va holatlarni tinglovchi tushunishi uchun batafsil tasvirlab berishga majburmiz.

Monologik nutq – nutqning faol, ixtiyoriy turlaridan biridir. monologik nutqni amalga oshirish uchun gapirayotgan odam qandaydir nutq mazmuniga ega bo'lishi, shu mazmun asosda o'z nutqiy mulohazasini izchil ko'ra bilishi lozim. Monologik nutq qiyin, murakkab bo'lganligi sababli uni maxsus ravishda tarbiyalash, shakllantirish talab qilinadi. Masalan kichik bola yoki o'rganmagan kishiga o'z fikrini batafsil, monolog sifatida bayon qilish qanchalik qiyinligini barchamiz bilamiz. Shu sababli maktablarda, boshqa tipdagi o'quv yurtlarida monologik nutqni o'stirishga alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa o'qituvchi uchun «tili tumtoq» bo'lishdan yomonroq, pedagogikaga zidroq narsa yo'q. Nutqning bu turini rivojlanitirish uchun turli bahslar, ma'ruzalar bilan chiqishlar, treninglar o'tkazish lozim.

Dialogik nutq. Nutqning bu turi vaziyatga qarab yuzaga chiqadi va kontekstual (shu vaziyatdan, oldingi aytilgan fikrning mazmuni va shakllaridan kelib chiqiladi) xarakterga egadir. Dialogik nutqning xarakteristikasi monologik nutqning xarakteristikasiga qarama-qarshi.

Birinchidan, dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim so'zlar tushirib qoldiriladi. Shu sababli yozib olingan dialogik nutq o'zgalar uchun ko'pincha tushunarsiz bo'ladi.

Dialogik nutq ko'pincha biror fikrga, luqmaga, hatto nutq bilan bog'liq bo'lmagan stimullarga javob tariqasida (qo'lini eshik qisib olgan kishi «Oh!» deydi) yuzaga keladi. Dialogik nutq nihoyat darajada **oz tartibli**dir. Dialogik nutq davomida luqma tanlash odatda programmaga ega bo'lmasa kerak. Agar dialogik nutq jarayonida rejalashtirishga to'g'ri kelsa ham bu oddiy rejalashtirish bo'ladi. Chunki, biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, dialogik nutq kontekstga bog'liq ravishda boshqariladi. Ko'p hollarda u go'yoki o'z-o'zidan «oqib» kelaveradi. Dialogik nutqda

qo'llaniverib odat bo'lib qolgan so'zlar va so'z birikmalari («rahmat», «yaxshi», «marhamat») juda ko'p qo'llaniladi.

Ichki nutq. Ichki nutq nutq faoliyatining alohida xili hisoblanadi. Ko'pincha ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasida vosita sifatida namoyon bo'ladi. Agar biz biron-bir qiyin masalani yechayotgan bo'lsak uni o'z-o'zimiz bilan maslahat (muhokama) qilib olamiz. Tabiiyki ichki nutq chala-yarim, uzuq-yuluq-ya'ni fragmentar xarakterga ega bo'ladi. Sababi biz o'z fikrimizni nima haqida o'ylab nima haqida «gapirayotganimizni» o'zimiz juda yaxshi tushunamiz.

Ikkinchi tomondan, biron vaziyatni idrok qilish paytida anglashilmovchilik bo'lmaydi. Haddan tashqari sharoitga bog'liqdir. Ichki nutqni artikulyatsiya a'zolarining harakatlarini (lablar, tilning harakatlari) qayd qilish yo'li bilan tekshirish mumkin. Ammo bu holda ichki nutqning mantiqiy jihatdan oxirigacha olib borilmaydigan, real ovoz chiqarishgacha yetkazilmaydigan talaffuz qilish harakatlarigina o'rganiladi.

Yozma nutq. Yozma nutq monologik nutqqa juda yaqin turadi. Shu sababli ba'zi qo'llanmalarda uni monologik nutqning turi ham deb ko'rsatishadi. Monologik nutqning barcha xususiyatlari yozma nutqqa ham xosdir. Yozma nutq og'zaki monologik nutqqa nisbatan birmuncha batafsilroqdir. Bizdan suhbatdoshimiz biror narsani so'ray olmaydi. Shu sababli hamma narsani batafsil, oldindan tushuntirishga, izhor qilishga harakat qilamiz. Bu jihatdan yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan nihoyatda murakkab. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Insoniy muomala deganda nimani tushunasiz?
2. Muloqotning vazifalari nimalardan iborat?
3. Nutq va muloqotga ta'rif bering.
4. Verbal va verbal bo'lmagan (muomala) ta'sirning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
5. Tilning vazifalarini sanab o'ting.
6. Intellektual akt deb nimaga aytiladi ?
7. Nutq faoliyatini tushuntiring.
8. Nutq faoliyatining turlarini aytib bering.
9. Dialogik nutq deb nimaga aytiladi ?
10. Monologik nutq deb nimaga aytiladi ?
11. Ichki nutq deganda nimani tushunasiz ?

12 - Ma'ruza. Boshqaruv psixologiyasi

Reja:

- 12.1. Boshqaruv psixologiyasining ijtimoiy psixologik jihatlari.**
- 12.2. Ta'lim-tarbiya tizimiga rahbarlik va pedagogik boshqaruv qobiliyati.**
- 12.3. Kadrlar mas'uliyati va bugungi kunda rahbar kadrlar oldiga qo'yilayotgan talab va vazifalar.**
- 12.4. Boshqaruv mahorati – ilm, san'at va texnologiya sifatida.**
- 12.5. Boshqaruvda rahbar strategiyasi, taktikasi va mahorati tushunchasi, ularning o'zaro uyg'unligi ta'minlash.**

Adabiyotlar. 7, 10, 16, 19, 21, 22.

Tayanch tushunchalar: Ta'lim tizimiga rahbarlik, boshqarish mahorati, boshqaruv prinsiplari, boshqaruv qobiliyati, rahbarlik faoliyati, pedagogik boshqaruv, mas'uliyat, rahbar strategiyasi, taktika.

12.1. Boshqaruv psixologiyasining ijtimoiy psixologik jihatlari

Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiborining ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda psixologiyaning maxsus bo'limi boshqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmogiki, u boshqaruv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashqil etish va birgalikdagi faoliyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi.

Ma'lumki, boshqarish deganda mavjud vosita va imkoniyatlardan foydalanib ko'zlangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishish jarayoni tushuniladi va shuning bilan birga har bir insonni o'z ko'zlagan maqsadiga erishishning tez va qulay varianti qiziqtiradi. Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix, iqtisod, huquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishning ham ob'ekti, ham sub'ektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqaruv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning sub'ekti o'rganilganda esa odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi.

Psixologiya ko'prok boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda buysunuvchilar ishlarini samarali tashqil etish, aniq va to'g'ri karorlar chiqarish uchun qanday psixologik holat va jarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni yechadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshlik majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chikuvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va xoka'zolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, kabo'l qilingan karorlarga ko'ra boshlikning va buysunuvchilarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslaxatlar beriladi.

Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning extieji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, kaysi individual

xususiyatlariga ko'ra u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning kay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil: kimdir unga berilajak huquqlarni afzal ko'radi, kimgadir yo'qsak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qo'l keladi. Shaxslarning boshlik funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma xil bo'lmasin, boshlikdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obruga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z buyniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi.

Ayniqsa, boshlik uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshlik uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning harakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tugdiradi, chunki usha guruhlarini tashqil yotgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvo'rining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshlikdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik faxm-farosatning va sabr-kanoatning bo'lishini talab qiladi.

12.2. Ta'lim-tarbiya tizimiga rahbarlik va pedagogik boshqaruv qobiliyati.

Eng qulay ya'ni optimal boshqarish deganda minimal imkoniyatlar asosida, maksimal natijaga erishish jarayoni tushiniladi. **Boshqa insonlarni boshqarish mahorati** – bu doimiy ravishda o'zgarib turadigan va uzluksiz rivojlanishda bo'ladigan dinamik jarayondir. **«Insonlarni boshqarish mahorati»** – xodimlarga munosabatda, ijodkor shaxslardan tarkib topgan samarali komandani tashkil etish uchun, sog'lom shaxslararo o'zaro munosabatlar yordamida uyushgan va to'la ishonch muhitini yaratish lozimligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda ma'naviy boshqaruv g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu shakldagi boshqarish umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta'lim organlari, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik boshqaruvga xodimlarning malakasi, qobiliyati, qiziqishlarni hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim tarbiya, jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi. Ta'limda boshqarish bu – boshqaruvchining – o'qituvchining mavjud imkoniyatlari (fan yuzasidan mavjud bilimlari, egallagan turli o'qitish uslublari, o'quv vosita va qurollari, pedagogik mahorati) asosida talaba – o'quvchida kerakli (zarur bo'lgan) bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos shakllantirish jarayonidir.

Albatta ta'limni boshqarishni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin. Ayniqsa hozirgi paytda ta'lim – tarbiya jarayonini boshqarishga turli ilg'or pedagogik texnologiyalar (IPT) qo'llanilib kelinmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirilgan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o'z vatani

va xalqini manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga etkazishda namoyon bo'ladi. Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq.

“**Kadrlar mahorati va salohiyati**” atamasi personalning muhim xususiyatlari – ulardagi ochiq va yashirin qobiliyatlarni (hali foydalanilmagan, talab etilmagan) hamda professional, shaxsiy imkoniyatlarni o'zida ifoda etadi.

Kadrlar salohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **aqliy salohiyat**, uzluksiz ta'lim doirasida orttirilgan qobiliyatni o'z ichiga oladi;

- **ijtimoiy salohiyat**, samarali ijtimoiylashuvni ta'minlaydigan muloqotga kirishish qobiliyatini o'z ichiga oladi;

- **professional tajriba bilan bog'liq salohiyat**, kasb malakasi bilan bog'liq tajribani umumlashtirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi;

- **psixologik-fiziologik salohiyat**.

Kadrlar salohiyati – davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Biroq kadrlar salohiyati faqat ularning qobiliyati bilan o'lchanmaydi, balki ularni ro'yobga chiqarish imkoniyati ham muhim sanaladi. Bundan tashqari, rahbar kadrlarda malakalarni shakllantirish, ulardagi mavjud ko'nikmalarni yanada rivojlantirish hamda bu jarayonlarni amalga oshirishda jamiyat, tashkilot va inson manfaatlaridan kelib chiqish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

12.3. Kadrlar mas'uliyati va bugungi kunda rahbar kadrlar oldiga qo'yilayotgan talab va vazifalar.

Bugungi kunda mas'uliyat muammosini qayta anglash jarayoni yuz bermoqda. Hozirgi tadqiqotlarda asosiy e'tibor mas'uliyatni oshirishning jamiyat hayotidagi tangliklar va boshqariluvchi muhitning ziddiyatliliigi bilan belgilanuvchi sub'ektiv omiliga qaratilmoqda.

Ko'pgina olimlar **mas'uliyatga** o'zaro aloqador taraflarning manfaatlari va erkinligini ta'minlovchi, davlat va jamiyat tomonidan kafolatlangan munosabat sifatida yondasha boshlamoqdalar. Ularning fikricha, davlat boshqaruvida mas'uliyatni oshirish uchun tashkiliy-huquqiy va axloqiy xususiyatga ega chora-tadbirlar majmui zarur. Ayrim mualliflar mas'uliyat deganda so'zning keng ma'nosida shaxsning jamiyatga (umuman insoniyatga) nisbatan xizmatga doir va axloqiy joizlikni amalga oshirish darajasi bilan tavsiflanuvchi alohida ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy munosabati in'ikosini tushunadilar.

Ba'zan **mas'uliyatga** axloq va huquq kategoriyasi sifatida ta'rif beriladi. Bu holda u shaxsning jamiyatga nisbatan o'z ma'naviy burchi va huquqiy me'yorlarni bajarishi bilan tavsiflanuvchi alohida ijtimoiy va axloqiy-huquqiy munosabatini aks ettiradi. Bu ma'noda mas'uliyat boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat hamda jamiyat mahalliy manfaatlarining anglanish darajasidir.

Ba'zi asarlarda **mas'uliyat** «shaxs xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirish shakli sifatida, pirovard natijaning ko'zlangan maqsadga, boshqaruv sub'ektining siyosiy, yuridik, ijtimoiy va boshqa munosabatlarining ob'ekt bilan muvofiqligi mezonlari sifatida, bajarilgan ish uchun tashkilot, davlat va jamiyat oldida javob berish qobiliyati sifatida, rahbarning kasbiy, shaxsiy va ishbilarmonlik

fazilatlari omili sifatida, uning faoliyat uslubi xususiyati sifatida, boshqaruvni rag'batlantirish va uning samaradorligi omili sifatida» ta'riflanadi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimovning ma'ruzalari, nutqlari va chiqishlarida rahbar kadrlar masalasi, rahbarlik lavozimining ahamiyati, uning **mas'uliyati** va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida rahbarning o'rnini haqidagi muammolarga alohida to'xtalib o'tiladi.

Bugungi kunda hukumat oldida turgan vazifalarning to'laqonli bajarilishi ikki talabga bog'liq ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Birinchi talab – har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish.

Ikkinchi masala – hukumat a'zosi sifatida katta ishonch yuklatilgan hukumat a'zolarida vazifaga munosib bo'lish uchun tegishli bilim va tajriba, yuqori malaka bo'lishi shart. Boshqacha aytganda, egallab turgan lavozimiga munosib bo'lish faoliyatning samarali bo'lishining muhim shartidir. Har bir mutaxassis yoki rahbar o'z ishining ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish kerak.

Har bir rahbarning faoliyatiga mana shu ikkita talabga qay darajada javob berishiga qarab baho beriladi va xulosa chiqariladi. Prezidentimiz bu ikki talabdan birinchisiga, ya'ni, mas'uliyat masalasiga ko'proq e'tibor berishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, rahbarning bilimi etishmasa, o'rgansa bo'ladi. **Lekin rahbar mas'uliyat va javobgarlikni unutsa, ishda hech qanday siljish va o'zgarish bo'lmaydi.**

Bugun rahbar bo'lish o'zi oson emas. Bu – o'ta murakkab va o'ta mas'uliyatli ish. Bu ish rahbarlik vazifasida o'tirgan odamdan, boshqa fazilatlar qatorida, avvalo, iroda baquvvatligi va iymon butunligini talab qiladi. Chunki rahbar zotini doim ta'qib qiladigan **bir xatar** borki, uning nomini **nafs balosi**, deydi.

Rahbar kadr ham inson. Unda ham bir fuqaroda bo'lgani kabi ijobiy sifatlar va salbiy xususiyatlar uchrashi tabiiy. Jamiyat taraqqiyoti millatning kamchiliklaridan xoli bo'lishi – rahbar kadrlarning kamchiliklardan, salbiy xususiyatlardan holi bo'lishi bilan boshlanadi.

Rahbar istiqlool g'oyalarini mehnat jamoalarida amalga oshirishni tashkil etuvchi ma'nan boy, tashkilotchi, etuk mutaxassis bo'lmog'i kerak. Bu fikr boshqaruvning barcha bo'g'inlaridan rahbarlarga to'laligicha taalluqlidir. Demak, bu talab, oliy ta'lim, xalq ta'limi boshqaruvi va oliy o'quv yurtlariga ham joriy qilinmog'i kerak.

12.4. Boshqaruv mahorati – ilm, san'at va texnologiya sifatida

Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar boshqaruv katta siyosiy, iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy va axloqiy tizimlarning bir qismidir hamda o'zining qoidalari tamoyillari va usullariga asoslanadi, ya'ni jiddiy ilmiy – uslubiy poydevorga ega degan bir fikrga kelganlar.

«Insonlarni boshqarish mahorati» – bir qator diagnostika usullarini, xodimlarni baholash va turli tipdagi odamlar bilan aloqaga kirish, hamda turli xarakterdagi insonlar guruhlarini munosabatda bo'lish, axborot va ma'lumotlar bilan ishlash, tahlil qilish, modellashtirish, shaxs va jamoaga ta'sir o'tkazish, ishchan munosabatlarni shakllantirish, so'rovlar o'tkazish, suhbatdoshni tinglash san'ati, «qaytma aloqalar» ko'nikmasi va pirovard holatda to'g'ri qarorlar qabul qilish

malakasini egallash va olingan bilimlarni amaliyotda va muammolarni hal etishda qo'llashni o'rganishdan iboratdir.

Boshqaruv mahorati, kadrlar salohiyati va davlat idoralari va mahalliy boshqaruv organlari tizimi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirdadir. Zero, jamiyatning kadrlari salohiyati, insoniy resurslari davlat boshqaruvi organlaridagi kadrlar salohiyatini shakllantirishda poydevor vazifasini o'taydi.

Boshqaruv mehnatida professionallikning mohiyati - muayyan shart-sharoitlarda, aynan ushbu mehnat turining ob'ektiv qonuniyatlariga mos ravishda rahbarning o'z faoliyatini yo'lga qo'yishdagi intilishida ifodalanadi.

Boshqaruvchilik holatlarida rahbarga ko'proq quyidagi oltita asosiy omillar ta'sir qiladi. Ularga: **boshqaruvchilik aloqalariga doimiy ravishda jalb etilganligi omili; kutilmagan, tasodifiylik omili; noma'lumlik omili; yangilik va nostandartlik omili; ekstremal harakat omili; professional mehnatning yaxlitlik omili.**

Eng maqbul boshqaruv mohiyati sub'ektning aniq shart-sharoit va muayyan boshqaruv vaziyatida kuch va vositalarni ko'proq tarzda rasional foydalanish orqali boshqaruv ob'ektiga samarali boshqaruvchilik ta'sir o'tkazishini ta'minlash hisoblanadi. Boshqaruvchilik holatlarida omillarni ajratib olish, ularning rahbar ruhiyatiga aniq ta'sirini belgilab olish imkoniyatini beradi. Ularni hisobga olgan holda boshqaruvchilik vaziyatlarining ijtimoiy-psixologik modellarida uning motivasiyasi, bilishga oid va funksional-faoliyatli komponent (tarkibiy qism)larga ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Bunday shartli ajratish ijtimoiy-psixologik modellarni nisbatan to'laroq asosiy, belgilovchi determinantlarini hisobga olishga yordam beradi. Motivasiyasi komponent rahbarga samarali boshqaruv mehnatiga istak, xohish kabi jihatlarni beradi. Ijtimoiy-psixologik omillar modelining bilishga oid komponenti rahbarning boshqaruvchilik vaziyati va jamoaning aniq holati to'g'risida xabardorligini boyitadi. Funksional-faoliyatli komponent rahbarni shunday holatga tushirib qo'yadiki, bunda rahbar o'zining boshqaruvchilik faoliyati tarkibigi kiruvchi barcha yoki ko'plab harakat va operatsiyalarni amalga oshirishga majburligiga yo'l beradi.

Rahbar oddiy shaxs bo'lmasligi, ayniqsa muloqot, ishontirish, suhbatlashish san'atini mohirona egallashi, o'tkir o'ziga xos aqlga va hayot va bilimning barcha sohalarida salmoqli tajribaga ega bo'lishi zarur. Har qanday rahbar birinchi navbatda kishilar bilan ishlaydi va u inson tafakkurining barcha nozik jihatlari bilishi hamda keng ijtimoiy insonni o'rganishga oid bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, uning ob'ektiv va sub'ektiv holatlaridan kelib chiqqan holda RAHBAR kadrlarning boshqaruv jarayonini tahlil qilish, modellashtirish, ishchan muloqotni ta'minlash, majlislar o'tkazish malakasini yuksaltirish, shaxs va jamoga ta'sir etish usullarini egallash, ishontirish va o'ziga jalb etish usullarini o'zlashtirish, boshqaruv qarorlarini maqsadli ravishda qabul qilish, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalar (PR) texnologiyalaridan foydalanish, etakchi sifatida o'zining boshqaruvchilik imijini namoyish etish talab etilmoqda.

Boshqaruv mahorati insonning axborot va vaqt etishmasligi sharoitida to'satdan qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Konfusiylar ikki yarim ming yil avval «Yaxshi boshqariladigan davlatda kambag'allikdan uyaladilar. Yomon boshqariladigan davlatda boylikdan orqalaydilar» deb yozgan edi. Bir so'z bilan aytganda samarali boshqaruv uchun uning nazariy asoslarini bilish, amaliy tajribaga ega bo'lish va nazariya hamda amaliyotdan ijodiy foydalana bilish ya'ni **boshqaruv mahoratini** egallash lozim.

- rahbarlik qilish qobiliyati;
- o'rgatish malakasi;
- guruhii ishlarni yo'lga qo'yish ko'nikmasi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakasi va boshqalar.

Boshqaruvchilik faoliyatidagi maqsadni tashkil etuvchi ko'rsatkichlarni o'rganish rahbarning eng muhim, tasniflarini aniqlashni hamda o'zini yanada takomillashtirish va rivojlantirish talab etuvchi ko'rsatkichlarni belgilashga yordam beradi.

12.5. Boshqaruvda rahbar strategiyasi, taktikasi va mahorati tushunchasi, ularning o'zaro uyg'unligi ta'minlash.

Boshqaruv jarayonida rahbarlar tomonidan olib borilgan ish faoliyati tahlili va turli tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlarga ko'ra, rahbar faoliyatining muvaffaqiyati uning shaxsiy sifatleri, odamlar bilan muloqot olib borish ko'nikmasi va o'zaro munosabatlar tizimini yaratish, rahbarlikning optimal usulini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Istalgan faoliyat uslublarining hamohangligi ta'minlash, uning talablari o'zini-o'zi boshqarish asosida erishiladi. Bular asosida rahbar, na faqat o'zining boshqaruvchilik uslublarini egallashga, balki ularda o'zining **strategiyasi, taktikasi, texnikasi** (texnologiya) va **mahoratini** belgilaydi va ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlashi mumkin.

Avvalo, **Strategiya** (grekcha- jang olib borish san'ati) tushunchasi harbiy fandagi boshqaruvdan olingan bo'lib, u oliy harbiy san'at sifatida, "general san'ati" tushunchasini bildiradi. **Taktika** (grekcha-tartibga keltirish) – strategiyaning bir qismi, unga qaram va unga xizmat qiladi. Maksudga erishish uchun qo'llaniladigan kurash usuli, taktika mavjud xolatga mos keluvchi strategik muvaqqiyatga erishishni ta'minlovchi yo'l va vositalar, kurash shakllari va usullarini belgilaydi.

Hozirgi zamonaviy tushunchada **strategiya** - har qanday faoliyat sohasida maqsadga erishishga yo'naltirilgan bosh, asosiy dasturdir. **Strategiya** o'zida bir qator jamlamalarni ifoda etib, ular bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni tashkil etishda amal qilinadi. Shu bilan birgalikda **strategiyaga** faoliyatni amalga oshirish va tashkilotning maqsadiga erishiga mo'ljallangan umumiy kompleks reja sifatida ham qarash mumkin.

Strategiya aniq pozisiya, tashkilot tuzimlasi, uning qadriyatlar tizimi, ayniqsa xodimlar motivasiyasi va nazoratida namoyon bo'ladi. Strategiya ahamiyatiga ko'ra tashkilotning yuqori rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi, uning ijrosini ta'minlashda boshqaruvning barcha darajasidagi xodimlar ishtirok etishi ko'zda tutiladi. Ishlab chiqilgan strategiya tashkilotga umumiy yo'nalish va o'ziga xoslikni, uning xodimlariga esa, kundalik harakatlarda aniq yo'nalishlar olishni beradi.

Strategik boshqaruvning komponentlari (tarkibiy elementlari):

- strategik rejalashtirish;
- strategiyani amalga oshirish;
- strategik nazorat.

Strategik boshqaruvning asosiy vazifalari:

- maqsadlarni belgilash;
- strategik ko'ra olishni shakllantirish;
- strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish.

Boshqaruv va rahbarlik mahorati **strategiyasi** boshqaruvning strategik maqsadlari asosida shakllanadi, belgilanadi va amalga oshiriladi. **Taktikasi** esa, boshqaruvning umumiy strategiyasi hamda boshqaruv va rahbarlik mahorati strategiyasi asosida mavjud vaziyat va holatlardan kelib chiqqan holda dinamik tarzda, shart-sharoitning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlari, ish faoliyatining xususiyatlari asosida qo'llaniladi.

Boshqaruv sohasidagi har bir mutaxassis boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, mahoratini o'zlashtirgan bo'lishi, o'z faoliyatining maqsadlarini aniq belgilay olishi, ularga erishish uchun zarur bo'lgan strategiya va taktikani belgilab olishi, boshqaruv qarorini qabul qilishi va buning uchun shaxsan mas'ul bo'lishi lozim.

Boshqaruv nazariyasi boshqaruv jarayonini tashkil etish qonuniyatlarini hamda ushbu jarayon davrida kishilar orasida vujudga keladigan munosabatlarni o'rganadi, tadqiqot ob'ekti xususiyatlariga muvofiq keluvchi metodologik usullarni belgilaydi. Boshqaruv ob'ektiga faol ta'sir o'tkazish tizimi va usullarini ishlab chiqadi hamda o'rganayotgan jarayonlarni oldindan ko'ra bilish va bashorat qilish usullarini belgilaydi.

Bu esa o'z navbatida, rahbarning egallab turgan lavozimi (vazir, hokim, tashkilot rahbari, rektor, prorektor, dekan, dekan o'rinbosari va) xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishda samaradorlikni ta'minlash va muvaffaqiyatga olib boruvchi strategiyani belgilash, uni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan taktikani ishlab chiqish va boshqaruv mahorati bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Boshqarish deganda nimani tushunasiz, unga qanday izoh berasiz?
2. Eng qulay ya'ni optimal boshqarish deganda qanday jarayon tushiniladi?
3. Boshqa insonlarni boshqarish mahorati – bu qanday jarayon?
4. Ta'limni boshqarish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?
5. Rahbar kishiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
6. Strategiya va taktika deganda nimani tushunasiz, unga izoh bering?
7. Strategik boshqaruvning komponentlariga nimalar kiradi?
8. Strategik boshqaruvning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Boshqaruv haqida buyuk mutafakkirlarning qanday fikrlarini bilasiz?
10. Boshqaruv nazariyasi nimalarni o'rganadi?

13- Ma'ruza: Mehnat psixologiyasi

Reja:

13.1. Shaxs va guruh.

13.2. Mehnat psixologiyasi va yoshlarning kasbiy yo'nalganligi.

13.3. Shaxsning individual (tipologik) psixologik xususiyatlari.

13.4. Insonning mehnatdagi holati va mehnat faoliyati.

13.5. Kasbiy faoliyat motivlari va kasbiy fikrlashning xususiyatlari.

Adabiyotlar: 8, 13, 16, 33, 38, 40.

Tayanch iboralar: shaxslararo munosabat, guruh, referent guruh, individual xususiyatlar, xarakter, temperament, qobiliyat, mehnat faoliyati, kasbiy fikrlash, kasb tanlash, mehnat tarbiyasi;

13.1. Shaxs va guruh.

Shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida, shaxs ma'lum insonlar davrasida, guruhida, jamoada bo'lgan takdirda ro'y beradi. Shuning uchun ham mutaxassislar jamoalarda ro'y beradigan shaxslararo ta'sirning qonuniyatlari va mexanizmlarini bilishlari va ularni guruhda odamlar mehnatini tashkil etishda albatta inobatga olishlari kerak.

Har bir shaxsning fe'l-atvorida, hatti-harakatlarida u mansub bo'lgan millat, halk, xudud, professoinal toifa, mehnat qiladigan jamoasi, yaqin atrofdagi mukim guruhi, oilasining ta'siridan paydo bo'lgan sifatlari va xususiyatlari bo'ladi. Mehnat jamoasida professoinal rollarni bajarish jarayonidagi xulq-atvori shaxsning ma'naviy va psixologik ko'rinishidagi asosiy omil bo'lib, katta yoshdagi odam psixologiyasini tubdan o'zgartirish uchun uning professional faoliyatini ham o'zgartirish kerak, deyiladi.

Shunday qilib, shaxsga bir vaqtning o'zida turli ijtimoiy guruhlarning ta'siri bo'lib turadi. To'g'ri, ma'lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta'siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisniki esa sal kamroq bo'ladi. Masalan, o'quvchilik yillarida maktabdagi o'quvchilar guruhining ta'siri mahalladagi o'rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo'lishi, yangi xonadonga kelin bo'lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitining ta'siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo'lishi tabiiy. Lekin har bir alohida daqiqada biz doimo ma'lum guruhlar ta'sirida bo'lamiz. Xo'sh, guruhning o'zi nima?

Guruh - ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir. Demak, guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: biror faoliyatning bo'lishligi (mehnat, o'qish, o'yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda u erda odamlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi. Guruh- bu muayyan belgiga, masalan, sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko'rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga, tashkil topish xususiyatlari va shu kabilar asosida ajralib turadigan umumiylikdir. Guruhlarning klassifikatsiyasi ham shunga muvofiq tarzda bo'lib, kichik va katta guruhlarga bo'linadi - o'z navbatida ular ham real (bog'langanlik, shartli formal (rasmiy), hamda noformal (norasmiy) guruhlarga, rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan ya'ni

rivojlangan (jamoalar) va yetarli darajada rivojlanmagan yoki kam rivojlangan guruhlariga (uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlariga) bo'linadi.

Har bir shaxs uchun taraqqiyotning har bir alohida bosqichida shunday odamlar guruhi bo'ladiki, u ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi. Bunday guruh psixologiyada referent guruh deb ataladi. Amerikalik sosiologlar referent guruhlarining bir necha turlarini farqlaydilar.

Normativ guruhlar - bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo'ladi. Bunday guruhlariga birinchi navbatda oilani, diniy yoki milliy uyushmalarni, professoinal guruhlarini kiritish mumkin. Masalan, o'zbek halki uchun dasturxon atrofiga o'tirgan zaxoti yuzga fотиha tortish, mezbonlarning mehmonlarga «Xush kelibsizlar» deyishlari norma hisoblanadi va har bir oilada shunday harakatlarga nisbatan ijobiy ustanovka shakllanadi. Bunda bola uchun referent rolini ota-onasi, kattalar, mahalladagi hurmatli insonlar o'ynaydi.

Qiyoslash guruhlar - bu shunday guruhki, shaxs o'sha guruhga kirishni, uning ma'qullashiga muxtoj bo'lmaydi, lekin o'z harakatlarini yo'lga solishda unga asoslanadi va korreksiya qiladi. Masalan, talabalar guruhida shunday yoshlar bo'lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman muloqotda bo'lmaydi, ularning fikrlari yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh aynan o'shalarga o'xshamaslik va o'z ustida ko'proq ishlashga o'zini safarbar qilish uchun kerak. Yoki talaba yoshlar sessiya yakunlariga ko'ra differensial stipendiya oladilar. O'rtacha o'zlashtiruvchi talaba uchun «hamma talabalar» oladigan stipendiya mikdorini nazarda tutib, o'zini tinchlantiradi, a'lochi esa, o'zinikini nafaqat oddiy, o'rtachalar bilan balki, davlat stipendiyalari oladiganlar bilan ham solishtiradi. Ko'rsatgichlar qanchalik yuqori bo'lsa, shunga mos da'vogarlik darajasi ham yuqori bo'ladi, shaxsning qiyoslash guruhlar ham ortiqroq bo'ladi.

Negativ guruhlar - shundayki, shaxs ularning hatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutloq farq qiladi. Masalan, ikki qo'shni bir-biri bilan murosalar kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlagan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri «oq» desa, ikkinchisi - aksincha, «qora» deb turaveradi

13.2. Mehnat psixologiyasi va yoshlarning kasbiy yo'nalganligi.

Mehnat shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy mahsulotlarni etishtirishga qaratilgan faoliyatdir. Mehnat inson faoliyatining tarixan vujudga kelgan dastlabki turi bo'lib, odam yashashining asosiy va birinchi shartidir. Mehnat tufayli odam ongi shakllanadi.

Mehnat shaxsni rivojlanish shartidir. Odamning psixik jarayonlari faqat faoliyat jarayonida vujudga keladi. Shuning uchun faoliyatning turli ko'rinishlarini o'rganish keng psixologik ahamiyatga egadir. Odamning hayot kechirishi va bilish faoliyatining asosiy sharti bo'lgan odam faoliyati ongining rivojlanishi sharti hamdir. Mehnat jarayonida odam o'z tabiatini o'zgartira bordi.

Mehnatda bola ma'naviy jihatdan o'zgaradi... Mehnatni mensimaydigan, tantiq, erka, nozik – nihol bolalarda ijobiy sifatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish muhimdir.

Mehnat jarayonida insonning hamma ijobiy sifatlari: o'z – o'zini tuta bilish, sabr, toqat, hamkorlik, do'stlik va birodarlik, chidam kabi hislatlari shakllanadi. Shuning uchun ham mehnat odam psixikasining tarkib topish faktori sifatida tan olinadi. Bu haqda K. D. Ushinskiy shunday deydi: □“odamda jiddiy mehnatga qattiq havas o'tini yoqish kerak, odam bunday mehnatsiz inson sha'niga yarashadigan hayot qura olmaydi ham, baxtli hayot kechira olmaydi ham” .1

Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali, moddiy yoki ma'naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iboratdir. Mehnat faoliyati odamning asosiy, etakchi faoliyatidir. Agar mehnat qilishdan to'xtab qolinadigan bo'lsa, insoniyat zoti o'z hayotini tugatgan bo'lur edi. Shuning uchun ham mehnat faoliyatiga odamning yashashini ta'minlovchi boshqa turlar ustidan g'alaba qozontiruvchi hamda tabiat kuchlari va narsalaridan va odamni foydalantiruvchi maxsus insoniy hatti – harakat turi deb qarash mumkin.

Mehnat orqali mehnatsevarlik tarkib topadi.

Mehnatsevarlik – bu oddiy so'z emas. Unda uch asosiy tushuncha: zarur, qiyin va go'zal degan tushunchalar yig'indisi mujassamlashgan. Basharti maktabda ham, oilada ham mana shu uchta tushunchaning birligi hukmron bo'lsa edi, u holda umuman mehnat tarbiyasi to'g'risida to'xtalib o'tmasa ham bo'ladi. Inson ma'naviy qiyofasining eng muhim belgisi bo'lgan mehnatsevarlik ahloqiy tarbiyaning intellektual, emosional va irodaviy tarbiya jarayonlarida ham tarbiyalab boriladi. Chunki, inson qanchalik aqlli, his – hayajonga boy va irodali bo'lsa, unda mehnat faoliyatining xilma – xil turlariga shunchalik intilish kuchli bo'ladi.

Mehnat tarbiyasi o'qish bilan bog'liqdir. O'qish o'quvchining ma'naviy hayotida asosiy o'rin egallaydi. Shuning uchun ham mehnat tarbiyasi o'quv muassasalarida mehnatdan boshlanishi kerak. Chunki mehnat tarbiyasining zamini, poydevori o'qishdir. Tafakkur, mushohada, dunyoni bilish, bilim egallash, dunyoqarash, e'tiqodni shakllantirish – bular bari o'quvchi mehnatini tashkil etadi.

O'smirlar va yigit qizlar ijtimoiy mehnatda qatnashib bilimlarini oshiradilar, ma'naviy qiyofalarini o'zgartiradilar. Ularda tashkilotchilik qobiliyati o'sadi, ijtimoiy manfaatlar yuzaga chiqadi, iroda sifatlari hosil bo'ladi, o'rtoqlar bilan munosabatda bo'lish ularni kuchlari ortadigan zarur, qiziqarli ishlarga jalb qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Agar tarbiya bolaning ichki faolligini hisobga olgandagina, tarbiyaviy ta'sir natijalarining qanday bo'lishini bolalarning psixik xususiyatlariga va faol faoliyatiga qarab oldindan aytib bergandagina tarbiya taraqqiyotning qudratli va hal qiluvchi omili bo'ladi. Shuning uchun ham mehnat faoliyati shaxs ijobiy sifatlarini, ijobiy munosabatini mehnat ishtirokchilari bilan muomala madaniyatini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Mehnatda bola faqat chiniqibgina qolmaydi, balki shaxs sifatida shakllanadi.

Odamning ongli va maqsadga qaratilgan mehnat faoliyati har vaqt ma'lum motivlarning bo'lishini taqozo qiladi va u odamni ma'lum faoliyatga yo'naltiradi.

Mehnat faoliyatining hamma turlari (aqliy, jismoniy, ijtimoiy, foydali mehnat) bir - birlariga ta'sir qiladi, bir – birini to'ldiradi, bu bilan odamning mehnat faoliyati to'laqonli bo'la boradi. Mehnat faoliyati inson umrini har tomonlama shakllantiradi. Har tomonlama rivojlanish shaxsni tarbiyalashning asosiy sharti uning ongli

faolligidir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, odam biror maqsadni ko'zlab mehnat qilsa, bu mehnatning samarasini oldindan tasavvur qilsa, o'sha mehnat unumli bo'ladi. Mehnatda o'quvchi shaxsining harakteri va irodasi tarbiyalanadi, kuzatuvchanligi, diqqati rivojlanadi, analiz va sintez qilishga o'rganadi, umumlashtiradi va taqqoslaydi. Mehnat yoshlarni ziyrak bo'lishga, farosatlilik, epchillik, ixchamlik kabi sifatlarini, xayolini o'stiradi.

Mehnat faoliyati o'quvchining ahloqiy rivojlanishi va mukammallashishida katta ahamiyatga ega. Mehnat bolalarni jismonan chiniqtiradi, estetik didlarni, nerv sistemasini mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim - tarbiya jarayoni odamni ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlari uchun zarur bo'lgan bilimlar, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Ma'lumki inson o'z tabiati jihatidan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmay yashay olmaydi. O'quvchi shaxsi tarkib topishining yo'llaridan biri – mehnat faoliyatidir.

Mehnat jarayoni shaxsni mehnatsevarlik, faollik, ozodalik kabi mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalash hislarini tarkib toptirishga, qiyinchiliklarni eng olish fazilatlarini, kuch – g'ayratini, aktivlik, qat'iylik kabi muayyan maqsadni ko'zlash hislarini o'stirishiga; yalqovlik, loqaydlik, passivlikka barham berish kabi yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol tarbiyalashga qaratilgandir.

13.3. Shaxsning individual (tipologik) psixologik xususiyatlari.

Shaxs –qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlar majmui yotadi. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan bir uning individualligidir. «Individuallik» deganda shaxs psixologik xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik faktiga, ya'ni shaxsning individual xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

Xarakter, temperament, qobiliyat, irodaviy sifatlar, hissiyot va motivatsiya;

Mana shu yuqorida ko'rsatilgan psixik xususiyatlar birikmasi bir xilda qo'shilib keladigan inson yo'q. Ushbu individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta bo'lib, ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro'-e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni belgilaydi. Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki, aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqatdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual – psixologik xususiyatlarni alohida o'rganamiz.

Xarakter tug'ma bo'lmaydi. Faqat layoqat nishonalari tug'ma bo'lishi mumkin, ular nerv sistemasining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Xarakter shaxsning individual xususiyatidir.

Xarakter – kishining voqelikka bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi va uning axloqi hamda hatti-harakatlarida namoyon bo'luvchi barqaror psixik xossalarining

individual tarzda birga qo'shilishidir. Xarakterning aynan tarjimasini «bosilgan tang'a», «xislat» degan ma'noni bildiradi.

Xarakterning ko'p hislatlari odamning hatti-harakatini belgilab beruvchi chuqur va faol mayllar hisoblanadi. Ma'lumki, turli kishilarning xakteri turlicha. Shu sababli ham bir xil sharoitlarda, aynan bir xil maqsadga intiluvchi kishilar shu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan harakatning turli usullariga moyil bo'ladilar. Xarakterning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar oiladagi, o'quv jamoasidagi muhim xayrihohlik, zolimlik, badjahllik, ichi qoralik, kamtarinlik, raqobat, o'zaro yordam va boshqalarni o'z ichiga oladi. Xarakterning shakllanishi, tarkib topishi odamning aktiv faoliyati jarayonida ro'y beradi.

Temperament xarakterdan farqli o'laroq, tug'ma xususiyatlar majmuasi bo'lib, oliy nerv faoliyat tiplarining inson xulq atvorida namoyon bo'lishni ifodalaydi. Temperamentning aynan tarjimasini, lug'aviy ma'nosi «aralashma», «qorishma», «mijoz» ma'nolarini anglatadi. Temperament termini fanga birinchi bo'lib eramizdan avvalgi V asrda yashagan grek vrachi Gippokrat tomonidan kiritilgan.

Insonning xatti-harakati va faoliyatida namoyon bo'luvchi Shaxsiy –psixologik xususiyatlarning yig'indisiga **temperament deyiladi**.

Psixologiyada temperamentning to'rtta tipi farqlanadi: sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

Sangvinik temperament tipiga mansub kishilar o'zini ishchan, faol, g'ayratli kishi sifatida namoyon qiladi. Ularda jo'shqinlik, va chaqqonlikning namoyon bo'lishi kuzatiladi. Sangvinikda quvonch, qayg'u, yoqtirish va yoqtirmaslik, mehribonlik va nafrat hislari tez hosil bo'ladi, biroq undagi bu xislatlarning namoyon bo'lishi beqaror, ular tezda paydo bo'lib tezda yo'qoladilar.

Sangvinik temperamentdagi kishilarda his-tuyg'ular, odatda tashqi ko'rinishda yorqin ifodalangan bo'ladi: ma'noli mimika, ravshan imo-ishora, tez harakatlar qilish, tez gapirish, harakatchanlik va chaqqonlik. Ular atrofdagi kishilar bilan tez til topishadigan, odamshavanda, kishilar bilan osonlikcha yaxshi munosabat o'rnatadigan va jamoada xushchaqchaqdir.

Flegmatik temperamentdagi kishi nihoyat og'ir, yuvosh, jahlini chiqarish qiyin, bamaylixtir, harakatlari salmoqli bo'ladi. Faoliyatida asosli, o'ylab, qat'iyat bilan ishlash namunalarini ko'rsatadi. U odatda, boshlagan ishini oxiriga yetkazadi.

Xolerik temperamentli kishilar chaqqon, g'ayratli, nihoyatda harakatchan, qo'zg'aluvchan bo'ladilar. Xoleriklar tinib-tinchimas, o'zini tuta bilmasligi, jo'shqinligi, serjahlligi, kungli soviydiganligi bilan farqlanadi. Haddan ortiq dangallik, serjahllik, ko'ngilga qattiq tegadigan so'zlar ishlatish va boshqalar tufayli ba'zilar bunday kishilarni jamoada yoqtirmaydilar.

Melanxolik temperamentli kishilar ishda odatda passiv, harakatlari sust, ko'pincha kam qiziquvchan bo'ladilar. Ularda hissiyot va hayajonli holatlar sekin paydo bo'ladi, biroq chuqurligi, zo'r kuchi va davomiyligi bilan farq qiladilar, melanxoliklarni ranjitish oson, tez xafa bo'ladi va xafagarchilikka bardosh bera olmaydilar. Melanxoliklar odamlarga aralashmaslikka va yolg'izlikka moyil bo'ladilar. Uncha tanish bo'lmagan, yangi kishilar bilan aloqa qilishdan o'zlarini chetga tortadilar, yangi sharoitda ko'pincha o'zlarini noqulay sezaдилar. Ta'lim

jarayonida melanxolik o'quvchilar kuchli va uzoq davom etadigan zo'r berishlikni ko'tara olmaydilar, chunki bunday holda ular miyasidagi nerv hujayralari tezlik bilan muhofaza tormozlanishiga o'tib oladilar.

Qobiliyat odamning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma va malakalarni ortirishning samardorligi, tezligi shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususiyatlarning o'zi bilim, ko'nikma va malakalarga taaluqli bo'lmaydi. **Qobiliyat deb**, biror faoliyatni muvaffaqiyatli egallash sharti hisoblangan va buning uchun kerak bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda namoyon farqlarni belgilab beradigan psixologik xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida xarakterlanadi, ya'ni bir odamning boshqa odamdan farq qiladigan sifatlarini ochib beradi.

Qobiliyatlarni miqdor jihatdan o'lchash muammosi psixologiyada katta tarixga egadir. XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridayoq bir qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirman va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni talab qilib chiqdilar.

O'sha paytlarda qobiliyatlarini o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlari dan foydalaniladi. Aqliy iste'dod testlarining yordami bilan bir qator mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya va boshqalar) qobiliyatlarni aniqlash va maktablarda o'quvchilarni saralash, armiyada ofitserlik xizmatini bajarish, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimini tanlash va shu kabilar amalga oshiriladi.

Qobiliyat suhbat, test yordamida aniqlanadi. Qobiliyatlarning umumiy va maxsus turlari farqlanadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug'ullana oladi. Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish imkoniyatini beradi.

13.4. Insonning mehnatdagi holati va mehnat faoliyati.

Inson shaxsini etuk, barkamol tarbiyalash vositasi bo'lgan mehnatni mohiyati uning maktab o'quvchisi yoki yoshlar hayotida qanday o'rin tutganligida emas, balki o'quvchining, yoshlarning eng muhim ijtimoiy tushuncha munosabatini qandayligidan, qanday harakterda ekanligidan, o'quvchining mehnat jarayonida kattalar va o'rtoqlari bilan qanday munosabatda bo'lishlaridan iboratdir.

Yoshlarni mehnatga ijobiy munosabatda bo'lish, jamiyatga hurmat, o'z xatti – harakatlarini kerakli tarzda yo'lga solish va tuzatish jarayonlarini tarkib toptirish - bularning hammasi har qanday mehnat jarayonida ham emas, balki maxsus uyushtirilgan, muayyan sharoitlarda amalga oshiradigan mehnat faoliyatidagina yuz beradi. Shuning uchun yoshlarni, o'quvchilarni, bolalarning mehnat tarbiyasini to'g'ri uyushtirish – to'g'ri tashkil qila olish shu qadar muhimdir. Mehnat tarbiyasi tajribalari, pedagogik – psixologik izlanishlarga doir materiallar mehnatni haqiqatdan ham tarbiya omiliga aylantiradigan quyidagi shartlarni ifodalab berish ikoniyatini yaratadi:

I. O'quvchilar mehnati ijtimoiy foydali bo'lishi kerak. Yoshlar va o'quvchilar o'z mehnatining muayyan ijtimoiy qiymatga, ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini, kishilarga, jamiyatga, jamoalarga foyda keltirishini anglab etmog'i lozim.

II. Ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan foydali mahsulot mehnat natijasi bo'lishi. O'quvchi o'z mehnatini yaqqol va aniq ko'rishi lozim. Shu munosabat bilan o'quvchining o'z mehnati natijalarining ijtimoiy vazifasi bilan mufassal tanishtirish, o'quvchiga uning mehnatini kimga kerakligini ko'rsatish juda muhim. Masalan: o'quvchilar tomonidan temir – tersak, qog'oz yig'ishlar va uning natijasini bilish yoki jamoa xo'jaliklarida sabzovot – meva terish kabilarga qatnashtirish maqsadga muvofiqdir.

III. O'quvchilarning mehnati jamoa mehnati bo'lmog'i kerak. Jamoa mehnati – umumiy mehnat vazifalarini birgalikda bajaradigan, umumiy maqsad, umumiy vazifalar bilan birlashib qilinadigan mehnatdir. Mehnat faoliyati jarayonida shaxsiy yutuqlargina mehnat manbai bo'lsa, jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish uchun asos bo'lmaydi. Jamoa bilan amalga oshiriladigan ish esa o'quvchilarda mehnatning umumiy natijalari o'zining har bir a'zosining ko'rsatgichlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

IV. O'quvchining mehnati tashabbuskor va ijodiy mehnat bo'lishi kerak. Mana shunda mehnat ishning ijodiy tomoniga qiziqadigan, shunchaki, bir foydali ish qilishga emas, balki yangilikka, o'z tashabbusini namoyish qilish imkoniyatlarini qidirishga intiladigan o'smirlar va yuqori sinf o'quvchilarining yosh psixologik xususiyatlariga mos bo'ladi. Mehnat qanchalik ko'p intellektual kuch – g'ayrat sarflashni talab etsa, o'quvchilar unga shunchalik ko'p kuch –g'ayrat sarf qiladilar, ko'p tayyorgarlik qiladilar.

V. Mehnat jarayonida ayniqsa yoshlar, o'quvchilar o'z – o'zini uyushtirish va mustaqil mehnat qilishning har – xil shakllarini qo'llashlari lozim. Gap faqat o'quvchilarning tashkilotchilik malakalarini hosil qilishdangina emas, balki o'z – o'zini uyushtirishning mustaqillikka rahbarlik qilish va bo'ysundirish malakalarni, ijodiy tashabbusni, ma'suliyat hamda jamoat manfaatlarini, ijodiy tashabbusni, his qilish sifatlarini taraqqiy ettirishga yordam beradi.

VI. O'quvchilarning mehnati ularning o'zlari uchun qiziqarli bo'lishi lozim. Ayniqsa, kichik maktab o'quvchilarining mehnati bevosita qiziqishlarga asoslanadi, lekin o'quvchilarni qiziqarli bo'lmagan mehnat bilan shug'ullanishga ham odatlantirish ahamiyatlidir.

VII. O'quvchilarning mehnati ularning kuchiga yarasha bo'lmog'i lozim. Mehnat o'quvchilarni haddan tashqari ko'p kuch sarf qilishga, juda toliqib qolishga olib bormasligi lozim. Mehnat bolaning kuchiga mos bo'lsa unda bola muvaffaqiyatga erishadi, aksincha u mos bo'lmasa bola psixikasiga qattiq ta'sir qiladi, bola o'z kuchiga ishonchini yo'qotadi, hatto kuchi etadigan ishni bajarishdan ham bo'yin tovlaydi.

VIII. O'quvchilarning mehnati ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lishi yaxshi natija beradi. Chunki ularning nazariy olgan bilimlari bilan mehnat faoliyatlarini uzviy ravishda shunday bog'lash zarurki, ularning mehnati biologiya, ximiya, geometriyani bilishni, chizmalar chizish hamda ularni tushunib ola bilishni talab etsin.

IX. O'quvchilarni mehnat bilan jazolashga va mehnati uchun jazolashga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bola unga kuch sarf qiladi, mashaqqat chekadi.

X. O'quvchidan ishni shunchaki bajarishni emas, balki asbob – uskunalarga, materiallarga, mehnat qurollariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab

etish zarur. Bu shartlarga amal qilish – yoshlar uchun mehnat faoliyatini qiziqarli faoliyatga aylanishiga imkon yaratadi.

Inson shaxsini shakllanishi bolani mehnatga bo'lgan ijobiy munosabati orqali paydo bo'ladi. Yoshlar mehnat qilish orqali o'zini anglaydi, o'z mehnati samarasini ko'rish esa uni mehnatga ijobiy munosabatini shakllantiradi. K.D. Ushinskiy “Mehnatning psixologik va tarbiyaviy ahamiyati” maqolasida shunday deydi:

Mehnatning moddiy samaralari odamzod mulkidir, lekin mehnatning kuchi, ma'naviy hayotbaxsh kuchi odamzod qadr – qimmatini manbai bo'lib hizmat qiladi, shu bilan birga odob -axloq va baxt - saodat manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Demak, yoshlar bajaradigan mehnat jiddiy mehnatga havas o'tini yoqishi lozim, bunday mehnatsiz odam inson sha'niga yarashadigan hayot kechira olmaydi ham.

13.5. Kasbiy faoliyat motivlari va kasbiy fikrlashning xususiyatlari.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumiy o'rta ta'lim maktablari ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar yoshlar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Erkin fikr, ijodiy fikrlash jarayoni kichik bog'cha yoshidan, maktab, oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Ijodiy fikr, erkin fikrning to'g'ri yo'naltirilmog'i bilan bog'liqdir. Bu kasbiy fikrlash jarayoniga yo'l ochadi.

Kasbga yo'naltirish tizimi - Shaxsga kasbni va uning Shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va printsiplar, uslub va vositalar birligidir. Kasbga yo'naltirish barcha o'quv tarbiya ishlari bilan bog'lab olib boriladi. Ongli kasb tanlash uchun yoshlarda avvalo kasbiy fikrlash, fikr uyg'unligi yaxshi shakllangan bo'lishi lozim. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, kasb tayyorgarligi bor kishidagina kasbiy fikrlash yuksak darajada ijobiy shakllangan bo'ladi, shuningdek fikriy mulohazalari boy va ijodiy izlanuvchan xususiyatlarga ega bo'ladi.

Kasbiy fikrlashni yuzaga kelishi uchun, kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga quyiladigan talablar, bu kasbni qaerda egallashlari mumkinligi, kasblarning murakkab jihatlari to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega.

Kasb tanlash-jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'lini jiddiy suratda belgilab olish - oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. O'quvchilarning kasb-hunarga layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini, kasbiy fikrlashini bilish, malaka va ko'nikmalarini o'rganish lozim.

Biror sohada tashabbus ko'rsatish uchun har bir kishi o'zi faoliyat ko'rsatayotgan sohani mukammal bilishi, ustasi bo'lishi, bu sohani mahsuliy jarayonida nimalar taraqqiyotga, rivojlanishga muvaffaqiyat olib keluvchi va to'siq bo'luvchi mezonlarni aniq bilishi, hamda yutuq va kamchiliklarining asosini aniq bilishi kabi nazariy - amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Tashabbuskorlik sifati insonlarning ichki faollik omillari: birinchidan har bir kishining o'z qiziqishi, aqliy va o'quv qobiliyatiga mos hayot yo'lini topish orqali o'z qadrini ruyobga chiqarish hissi bo'lsa, ikkinchidan Shaxsiy manfaatdorlik, Shaxsiy mulkning faqat moddiy emas, balki ma'naviy qadriyatlarni ishga tushirish orqali o'zini va davlat, jamiyat va olamni

takomillashtirishga hissa qo'shishidan iborat. Kasbiy fikrlash, kasb ahloqi kishilarning hissiy kechinmalari, axloqiy ideallar va e'tiqod bilan uzviy birlikda yaxlit holda shakllanadi.

O'z – o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Shaxs va guruh tushunchalarini qanday izohlaysiz?
2. Guruhning o'zi nima?
3. Mehnat psixologiyasi va mehnat faoliyatining inson hayotidagi o'rnini tavsiflang.
4. Lider xususiyatlarini keltiring.
5. Mehnat faoliyatining qanday turlarini bilasiz.
6. Individual tipologik xususiyatlar deganda nimani tushunasiz?
7. Xarakter nima?
8. Kasbiy fikrlash, kasbga yo'naltirish deganda nimani tushunasiz?
9. Temperament nima, uning qanday tiplari mavjud?
10. Kasb tanlash nima uchun jiddiy va mas'uliyatli ishdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: «O'zbekiston», 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: «O'zbekiston», 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, - T: «O'zbekiston», 1996.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.- T: «O'zbekiston», 1998.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T: «Sharq», 1999.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
9. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq millatni- millat qilishga xizmat etsin. –T.: «O'zbekiston», 1998.
10. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» -T.: «Sharq», 1997.
11. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. –T.: 1997.
12. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: 2003.
13. Davletshin M.T, Tuychieva S.M. «Umumiy psixologiya» -T.: 2002.
14. Zunnunov A, Xayrullaev M., Pedagogika tarixi. – T.: «Sharq», 2000.
15. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1997.
16. Karimova V.M, Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. –T.: «O'qituvchi», 2001.
17. Karimova V. Psixologiya. –T.: «A. Qodiriy», 2002.
18. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika, -T.: «O'qituvchi», 1975.
19. Mavlonova R, To'raeva O. Pedagogika. -T.: «O'qituvchi», 2001.
20. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat, -T.: «Sharq», 2001.
21. Munavvarov A.Q. Pedagogika. –T.: «O'qituvchi», 1996.
22. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000.
23. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. -T.: «O'zbekiston», 1997.
24. Ochilov M. Muallim- qalb me'mori. –T.: «O'qituvchi», 2001.
25. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Q.: «Nasaf», 2000.
26. Sultonov H., Ibrohimov. Vatan tuyg'usi. -T.: 1996.
27. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. –T.: «O'qituvchi», 1997.
28. Tolipov U., Usmonova M. Yangi pedagogik texnologiya: mohiyat va targ'ibot. «Ma'rifat» gazetasi, 2004 yil 14 aprel soni.
29. Xo'jaev N, Hasanboev J., Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma, T-2002.
30. G'affarova T, Qurbonov A., Ta'limning ilg'or texnologiyalari.

- Q.: «Nasaf», 2003.
31. G'oziev E. Psixologiya, -T.: «O'qituvchi», 1999.
 32. G'oziev E. Xotira psixologiyasi., -T.: 1994.
 33. Davletshin M.G. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994.
 34. Игнатъев Е.И, Лукин Н.С. Психология –Т.: «O'qituvchi», 1990.
 35. Kaykovus. Qobusnoma -T.: «Sharq», 1996.
 36. Maxmudov Yu., Mirzaev F. Pedagogik mahorat-oliy ijodkorlik. «Xalq ta'limi» jurnali, 1999.
 37. Munavvarov A.Q. Oila psixologiya. –T.: O'qituvchi, 1997.
 38. Под. ред. Крылова А. Психология. Учебник. –М.: 1998.
 39. Psixologiya – qisqacha izog'li lug'at. T., 1998.
 40. Psixologiya i pedagogika / Pod.red. A.A. Radugina. –М.: 1999.
 41. Климов Е. А. Основы психологии. –М.: 1997.
 42. Usmanova R, Kelganov D. Uzluksiz ta'lim va mustaqil o'qish.-T.: 1988.
 43. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. -T.: «Sharq», 2001.
 44. Yu. Abdullaev. Xorijiy ta'lim tajribasi va taraqqiyot yo'nalishlari. T –1999 yil.
 45. [http:// ppsy. ru](http://ppsy.ru)
 46. [http:// www.iro.yar.ru](http://www.iro.yar.ru)
 47. [http:// www.bspu.secna.ru](http://www.bspu.secna.ru)

MUNDARIJA

Kirish	5
1- Ma'ruza: Pedagogikani o'rganish zaruriyati.	6
2 - Ma'ruza: Ma'rifiy qadriyatlar va maqsadlar.Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyliigi.	11
3 - Ma'ruza: Zamonaviy ta'lim-tarbiya va uning mohiyati.	22
4 –Ma'ruza: Pedagogik texnologiyalar. Pedagogik muuloqot.	30
5- Mavzu: O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslari.	45
6- Ma'ruza: O'quv faoliyatni tashkil qilish shakllari.	57
7- Ma'ruza: Pedagogik nazorat va ta'lim sifatini baholash. Ma'rifiy tizimlarni boshqarish.	64
8 – Ma'ruza: Psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Psixologiya fanining tadqiqot metodlari.	74
9 - Ma'ruza: Shaxs va uning faoliyati.	84
10- Ma'ruza: Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi.Bilish mezonlari va ularning adekvatligi.	94
11 - Ma'ruza: Muloqot.	103
12 - Ma'ruza: Boshqaruv psixologiyasi.	109
13- Ma'ruza: Mehnat psixologiyasi.	116
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	125
Mundarija	127